

GʻAFUR GʻULOM

YODGOR

Qissa, hikoya va sheʼrlar



Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent — 2004

O'z 2

F 79

To'plab, nashrga tayyorlovchi:

OLMOS

G'afur G'ulom.

Yodgor. Qissa, hikoya va she'rlar. — T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004. 176 b.

Akademik shoir G'afur G'ulomning «Yodgor» to'plamiga jamlangan qissa, hikoya va she'rlarini o'qir ekansiz, adib xalq hayotining bilimdoni, mushohadachi san'atkor, hozirjavob naqlchi, yumoristik zehn hamda nozik zavq sohibi, til xazinalarini o'zlashtirgan shoir sifatida ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

«Yodgor» qissasi hamda «Mening o'g'rigina bolam», «Hasan Kayfiy» kabi hikoyalarida aks ettirilgan hayotiy lavhalarda xalqimizning mehri daryo, mehnatkash va jafokash, sodda va ulug'vor siymosi gavdalanadi. She'rlari esa shoirning hozirjavobligidan dalolat berib turadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'plamga kiritilgan asarlarning aksariyati adabiyot fanidan maktab darsliklariga kiritilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'z 2

G' $\frac{4702620201 - 51}{M(352)(04) - 2004}$ rejaga qo'sh. 2004

ISBN 5-635-02292-8

© Olmos, G'.G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004-yil,
(to'plovchi).

YODGOR

Yozning qiziq kunlari. Egnimda yelvagaygina, ko'ksi ochiq, yoqasiga pilta otgan surp yaktak. Boshimda chust do'ppi, belimda shohi qiyiq, oyog'imda nimposhna xrom etik. Uzun, tor bog'ko'chalarning birida ketmoqdaman. Zeriktiruvchi tuproqli ko'cha — jimjit. Daraxtlarning soyasi o'z atrofidan bir qadam nariga siljimag tik turadi. Baland-baland so'qir paxsa devorlar osha, ko'cha tomonga shaftoli, olxirot, ba'zan aymoqi tog'uzumlar osilib tushgan. Har o'n-o'n besh qadamda ko'chani cho'rt kesib — bir tomondagi qo'rg'onchadan chiqib, ikkinchi tomondagi qo'rg'onchanning paxsasi tagiga kirib ketayotgan ko'priksiz mayda ariqlar uchraydi. Pashsha uchmagan tilsiz ko'chadan ketib bormoqdaman. Boradigan yerim hali uzoq. Mayda yallalar kuylab ko'raman. Biroq, ashulaning ayrim bandlari havoning issiqligida erib ketganday avjsiz, lazzatsiz.

Ko'chani ikkinchi boshida paranjili bir xotin ko'rindi. U menga qarab keladi. Yuzi ochiq, chachvonini dastalab ushlab olgan, go'yo yelpig'ichday tebratib, o'ynab keladi. U ro'baro'sida yigit kelayotganidan hayiqmaydi. Lobar, beparvo. Men ham jimjit ko'chada yolg'iz bormoqdaman. Bir-ikki og'iz gap bilan tegishmoqchi, boyatdan buyon bo'lgan zerikuvning hordig'ini chiqarmoqchi bo'laman. Paranjili xotin menga yaqinlashib kelmoqda... Betma-bet yo'liqib o'tishga o'n qadam ham qolmagan. Men undan ko'zimni uzmay bormoqdaman. U ham shunday.

Ana — uning qip-qizil va kichik lablarida meni haligacha maftun qilgan birinchi yarim tabassumning yovvoyi izlari. U sipohgarchilik bilan kulgisini yashirmoqchi bo'ldi. Lekin labda yashiringan kulgi endi qora ko'zlarda o'ynoqlaydi. Kun issig'idan anor yuzlari bo'rtinib ketgan. Baxt yo'llariday oq va keng manglayda marvarid donalariday mayda ter.

Yaqinlashdik, yana bir sekund, men unga, u menga yo'l beradi. Har ikkovimiz o'z yo'limizga ketaveramiz. Yo'q, bu shunday bo'lmadi. U to'xtadi. Bir nafas mening boshdan-oyog'imgacha kuzatib chiqdi.

— To'xtang, mulla aka.

Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi.

— Xizmat, jonim!

— Birovga hech xolis xizmat qilib o'rganganmisiz?

— Yigit kishining kuchi halol. Haligacha xolisdan boshqa xizmat qilgan emasmiz. Butun mehnatimiz dalaga ketgan. Agar xizmatingizga munosib bo'lsam, ko'zim ustiga.

— Bo'lmasa, biror ovloqroq joy topingiz, xizmatimni aytaman.

✓ Shu ko'chaning sal narirog'ida bo'yra-palossiz bir kichik xonaqoh, bir peshayvon, ariq o'tgan kichik sahnga ega bir bog' machiti bor edi. Machit juma kunidan boshqa haftaning olti kunida ko'chib ketgan hovliday bo'sh bo'lar edi. Oldinma-ketin yakka tavaqa eshigidan kirib bordik...

Qiz borib ayvon dahanasiga o'tirdi. Men uning ro'baro'sida — ariq labiga cho'nqaydim... Qiz marmarday bilaklarigacha shimarib qo'yilgan ko'ylak yenglari orasidan kichik shohi ro'molchasini olib, burun uchlari, dudoq ustlariga qo'ngan shabnamday toza terlarni arta boshladi. Ro'molchadan suvga ivitilgan qalampir munchoqning hidi burqib ketdi. Machit bino bo'lgandan buyon bu yerga muhabbat va balog'at hidi birinchi marta tarqalgan bo'lsa kerak. Qiz qoshlarini chimirib, meni bir marta tekshirib, kuzatib chiqdi...

— Uylanganmisiz?

— Yo'q.

— Juda yaxshi, bo'lmasam, meni olmaysizmi?

To'satdan bo'lgan bu nogahon taklifdan juda shoshib qoldim.

— Xizmatingiz shumidi?

Qiz qahqaha solib kulib yubordi...

— Rostdan ham, birovga xolis xizmat qilib o'rganganman deng?

— Agar buyursangiz, qil bilan fil bog'lashga, tirnoq bilan tog' qo'porishga tayyorman.

— Bo'lmasam, — dedi-da qiz, yana o'ylanib qoldi, — mayli, hammasini aytaman. Diqqat bilan quloq solingiz.

Yoshlik kitobining zarhal sahifalarida yurak tepishlari qayd qilingan bu satrlarni umrday mayda to'liqlar bilan oqib borayotgan ariqchaga termilib tingladim. Go'yo barakati ketmagan subhda «Alf layla va laylata»ning Shahrizod afsonalarini so'ylar edi.

— Ota-onam eski odamlar. Bular oldida ishqning puch yong'oqcha qadri yo'q. O'z ra'ylari bilan meni erga berdilar. Erimning tayinli kasbi yo'q, yashirinch a mayda savdogar. Bir yildan ortdi, uning zanjiridaman. Qayg'uli kechalarni g'am tonglariga ulayman. U beparvo. Uning uchun muhabbat yosti qdan boshqa narsa emas. Mening bo'lsa, u bilan bir minut yashagim kelmaydi. Ajrashmoqchi bo'laman. Yaxshi bilasizki, oila eskicha bo'lganidan keyin, qiz ajratib olish juda katta isnod. Erim ham ajralishimga tish-tirnog'i bilan qarshi. Ba'zida o'lguncha ichib keladi-da, meni uradi. Shunda: «Agar mendan zerikkan bo'lsangiz qo'yib yuboring», desam: «Seni zanjirlarda sochingni oqartirib yuboraman», deydi. Men hali yoshman. O'z tengqurlarim singari o'ynagim, kulgim keladi. Bundan bir hafta burun yana har galgi janjallardan bittasi bo'ldi. Bu gal dazmol bosilmagan shim bahonasi bilan yetti otamning go'riga g'isht qalab haqorat qildi, urdi. Bu galgisi juda ham jonimdan o'tib ketdi. Boshimni olib biror yerga qochmoqchi ham bo'lib qoldim... — dedi juvon, ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh olib.

Ichimda: «Obbo! Endi meni olib qoching», desa, qayerga olib boraman, degan mujmal xayol bilan so'radim:

— Xo'sh, endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

Juvon yana bir marta machit sahnida qalampirmunchoq hidi burqitib, ro'molchasini yozdi. Jingala kipriklariga ilinib qolgan yosh donalarini artirdi. Yarim o'ksik ohang bilan: «Bir necha kundan beri poylab yurib, erimning pasportini o'g'irlab chiqdim. Mana shuni olib biror soatga mening erim bo'lib turasiz», dedi.

— Ya'ni, qanday? Mening bu yerda xizmatim nimadan iborat bo'ladi?

Juvonning yuzidagi qayg'ular o'rnini yarim aldovchi mug'ambir tabassum egalladi:

— Go'yo mening erim bo'lasizu, ZAGSga borib, meni taloq qo'yasiz...

Juda allanechuk bo'lib ketdim. Haligina to'liqlari bilan ovuntirgan ariqcha ters oqayotganday bo'ldi.

Suvga ivitilgan qalampirmunchonqning hidi — sarimsoq kabi me'daga tekkanday bo'ldi. Kalakalanib qoldim.

— Bu qanday mumkin?

Juvon mening bu shubhamni o'z latofati bilan yengmoqchi, bu ikkilanuvni takabbur kulgilari bilan sehlamoqchi bo'lar edi. Uning endi mendan hech ko'z olmay tikilib turishidan, go'yo «men seni yenga olaman!» deganday ma'no anglashilar edi.

— Yuragingiz dov bermayaptimi, yigitcha? Do'ppi, qiyiq — savlat deng-chi bo'lmasa...

— Yurak-ku, dov berishga beradi-ya, hali olganimcha yo'q, darrov qo'yamanmi?! Bu ish tug'ilmagan buzoqqa qoziq chopishga o'xshaydi.

Juvon sharaqlab kulib yubordi. Bu kulgidan haligacha machit tomining tarnovida kukulashib turgan ikki musicha cho'chib uchib ketdi.

— Mayli, sizniki shunaqa teskarisidan bo'lsin. Avval qoziq chopamiz, keyin buzoq topamiz. Avval taloq, keyin nikoh qilamiz.

— Qaydam?

Juvon birdan o'zini tundlikka oldi. So'zidagi haligacha bo'lgan mehribonlikni shiddat qopladi.

Pushaymon ohangi bilan:

— Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so'ragan ekanman-ku, bo'ldi-yey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo'lsa paranjini to'nga ayirbosh qilamiz, — dedi.

Bu gapdan keyin men ancha po'k bo'lib qoldim. Oldin bergan va'damdan aynishni yigitlik nomiga or deb bildim. Meni u haqiqatan yenggan edi.

— Xo'sh, endi nima qil deysiz?..

Uning ko'zlari g'alabadan porlar edi.

— Shu lapashangligingiz bo'lsa, hali meni ZAGSda ham sharmandamni chiqaradigan ko'rinasiz. Ha, mayli, tavakkalda, yaxshilab quloq soling. Shu pasportni yonga solib qo'ying. ZAGSga birga boramiz. Eshikdan men sizni, siz meni koyib kiramiz. Siz: «Qo'yanim-qo'ygan», deysiz, men: «Chiqqanim-chiqqan», deyman. Agar ZAGSdagilar yarashtirmoqchi

bo'lsalar, nasihat qilsalar bo'sh kelmaysiz. Bir gapda turib olasiz... Men sizni qarg'ayman, so'kaman, xafa bo'lmaysiz. Siz ham bir-ikki marta so'kishingiz mumkin... Ishqilib, taloq pattani qo'linga olib bersangiz bas...

Shunday qilib, juvon tushmagur, ilonning yog'ini yalaganday bidirlab, meni avradi, bosh-ko'zimni aylantirdi. Ikkovlashib ZAGSga qarab ketdik.

Yarim soatlardan keyin bir-birimizni kurakda turmaydigan haqoratlar bilan so'kib ZAGSning tor idorasini boshga ko'tarib, shovqinlashmoqda edik. U meni «chayqovchi», deydi. Men uni «tantiq, satang», deyman, ZAGSdagilar har ikkovimizni bosib qo'ymoqchi, iloji bo'lsa bitishuvchilik bilan yarashtirib qo'ymoqchi bo'ladilar. Men bo'y bermayman. U mahmadonalik qiladi. Xullasi, ZAGSdagilar ham tanglikda qoldilar. Tezroq bizning taloq pattamizni berib, janjaldan boshlarini qutultirmoqchi bo'ldilar. Unchalik qiyin-qistovga olib, surishtirib o'tirmadilar ham. Pasportimni olib, patta yoza boshladilar.

Ana endi markasi ham yopishtirildi. Kopiyasi ko'chirildi. Bir nusxa unga, bir nusxa menga berdilar.

Xarajat pulini to'lab turib, bir xo'rsinib qo'ydim:

— Xudoyo shukur, — dedim, — shunday lazzatsiz umrdan qutuldim! Endi hech uylanmaganim bo'lsin-a.

Juvon ham pattani olib turib:

— Uh, — deb qo'ydi, — yorug'lik jahonga chiqadigan kunlar ham bor ekan-a. Er shu bo'ladigan bo'lsa, qora yer bo'lsin...

ZAGSdagilar bizning gapimizga achinish aralash sovuqqonlik bilan qaradilar.

Hech kim biror so'z demadi.

Ishni bitirib, bir-birimizga to'rsayishib, ko'chaga chiqdik. Ko'chada u menga yondashib, bir o'ymalab qo'ydi:

— Rahmat. Men o'ylagandan ham yuqori quv bola ekansiz. Lekin hali ishimiz sal chalaroq bo'lganga o'xshaydi. Agar sizga bu yog'i malol kelmasa, o'n minut meni ZAGS eshigida kuting. Men hozir qaytib kelaman. Bir bo'lgan ish — puxta bo'lsin. Ha, darvoqe, pasportni menga bering. Endi kerak bo'lmas.

Men lakalov, go'lgina banda, laqqa uchdim:

— Xo'p, faqat tezroq keling.

Juvon tramvayga tushib ketdi. Men kutib qoldim. Haqiqatan, aytganidan ham tez keldi. Lekin qo'ltig'ida — parangi ostida bir nima borday ko'rinar edi.

— Yuring, — dedi u, — ZAGSga kirib, o'sha qolgan chalasini bitkazamiz.

Kirdik. Yana o'sha taloq stoliga yaqinlashdik.

Juvon qo'ltig'idagi tugunchani oldi. Ko'zlarim kosasidan chiqib ketguday bo'ldi. U oppoq qilib yo'rgaklangan, maza qilib, hamma ishdan beparvo emizik emib yotgan yosh bola — yangi tug'ilgan chaqaloq edi.

Men savol ko'zi bilan unga qaradim. U, xudo urgan o'jar, dag'dag'a bilan ZAGS ro'yxatchisiga qarab:

— Mana, qo'yishga qo'ygandan keyin, bolasini ham boqib olsin. Yosh umrimni bola boqib xazon qilmayman. Kerak bo'lsa o'zi boqsin. Itdan bo'lgan qurbonlikka yaramas! — dedi-da, bolani menga tutqizib, jahdu jad bilan ko'chaga chiqib ketdi. Men bolani ko'targancha ag'rayib qoldim. Nima qilish kerak? Agar: «Hoy birodarlar, bu xotin mening xotinim emas. Men yollanib uni qo'ydim, bolaning ham hali qiz-o'g'illigini bilmayman», desam, baloga qolaman. Balki jinoiy mas'uliyatga tortarlar. Garangsib qoldim. Yig'lagunday bo'lib:

— Axir, men endi qandoq qilaman? Buni qayerga olib boraman? — dedim-da, o'z gapimdan o'zim cho'chib ketdim. ZAGSdagilar menga haqoratli nazar bilan qaradilar, ichlaridan bittasi jerkib:

— Shunday yosh xotinning umriga zomin bo'lganingdan keyin jabrini ham tort-da. O'z gunohing, uka, — deb piching otib qo'ydi.

Yana birisi yupatganday bo'ldi:

— Xafa bo'lmang, emizikdagi bolani qonun onasiga buyuradi. Innaykeyin, xotiningiz sal taptidan tushsin, baribir, onalik muhabbati qo'ymaydi, bolani sizdan olib ketadi.

Juda shalvirab tushgan edim. Oyoqlarimga ham ishonmay, sudralib qadam tashlardim. O'sha kuni uzun, keng, serqatnov shahar ko'chasida bola ko'tarib, tentirab yurganimni ko'p kishi ko'rgan edi. Ko'chani u boshidan bu boshiga bir necha marta borib keldim. Xuddi biror nimasini yo'qotgan kishilarday, intizor, hushim ketgan edi. Ora-sira chaqaloqqa qarab qo'yaman. Yo'rgagi yuzini yashirgan bo'lsa, nafas

olishga qiynalmasin deb, qiya qilib ochib qo'yaman. Chaqaloq mayda-mayda chiroyli nafas olib yotadi. Emizagi og'zidan tushib ketgan. Haligina emgan, so'nggi ona sutlarining lazzatini tamshanib qo'yadi. Ana, u kichkina, qora munchoqday ko'zlarini ochdi. Qorachiqalar beqaror, bir nuqtada to'xtalib turmaydi. Oppoq momiqday yuzlarda g'ivir-shivir ijirg'anish boshlandi. Qorni ochdimikin yo tagi ho'l bo'lib qoldimi — yig'lay boshladi.

Endi nima qilaman? Axir, bola ulg'ayib, ota-onasini topib olguncha, ochdan-och ko'chada ko'tarib yurish mumkin emas-ku! Biror oshig'ich chora topish kerak. Chaqaloqning yig'isi meni tezroq bir qarorga kelishga chaqirdi. Onasining qilgan bevafoqligi orqasida tor-mor bo'lgan yigitlik zaptini qayta boshdan tikladim. Bo'lar ish bo'ldi. Endi qanday bo'lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. Axir, bu go'dakda nima ayb? Ayb ota-onasida. Es-hushimni yig'ishtirib oldim. Qat'iy qarorga keldim. Bolani quchoqlab tramvayga tushdim. Uyga qarab ketmoqdaman.

Bola tramvayda o'zini juda notinch tutdi. Uzlikib-uzlikib yig'laydi. Iskab-iskab, ona bag'rini qidiradi. Ko'ksinga bosaman. Lekin menda u qidirgan hid yo'q. Yana yig'laydi. Yo'lovchilar bezovta bo'la boshladilar. Men xijolat chekaman. Oralaridan bittasi:

— Og'ayni, bolani onasiga bering, jindek emizib bersin, — deydi.

— Onasi yo'q, — deyman. Yana bittasi g'udunglab:

— Onasini uyda qoldirib, yosh bolani ko'chada kezdirish juda bema'nilik-da, — deydi.

— Onasi betob edi, bolani tortdirgani olib borgan edim, — deb chuchmal javob beraman.

Tramvay jamoatchiligiday sermulohaza xalq kamdan-kam bo'ladi. Bittasi olib-bittasi qo'yib, yosh bola to'g'risida gap otadilar. Ba'zilar meni ahmoqqa chiqarib qo'ygan, ba'zilar tang ahvolimdan achinganday bo'ladi. Yonimda o'tirgan bittasi zarda bilan o'rnidan ham turib ketdi. Men bilan chaqaloq bu tarafda qolib ikki kishi janjallashib ham ketdi. Bittasi: «Yosh bolaning yig'lagani yaxshi, ko'zi qora bo'ladi», desa, ikkinchisi: «Yo'q, yig'lamagani yaxshi, ko'p yig'lasa, ko'ziga oq tushadi», deydi. So'kishishgacha borib yetganda, biz — yangi ota-bola tramvaydan tushib qoldik.

Men eshikdan kirib borganimda oshxona bilan ayvonning ustuniga arqon tortilib, ukalarimning katta-kichik ko'ylak-ishtonlari yoyilgan, kampir tog'ora ustida o'tirar edi. Kampir qo'limda bola bilan kirib kelganimni ko'rib, «hoynahoy, opa-singillarini yetaklab kelayotgan bo'lsa kerak», deb o'yladi shekilli:

— Tag'in mehmon boshlab keldingmi, kim kelyapti, Savrimi, Rahbarmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? O'zing ham, bolam, xudo urgan qo'li ochiq, mehmondo'stsan-da, muncha aka-uka, egachi-singillaringga mehribon bo'lmasang, bu kun ham ukalaringning kiri chala qoladigan bo'ldi-da, — dedi.

Endigina sal ovungan chaqaloq yana yig'i boshladi. Kampir tog'ora boshida turib, chaqaloqni ovutmoqchi bo'ldi:

— Ninni, ninnigina nevaraginamdan o'rgulay, yig'lamasin-yig'lamasin, mana hozir buvingiz qo'lini artadi, do'ndiqqina, o'zim bag'riginamga bosaman!

Kampir ko'pikli qo'llarini tog'oraga silkib, o'rnidan turdida, «nabira»ni qo'limdan oldi. Menga qarab:

— Hoy bolam, namuncha qovog'ingdan qor yog'ilib turipti, ayta qolsang-chi, kim kelyapti? — dedi.

Indamadim.

Kampir o'z umrida o'nlab bola o'stirgan onalarga maxsus mehr-muhabbatli oila sevgisi uning asl kasbiga aylanib ketgan. U har zamon-har zamon:

— Bolam, kuch degan suyakdan, yo go'shtdan bo'lar ekan. Xudoyo shukr, meniki suyakdan ekan, go'shtdan bo'lganida edi, shu olti bolani o'stirish osonmidi, onang o'rgulsin, — deb qo'yardi. Men bu sodda gapdan hech nima anglamasdim.

Ey, meni bag'ring bilan parvarish qilgan ona, ey, menga borlig'ingni bergan ona, ey, mening tarbiyam uchun ko'z yummasdan hulkarlar ko'zlaringga cho'kkan ona. Ey, qora kechalarning zulmati baxtiga cho'kkan ona, ey, yorug' kunlarning saodati kelajagingga qo'ngan ona! Dunyoda onadan ortiq kim mehribon? Haligacha beshik tepasida kuylagan allalaringga baravar she'r yoza olmadim. Haligacha mendan chiqqan kichik isitma uchun tortgan qayg'ularingga teng qayg'u his qilolmadim.

Onam chaqaloqni birorta egachi-singlimning yoki akamning bolasi deb o'ylagan ekan. Bechoraning hozir oltmish ikki yoshi bor. Uning umrlari allaqaysi menga qorong'i o'tmish yillarning shox-butoqlarida olma tergan qizlarning etaklariday ilinib qolgan. Uning ko'z nurlari biz olti bolaning ko'zlariga telmuraverib taqsimlangan. U chaqaloqni darrov taniy olmadi. O'z tili bilan aytganda «piri badavlat» bo'lgan onam, bu chaqaloqni «Birorta nabiram bo'lsa kerak», deb o'ylagan.

— Oyi, — dedim, — shu bolaning chakagini o'chiring, onasi hali-beri kelmaydi.

Kampir meni koyib ketdi:

— Tinib-tinchimaysan-da, o'g'lim, sening bolajonliging tinkamni ham quritdi. Nega emadigan bolani onasidan ajratib olib kelasani, men endi bunga nimja beraman, egaching tushmagur ham o'lguncha beparvo, bolaning qadrini bilmaydi. «Omon bo'lsang pisharsan, bu taptindingdan tusharsan», ular ham yoshlikning taxu takosini yig'ishtirgandan keyin, zora bolaning qadriga yetsa, «onaning ko'ngli bolada — bolaning ko'ngli dalada».

Chaqaloq tinmay yig'lab turar edi. Kampir meni ham, yuvib turgan kirini ham unutib yubordi. Bolani qo'liga olib, turli harakatlarni bilan uni tebratib ovutmoqchi bo'lar edi. Bola ochiqqan edi. Uni ovqatsiz, xushmuomala bilangina yupatish ancha mashaqqat edi.

— Oh, yoshlar, yoshlar, — der edi kampir.

Bolani menga berib, o'zi irviti qutisini ochdi. Undan bir-ikkita g'alvirak bodom olib yanchdi. Uni qaynoq suvga ivitgandan keyin, doka ro'molga o'rab, bolaga shimdira boshladi.

Tasodifan o'sha kezlarda akamning xotini hamda kichik singlim tuqqan bo'lib, kampir bu chaqaloqning qaysi birisiniki ekanligini bilmas edi. Bola bir oz tinchlandi. Bir oz turib yana yig'ladi. Orada bir-ikki soat vaqt o'tib qolishiga qaramasdan kampir kutgan «mehmon»dan darak yo'q edi. Kampir meni koyiy boshladi:

— Tusingni yel yemasin, o'g'lim, hoy sen qanaqa bola chiqding? Nega axir bu yoshgina go'dakni onasidan ajratib, tentiratib yuribsan?

— Oyi, — dedim, — rostini aytaymi, bu bolaning onasi yo'q. Kutganingiz bilan kelmaydi ham. Bu — mening bolam!

— A?... — dedi kampir. — Nima deyapsan, bema'ni? Qanday qilib bu sening bolang bo'ladi?!

— Kishi qarigandan keyin ezma bo'lib qolar ekan-da, mening bolam degandan keyin, mening bolam. Surishtirib nima qilasiz, boqavering!

— Hoy, sen bola, nima deyapsan? Sinni solim shu yerga kelganda, kelib-kelib endi senga mayna bo'lib qoldimmi, bolam? Axir, bu kimning bolasi o'zi?

Kampirga bir oz baland kelish kerak edi:

— Mening bolam dedim-ku, tamom! Mening bolam, shuni boqasiz. Meni, aka-ukalarimni qanday tarbiya qilgan bo'lsangiz, buni ham shunday tarbiya qilib o'stirasiz, boshqa gap yo'q.

Kampir avval ishonmadi. Keyin yuzimdagi jiddiyligni ko'rib, gaplarimning mazmuniga bir oz tushunib olganday bo'ldi. O'zini tiyolmasdan, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi.

— Axir, — dedi kampir, — men endi qanday qilaman? Yetti nomusimni yerga bukding, juvormak! Men seni kim ko'rganga maqtab, orqangdan ko'rpacha soldirib yurgan bo'lsam, ammaning qiziga sovchi yuborib unashtirib qo'ygan bo'lsam, sen juvormak oxir chog' uyimga onasining tayini yo'q bolani ko'tarib kelsang. Men bu xo'rlikka qanday chidayman? Do'stim bor, dushmanim bor, mahalla-ko'y, guzarim bor, qarigan chog'imda kenjaginamning xotini menga pushti-panoh, qo'l-oyoq bo'larmikan, degan edim. Xudoyo, seni otangning arvohiga soldim.

— Hadeb, ob-dida qilavermang, oyi, men ham sizni xursand qilaman, deb yurgan edim-u, lekin onasi shu bolani tug'di-yu, o'ldi-da... Bo'lmasam kelin desangiz arzigunday kelin edi.

— Axir, kimni olgan eding? Kimning farzandi edi? Bolaning onasi o'lgan bo'lsa, azasiga boray, uyi qayerda?

Chaqaloq yana yig'lab qoldi. Kampir men bilan pacha-kilashib o'tirsa, «nabira»gina och qoladigan, ko'z yoshlarini dakanasining uchiga artib, chaqaloqning yoniga bordi. Uni yo'rgagidan yechdi:

— Bolaginamning tagi ham bo'kib ketibdi.

O'rnimdan turdim, sekin ko'zimning qirini tashlab qaradim. Bolish paryostiqlay momiqqina oq badanli, to'la, o'g'il bola ekan.

Shu fursatdan boshlab mening yuragimda g'azab bilan muhabbatning, o'ch bilan ishqning kurashi boshlandi.

Guvoh bo'ling, o'rtoqlar, shu — mening o'g'lim bo'ladi!

Avvalgi bir necha kun kampir bolaga unchalik mehribonlik ko'rsatmadi. Ukalarimning sut stansiyasidan har kun keltiradigan sutini ham juda ishonchsizlik bilan bolaga berib yurdi. Lekin kundan-kun bolaga bo'lgan mehr-muhabbati oshib borganligi sezilar edi. O'ninchi kunlarga borganda yig'lab yotgan bolani ko'rib, ukalarimni koyiyotganligini eshitib qoldim:

«Hoy, Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! Nonimni yopib olgunimcha ovutib turgin. Men hozir borib olaman».

Yoinki: «Abdug'ani, tura qol, oppoq o'g'lim, vaqtliroq borib, ukangning sutini olib kelib bermasang, kun qizib ketsa, olib kelguncha aynib qoladi», — deyar edi.

Kampirning bu gaplari bolaga uning muhabbatining oshib borayotganligini ravshan ko'rsatib turar edi. Demak, men tinchlansam bo'ladi. Bolaning tarbiyasi ta'minlandi. Harchand kampir haligacha norg'ul-norg'ul azamat bolalardan oltitasini o'stirgan bo'lsa ham, uning tarbiyasi biroz eskicha. Lekin nima qilish mumkin? Boshqa xil tarbiya berishga men singari dunyo ko'rmagan, bo'ydoq yigitning chorasi yo'q. «Bolalik uyda g'iybat yo'q», deganday, o'g'lim kelgandan buyon uyimizda anchagina ermak topilib qoldi. Ukalarim maktabdan kelgandan keyin o'ynaydigan narsalari chaqaloq. O'zim ham ishdan qaytgandan keyin chaqaloqni qo'limga olib, jindek ovuntirgan bo'laman. «Ninni-ninni» deb qo'yaman, «kulib bering», deyman.

Shunchalik o'zimizdan tinib-tinhib qolganimizga qaramasdan, men bu chaqaloq to'g'risidan anchagina gap-so'z bo'lib oldim. Ancha ta'na-malomatlar eshitdim. Ammam qizini menga bermaydigan bo'libdi:

— Bo, xudo ko'tarsin unaqa yigitni, — deyar emish, — kim ko'rgan bilan yurib, bola ko'tarib keladigan beboshvoqqa beradigan qizim yo'q. Mening qizim hali ochilmagan gul, mohpora, — deyar emish.

Mahalla, ko'y- guzardagi kim ko'rgan meni masxara qilib:

— Ha, farzand katta bo'lib yotibdimi? — deb so'rab qo'yishadi. Men ham juda o'jarlik bilan qarayman-da:

— Shukur, — deb o'taveraman.

Akam-ku orqavoratdan:

— Bo'ldi, — deyar emish, — men bilan bordi-keldi qilmasin. Unaqa ukam yo'q! — deb yurgan emish.

Opam bo'lsa kampirni koyir emish. «Qarigan chog'ingizda, — deyar emish, — sizga nima zarur: bolasini qo'lga tutqazing, xohlagan joyiga olib borib boqtirsin, xudo ko'tarsin, «yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'g'lon asrasang, og'zi-burning qon etar» degandek, hali bu o'limtik katta bo'lib, sizga bozordan bir chakim nos olib kelib berdi-yu, birov ko'rmay qoldi», — deyar emish.

Xullasi, qarindosh-urug', mahalla, tanish-bilishlardan turtki yeyaverib xit bo'lib ketdim, nomim yomonlikka yoyildi, kim ko'rgan ta'na qilib ta'zir beradi.

Shu kezlarda mening jonimga tasodif ora kirdi. Yoshim yigirma ikkida bo'lgani uchun harbiy xizmatga chaqirib bo'lib, mahalla komissiyasi Harbiy komissariatning povestkasini topshirdi. Bu narsa menga juda yoqib tushdi. Og'zim qulog'imda. Yelib-yugurib borib doktordan o'tdim. Butun a'zoyi badanini po'latdan quyganday sog'-salomat bo'lgani uchun birinchi darajada yaroqli bo'lib qabul qilindim. Bosar-tusarimni bilmay xursandman. Doktor meni kavaleriya ham pexotaga yaraydi deb yozdi. Harbiy komissariat meni pexota qatorida Ashxobodga yuboradigan bo'ldi.

Bu ish kampirga ma'lum bo'lgandan keyin jindakkina ko'z-yosh qilib oldi. Men Ashxobodga ketgunimcha qolgan ikki-uch kun ichida uyda juda siylanib yashadim. Haligacha jirkanib, xor tutilgan o'g'limga ham hech kim shamolni ravo ko'rmay, diydasing ustida saqlab, hurmat qiladigan bo'lib qoldi.

Chaqaloq kelgandan buyon unga tayinli bir ism qo'yilmagan edi. Menga hurmatan kampir unga «Yodgorvoy, Yodgorvoy» deb ism qo'ya boshladi. Kampirdan:

— Oyi, Yodgorvoyingiz nimasi, qayoqdagi qolib ketgan eski ot-ku, — deb so'rasam, kampir o'pkasini tutib ololmay:

— Oh, onaginang o'rgilsin, bolam, sen endi sallotga ketayotibsan, xudoyo xudovando, yomon ko'zdan saqlasin... xudo dushmaningni xoru zor qilsin. Ishqilib, o'qqa uchib

ketmagin. O'rtoqlaring bilan yenginglaru yengilmanglar. Men o'g'lingning otini ehtiyot shartdan Yodgor qo'ydim. Sendan qoladigan tuyuqqina. Yaxshi ham shu bola dunyoga kelib qolgan ekan, seni ko'rgandek bo'lib yuraman, hiding dimog'imdan ketmaydi, — deb yig'lar edi.

Kampirning gaplari menga kulgi tuyulsa ham, hurmat yuzasidan ham bolaga yaxshi parvarish qilish zarurligi vajidan, bir nima demasdan, unga tasalli berar edim.

Shunday qilib, haligacha yurak tepishlar bilan kutgan sevimli yangi olamga — harbiy qo'shin quchogida qarab jo'nab ketdim.

* * *

Men, o'zim qatori chaqirilgan tengqur yigitlar bilan Ashxobodga jo'nadim. Harbiy xizmatga chaqirilganimda chalasavod, hisobdan to'rt amalnigina biladigan oddiy bir yigitcha, yana to'g'risi, oldi ochiq yaktak kiygan yalla bedard o'spirin edim.

Bizni qabul qilib oldilar. Uydan kiyib kelgan haligi kiyim-boshlarim allaqachon harbiy forma bilan ayirbosh qilingan. Bu kiyim-boshlarga bir necha kunlar ko'nikolmay yurdim.

Harbiy ta'limlarni juda jon-dil bilan o'rganayotganim ham, harbiy xizmatlarga juda ishtiyoq bilan bo'yin egganim, berilgan yaroqlarni ozoda tutishim, yotoqlarimning tartibli turishi — hammasini ko'rgan o'rtoq komandir har zamonda meni erkalab:

— Shunday bo'lishi kerak, siz yaxshi askar bo'lasiz, — deb qo'yadi.

Umumiy harbiy ta'limdan tashqari, kechqurun har kim o'z kuchiga qarab gruppalariga ajratilgan — o'qiymiz. Muallimlar mendan juda xursand.

Ahyon-ahyonda hovlidan — kampirdan xat kelib qoladi. Unda yoziladigan gaplar, albatta, ma'lum. «Seni sog'indik, hech bandani ota-onasiz qilmasin ekan. Yodgorning ham tili chiqib qoldi, «dada-dada»ni og'zidan qo'ymaydi. Yuraklarim ezilib ketadi», ana shunga o'xshagan gaplar. Men ham xat yozib qo'yaman. Otpuska olsam borib ko'rib kelishni va'da qilaman. Shunday qilib, umr o'tib turadi... Kundan-kun jussam to'lishib bormoqda, rangim qip-qizil, ba-

quvvatlashib ketganman, xursandman, tevarak-atrofim oshna-og'aynilar bilan to'lib yotadi. Zerikish degan narsani bilmayman. Bizning polkda turli millatdagi yigitlar bor, qozoq deysizmi, o'zbek deysizmi, tatar deysizmi, tojik, turkman deysizmi — hammasi bilan inoqman. Hammasini ham qo'yavering, so'nggi olti oy ichida juda ham qattiq havas bilan rus tilini ancha o'rganib oldim, hovliga yuboriladigan xatlarning manzilini o'zim yozaman. Yaqinda butun harbiy kiyim-bosh bilan surat oldirdim, shu suratimni konvertga solib kampirga yubordim. Oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin akamdan xat keldi. Kampir suratni qo'lidan qo'ymas emish. Butun qo'ni-qo'shnilariga suratimni ko'rsatib chiqqan emish. «Xudoyo shukur, — deyar emish. — shu tentakkina o'g'linga ham aql kirib, hukumatning sallot boshisi bo'lib ketgan», deyar emish. Quvonchlari olamga sig'mas emish.

Bir yildan keyin kampirni, kasal, deb eshitdim. Ariza berib, o'n kunlik otpuska oldim. O'rtoqlar bilan xayrlashib kampirni ko'rib kelmoqchi bo'ldim. Men kelgan kuni hovlida to'y bo'lib ketdi.

Men bilan arazlashib qolgan akam, opalarim, kelinoyim ham kelgan. O'g'lim bo'lsa alpon-talpon yuradigan, baqaloq, oppoq bola bo'lib qolibdi. Tizzamdan tushmaydi, men ham qo'limdan qo'ymayman. Ko'chaga chiqqanda ham ko'tarib chiqaman. Avvalgiday, meni «ha, kuyov, o'g'ilcha katta bo'lib yuribdimi?» — deb mazax qilishmaydi.

Ammam ham ko'rgani keldi. Ketar oldida kampirni xoli topib: «Taqdirni buzib bo'larmidi, yigit degan ne ko'ylarga tushmaydi. Tentakkinangiz sovlatlilikka yigit bo'lib qaytdiya, sallotlikdan. Kuniga, deng, aylanay egachi, sovchilar eshigimning turmini buzadi. Hammasiga ham, «yo'q, aylanaylar, hali qizim yosh, undan keyin buning boshi bog'liq», deb javob beraman. Tog'asining o'g'liga «beshik ketdi» deyman, buning yigiti Ashxobodda sallotboshi deb maqtanib qo'yaman», debdi daromad keltirib. Kampir buni menga og'zining tanobi qochib, iljayib gapirganda men:

— Qizi hali yosh, shoshmasa ham bo'ladi. Menga qarasa men hali uch-to'rt yilsiz uylana olmayman. Hali harbiy xizmatim tamom bo'lgani yo'q, undan keyin yana bir-ikki yil o'qimoqchiman, — deb javob berdim.

Kampir ham:

— Ha, aylanay bolam, hali ham, ertaga to'y bo'lsin, deyayotgani yo'q, aytganingdek qizi ham yosh, shunchaki daromad qilib qo'yyapti-da, bolam! — dedi.

Toshkentda turgan uch-to'rt kunda o'rtoqlarimni sog'inib, yuragim urar edi. O'zimning sevimli polkimni zoriqib-zoriqib sog'inar edim. Shuning uchun ham otpuskani tamom qilmay tezda qaytib ketdim.

Ikkinchi yil — takticheskiy o'qish bo'lsin, umumiy ma'lumot bo'lsin — juda jiddiy ketdi. Men ayniqsa harbiy bilimlar bilan birlikda chala qolgan o'rta maktabimni bitirishga urinar edim. Hatto yil o'rtasiga borib, komandir otdeleniya qilib ko'tarildim. Onamdan kelgan xatlarning mazmuniga qaraganda, kampir ham endi meni «o'linga ketgan» sallot deb o'ylamas edi... U: «Aylanay bolam, yaxshi o'qigin, yaxshi mashq qilgin, sayoq bo'lmagin, yolg'izgina o'g'lingni yodingdan chiqarmagin», — deb nasihatlar qilib yozar edi.

Albatta, o'g'lim Yodgorni, ham u bilan bog'langan voqealarni hech qachon yodimdan chiqarmayman. Bilmadim, taqdir uning va mening peshonamga nimalar yozganikin?

Asosan o'ylaganda «taqdir» degan so'z kishilarni yaratmaydi, balki kishilar taqdirni yaratadi. Men o'zimga ham, Yodgorga ham juda yorug' kelajak, porloq taqdir yaratishga harakat qilmoqdaman. Bu to'g'ridan kampir tinch bo'lishi mumkin.

Ish bilan o'tgan umr juda qisqa tuyuladi. Erta bilan vaqtli mashqqa chiqamiz, ortiqcha, turmushga aloqasiz xayollarni o'ylashga qo'l ham tegmaydi. Kecha bilan o'zimni yana dars tayyorlab o'tirgan holda ko'rib qolaman. Turib-turib o'zimga ishonmayman. Shu menmi? Kechagina dunyoning ishqini, zavqini — sayroqi bedana, xrom etik, beqasam to'n, yaxshi qo'lbola musallasdan iborat, deb yurgan oddiy chapani — shu menmi? Ammo bugun mening butun zavqim o'zgarib ketgan. Mening ishqim, muhabbatim o'zining mazmunini o'zgartgan. Men endi Vatanimning ishqini bilan yonaman. Shu Vatanimning va meni tarbiya qilayotgan jamiyatning yaxshi o'g'li bo'lgim keladi va bo'laman ham.

Yigirma besh yoshimning ko'klami. Olam chamanlarga burkangan, dunyo lolalardan, g'unchalardan iboratga o'xshaydi. Hamma jahon menga kulib qaraydi. Qo'limni

peşonamga qo'yib, uzoqlarga qarayman. Oyoq ostimda baxmallarga burkanib yotgan ulug' Vatan; uzoq-uzoqlarda uning baxt-saodatli qishloqlari — shularning hammasi go'yo menga botirlik ishqı baxsh etib, mendan xizmat kutib turganday bo'ladilar. Yigirma besh yoshni nima deb atasam ekan? Agar tabiatning ixtiyori mening qo'limda bo'lsa edi, yana bir necha yillar shu yoshimda to'xtab turar edim.

Ey, meni tarbiyalab o'stirgan, dunyoga qarashga o'rgatgan, ikkinchi onam bo'lgan harbiy qism, nimaga mening yigit unrim shuncha qisqa qo'yildi? Ikki yil ikkita issiq o'pichday tez o'tib ketdi?

Mana, tez orada davomli otpuskaga ham chiqamiz. Lekin men yana ko'ngilli bo'lib qolmoqchiman. O'qishlar juda qizg'in bormoqda. Ko'pchilik fanlardan «a'lo» darajaga ega bo'lsam ham, nima uchundir... ona tilidan bo'shroqman. Muallimlarim meni uyaltirib qo'yadilar... Xayr, endi bir fan uchun «past» baho bermaslar.

Biz bilan bitiruvchi yigitlarning ko'plari «a'lo» daraja oldilar. Komandirning menga mehribonchiligi ayniqsa yaxshi. Ba'zida:

— O'rtoq komandir, — deyman, — agar mumkin bo'lsa, meni yana ko'ngillilar qatori harbiy xizmatga qoldirsangiz, — deyman. U iljayib, yelkamga qoqib, erkalab qo'yadi.

— Sening to'g'ringda mening fikrim boshqacharoq, — deydi, — kerakli joylar bilan so'zlashib qo'ydim. Seni majburiy xizmatning tugagandan keyin, albatta endi istasang, Leningradga yubormoqchimiz. Harbiy akademiya qoshidagi meditsina fakultetiga kirib o'qiysan. Agar u yerda ham o'zingni shu mahalgacha tutganingdek faol, jiddiy, o'z vazifasini anglaydigan bo'lib tuta olsang, to'rt yilda yaxshi harbiy doktor bo'lib yetishasan.

Bu gaplarni eshitib, juda ham quvonib ketaman. Ko'z oldimda yaqin baxtli kelajak porlaganday bo'ladi. O'rtoq komandirning qo'lini mahkam siqib, unga minnatdorchiligimni bildiraman.

Haqiqatan ham, o'rtoq komandir menga bergan so'zida turdi. Ham harbiy ta'limdan, ham boshqa fanlardan «a'lo» darajada imtihon berdim. Otpuskani oldim.

Maxsus komissiyadan o'tib, akademiya yo'llanma ham oldim. Quvonchim olamga sig'maydi, ikki yil bo'yi aka-ukaday bo'lib qolgan o'rtoqlarim bilan ajralish juda qiyin.

Kanselyariya kirib kartochkalarimni oldim. Otpuskaga ketuvchilar uchun maxsus chaqirilgan kechada o'rtoqlar bilan, muallimlar bilan, bizni tarbiya qilgan komandirlar bilan issiq-issiq quchoqlashdik, o'pishdik, xayrlashdik. Men, ayniqsa, muallimim bo'lish bilan birlikda eng yaqin birodarim bo'lgan komandiringa so'nggi chestimni berdim:

— O'rtoq komandir, sizning shogirdingiz butun umrida o'z Vatanga sodiq qoladi. Uni har qanday ichki va tashqi dushmanidan mudofaa qilishda botir askar deb o'zini his qiladi. U jonajon Vatanning, mamlakatning obodonligini va hurmatini saqlashga postda turgan ryadovoy askarday doim tayyor!

Meni tarbiyalab o'stirgan Vatanim mendan harbiy doktor bo'lishlikni talab qilgan ekan, men tez fursatda bu vazifani «a'lo» darajada bajaraman.

Toshkentda do'stlarim, o'rtoqlarim, aka-ukalarim — hammalari ham juda hurmat bilan qarshi oldilar.

Yodgor bo'lsa yaqindagina qizamiqdan qutulib olibdi, meni, tashvishlanmasin, deb bu to'g'rida yozmagan ekanlar. Yarim-yorti tili ham chiqib qolibdi. Chunonchi, «peshona» deb aytolmaydi-da, «shepana» deydi; «r»ni hech ham aytolmaydi, «boraman», deb aytgin desam, «boyaman» deydi; «patron», deb aytgin», desam, «patyon» deydi, «aeroplan» degin desam, «ayupyan» deydi. Kulishamiz. Mening harbiy kiyimim, ayniqsa shapkam Yodgorni juda qiziqirdi. Shapkamni kiyib oladi-da, ko'ziga tushib ketsa ham buvisiga chopib boradi.

— Buvi-buvi, men dada bo'ldim, — deydi.

Ishqilib, bolali uyda g'iybat yo'q.

Mening askariy xizmatni tamom qilib kelganimni eshitgan kampir orqavarotdan to'yni tezlatish harakatiga tushib qopti. «Yosh bo'lsa ham mayli, o'zi durkungina, o'zim katta qilib olarman, men bundan ham yosh tushgan edim, nikoh pattasini ola olsa bas», deyar emish.

Men Leningradga ketishimni hali onamga aytmagan edim. Bu to'g'rida opamga aytdim. «Kampirga aytib qo'ying, to'ydan ilgari nog'ora qoqib yurmasin. Men askariy xizmatdan

bo'shagan bo'lsam ham, o'qishim tamom bo'lgan emas. Hali uch-to'rt yil o'qishim bor. O'qishni tamom qilganimdan keyin bir gap bo'lar, shuni tushuntirib qo'ying», dedim. Shu bilan bu masala hal bo'ldi.

O'qish birinchi sentabrdan boshlanadi. Ikki yarim oylik umrni bekorga o'tkazish maslahat emas edi. Toshkent universitetining meditsina fakultetiga borib yangi kiruvchilardan talab qilinadigan ma'lumot darajasini bilib oldim. Ham shunga qarab Leningradga tayyorlana boshladim.

Kechki paytlar bo'lsa Yodgorni ko'tarib olaman. Parklarga borib sirk'larga kiramiz. Aylanma ot o'yinida Yodgorni otga mindirib aylantiraman. Quvnoq, baxtli, saodatli umr juda sekin o'tib turadi. Yodgor yangi kelgan kunlarimda bir oz tortinib turgan bo'lsa ham, keyingi kunlarda juda inoqlashib ketdi. Mendan bir qarich ham ajralgisi kelmaydi. Biror soat ko'ziga ko'rinmay qolsam: «Dadam ani?» deb janjal qilar emish. Bolani otaga bunchalik ham o'rgatish yaxshi emas. Chunki men Leningradga ketganimda ichikib qolishi mumkin. Kampirning fikri ham shu.

Minutlari soatday, soatlari kunday uzun ko'ringan, qachon o'sha kunlar bo'lar ekan, deb sog'ingan, yurak urib kutgan vaqtlar ham yaqinlashdi. Yigirmanchi avgustda, albatta Leningradga bo'lishim kerak. Bugun bo'lsa o'ninchi avgust. Indinga albatta jo'nayman. Egachi-singillarim, akam keldi. Ularning bola-chaqalari kelishdi.

Men shunda bildim: agar kampirndan tarqalgan bolalari, nabiralari hammasi bir uyga yig'ilsa, o'zimiz ham salkam bir mahalladek oila bo'lar ekanmiz. Uyimiz to'ydagiday bo'lib ketdi. Kampir egachi-singlim bilan birga kuyunib-suyunib bo'g'irsoqlarmi, patirlarmi-ye, cho'zma-chalpaklarmi-ye pishirmoqda, menga yo'l oziqlari tayyorlamoqda edi. Hammalari meni kuzatish taraddudida. Yodgor bo'lsa, kampirning boshqa nabiralari bilan o'ynab yuradi. Hammalari ham ozor bermasdan o'ynatadilar, erkalaydilar. Akam Yodgorni erkalab turib:

— O'g'ling o'zingdan ham o'tkir chiqadi-da! Qurmagurning ko'kragini qara, xuddi Hojimuqonning ko'kragiga o'xshaydi, boldirini qara! — desa, kampir:

— Hap ko'zingga, qo'y, bolam, unaqa dema, bola degan guldand ham nozik bo'ladi, — deb qo'yadi. Gapga kelinoyim aralashadi:

— O‘zi ham xuddi quyib qo‘ygandek o‘zingizga o‘xshaydi. Bir tuki o‘zga emas, voy xudoyo, bola degan ham otasiga shunchalik o‘xshaydimi? — deydi. Ichimda kulib qo‘yaman.

Bundan ortiq oila muhabbatiga ijozat yo‘q edi.

Men ketishga majbur edim. Meni vokzalgacha akam, o‘rtoqlarim kuzatib chiqdilar. Akamning qo‘lida Yodgor, hammalari menga muvaffaqiyat tilaydilar. Borgan zamonim sog‘-salomatligim, imtihondan qanday o‘tganligim to‘g‘risida yozib yuborishni so‘raydilar. Men ham ularning xat yozib turishlarini so‘rayman. Akam ham juda mehribon bo‘lib ketgan:

— Bir narsaga muhtoj bo‘lsang, darrov xat yoz. O‘quvchilik, qiyalishning mumkin, qo‘limdan kelgan yordamni ayamayman. Undan keyin, kampirlardan xotirjam bo‘l, — dedi.

Men poyezd derazasidan qarab turaman. Yodgor menga talpinadi. Qo‘limga oldim. Qo‘zg‘alishga zvonok allaqachon bo‘lgan. Yodgorning har ikki yuzidan o‘pdim. Yana akamga qaytarib berdim. Yodgor yig‘lab qoldi. Poyezd qo‘zg‘alib ketdi. Men ham haligacha o‘zimda tajriba qilib ko‘rmagan, bir yurak ezilish, butun a‘zoni jimirlatib keladigan qandaydir bir ichki hissiyot bilan beixtiyor ko‘zimga yosh oldim.

— Xayr, xayr...

Poyezd ketib boradi. «Imtihondan qanday o‘tar ekanman?» degan fikr bilan yuragim urib qo‘yadi. Haligacha o‘qigan darslarimni ichdan takrorlab, o‘z-o‘zimni imtihan qilib ko‘raman.

Uzundan-uzoq qozoq cho‘llarini bosib o‘tib ketdik. Orenburg chegaralari ham bosib o‘tildi. Mana endi Samara viloyatiga qarashli yerlar, muttasil quyuq yashil o‘rmonlar, poyonsiz g‘allakorliklar, yo‘l-yo‘lakay katta-katta zavod, fabrikalar tutun burqitgan halqumlarini cho‘zib qoladilar. Men o‘z umrimda bunday katta safarga birinchi marta chiqqanim. O‘h-ho‘, bizning Vatanimiz hali shunaqa kattami?

Shular axir hammasi ulug‘ Vatanning ayrilmas bo‘laklari. Men esa — shu Vatanning bitta o‘g‘liman... Quvonchim ichimga sig‘maydi. Diviziyada o‘rgangan ashulalarni dimog‘ bilan o‘zim eshitarlik qilib kuylab qo‘yaman.

Men bilan hamroh bo‘lib, Moskva aviatsiya maktabining studenti, bir qozoq bola ham borar edi. U otpuska bilan Qizil O‘rdaga kelgan ekan. Vatanimizning kengligi, kattaligi, obodligi to‘g‘risida so‘zlab ketdi:

— O‘rtoq, — dedi, — siz askarsiz. Agar menga o‘xshagan aviatsiyachi bo‘lsangiz edi, Vatanimizning qanchalik kattaligini yana yaxshiroq ko‘rgan bo‘lar edingiz. Axir Tinch okeandan tortib Qora dengizgacha, Shimoliy qutbdan tortib Afg‘oniston chegarasigacha — hammasi bizning baxtli Vatanimiz. Bizda nima yo‘q deysiz? Hamma narsa bor. Agar aeroplanga tushib, uzoqlarga uchib ketsangiz, Vatanimizning go‘zal shaharlari, baxmal bog‘lari, yam-yashil o‘rmonlari, paxtazor dalalari, Donbassi, Urali, Sibiri — hammasini yaqqol ko‘rasiz, ana shunda bilasiz?

Bu student juda ochiq ko‘ngilli yigit ekan, u o‘z turmushidan, o‘qishlarining borishidan va boshqalardan so‘zlar edi. Hatto u meni doktor bo‘lishdan aynitib, aviatsiya maktabiga kirishga unday boshladi. Men unga javob beraman: «To‘g‘ri, aviatsiya ham juda qiziqarli ilm, lekin doktor bo‘lishga ko‘proq havasim bor. Undan tashqari, men doktor bo‘lishni o‘z komandiringa, besh yuzga yaqin yigitlar oldida va‘da berganman, — deyman va uning yelkasiga qoqib qo‘yaman. — Ey o‘rtoq, — deyman, — sen bilan men — hali yosh yigitlarmiz, o‘ttiz yoshgacha bir emas, ikki fakultetni tamom qilishmi? Agar to‘rt yil jiddiy o‘qisam, doktor bo‘laman. Yana boshqa fakultetda, masalan, aviatsion injenerlikka yana to‘rt yil o‘qish sen bilan menga qiyin deb o‘ylansanmi?

U bilan o‘tgan to‘rt kunlik umr juda quvnoq o‘tdi. Bir-birimiz bilan juda eski birodarlarday suhbatlashdik. U menga adres berdi. Men uning adresiga xat yozib, o‘zimning ardesimni ma‘lum qiladigan bo‘ldim. Moskvada u bilan ajraldik.

Leningradga yaqinlashgan sari yuragim kaptarbachchaday tipirchilaydi. Yana bir necha quyuq uzun o‘rmonlarni kesib o‘tgach, Leningrad shahri ham ko‘rina boshladi.

Nihoyat, bir talay zoriqishlardan keyin poyezdimiz kelib to‘xtadi. Yuklarimni ko‘tarib vagondan tushdim. Qo‘limdagi adresga ko‘ra harbiy akademiyani qidirib topdim. U yerda meni juda yaxshi qarshi oldilar. Ulug‘ Vatanimizning turli mamlatlaridan kelgan mening singari imtihonga tayyorlamoqda bo‘lgan studentlar bilan tanisha boshladim.

Imtihon kunlari yetib keldi. Ish — haligacha mening qo‘rqib yurganimday bo‘ldi. Asosiy fanlarning hammasidan «a‘lo» va «yaxshi» darajalar bilan imtihon bergan bo‘lsam

ham, ruschadan bo'shligim yaqqol sezilib turar edi. Lekin imtihon komissiyasi tarjimai holimda ko'rsatilgan asosiy faktlarni e'tiborga olib, birinchi yildayoq rus tilini asosan egallashimni shart qilib, harbiy akademiya qoshidagi meditsina fakultetining birinchi kursiga qabul qildi. Quvonchim haddan ziyoda.

Mana darslar ham boshlanib ketdi.

Men dunyoda harbiy akademiya olgan birinchi dars soatimday lazzatli, shirin umrni eslay olmayman. Axir, o'rtoqlar, o'zingiz o'ylangiz, bundan ikki yarim yilgina ilgari hamma narsadan bexabar, bog' ko'chalarda yallasini tortib yurgan chapani yigit, bugun harbiy akademiyaning meditsina fakultetida professorlardan leksiya tinglab o'tiradi!

Darslar kundan-kun og'irlashib, qizib bormoqda. Hattoki, bulturdan boshlab yoza boshlagan xotira daftarimni ham yozishga vaqtim yetmaydi. Toshkentdan keladigan xat-xabarlarining ham ko'piga javob yozolmayman.

To'g'ri, endi har qanday bo'lmaganda ham, sabr, qanoat, jiddiyat, sabot kerak.

Bo'sh qolgan vaqtlarimda ko'proq rus tilini o'rganishga harakat qilaman. Bizning yotoqxonamizdagi studentlarning ko'pchiligi turli millatlardan bo'lgani uchun ularning ichida ham mening singari ruschaga no'noqlari ko'p. Bir-birimizga yordamlashamiz. Har holda ko'p umrimni rus studentlari bilan suhbatda o'tkazishga urinaman. Umuman aytganda, leksiyalarning hammasini yaxshi tushunib boraman, so'zlashda ham unchalik qiynalmaydigan bo'lib qoldim. Lekin yozuvda imlo xatolarim ko'p.

Yarim yillik imtihonni yaxshi topshirdim. Imtihon so'ngidan keladigan o'n to'rt kunlik qishki kanikul vaqtida haligacha javob yozilmagan bir necha xatlarga javob yozdim. Bu xatlarning ichida ayniqsa meni juda ham taajjubga qo'yadigan — ammamning qizi Saodatning xati edi. Men hayron qolaman. Bu xatni yozishga uni nima majbur qilgan ekan? U bilan meni: bir-birovimizga onalarimiz unashtirib qo'yishgan deb eshitganman, to'g'ri, lekin men Yodgorni ko'tarib kelgandan keyin ammam uni menga bermaydigan bo'lgan edi. Buni ham bilaman. Haligacha Saodat bilan betma-bet uchrashib, har ikkimizning turmushimiz to'g'risida, yoinki bir-birovimizga uylanish to'g'risida biror og'iz suhbatimiz bo'lgan emas. Xo'sh, u endi qanday jur'at bilan

menga xat yozadi? To'g'ri, u biz unashtirilgan vaqtda yosh edi. Men Yodgorni olib kelganda endigina o'n uch yoshga kirgan edi. Hozir u o'n olti yoshga to'lib qoldi. Bo'yi yetib qoldi deb hisoblash mumkin. Xo'sh, bu xat qanday xat bo'ldi? U meni sevarmikan-a? Men bo'lsam, unga oddiy ko'z bilan, sovuqqonlik bilan qarayman. Hali «uni yaxshi ko'rasanmi?» deb o'z yuragimdan so'rab ham ko'rganim yo'q.

Saodat shunday yozgan edi:

«Jo'ra aka! Salom.

O'qishingizga muvaffaqiyat tilayman. Intihondan qanday o'tganingiz, darslaringizning borishi, sog'ligingiz to'g'risida bilishga qiziqaman. Sizga bir yangi xabar: o'zingizga ma'lum, men boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin o'ta-onam o'qishimni davom ettirishimga rozilik bermay, uyga berkitib qo'ygan edilar. Bu yil nima uchundir, yo menga rahmlari keldimi, yo o'rtoqlarimning iltimoslarini qabul qildilarmi, o'qishimga ijozat berdilar.

Pedtexnikumning birinchi kursiga imtihon berib kirdim. Hozir o'qimoqdaman. Darslarim juda qiyin bo'lishiga qaramasdan (o'zimni maqtaganday bo'lmasin), ko'pchilik fanlardan «a'lo» olib o'qimoqdaman.

Tunov kuni sizdan xat-xabar bormikan, bir bilib kelay deb xolamlarning oldilariga kirgan edim, o'g'lingiz Yodgor do'mboqqina bo'lib o'ynab yurgan ekan, juda ham sevimli bo'pti-da. Ko'tarib, bag'ringa bosib, ancha o'ynatib yurdim. Agar qimmatli vaqtingizni ayamasangiz, bir enlikkina xat yozsangiz, boshim osmonga yetar edi.

Sizga hurmat bilan:

Saodat».

Xo'sh, bu xatga nima deb javob yozish kerak?

Saodatning o'zi yomon qiz emas. O'qishga kirgani yana yaxshi bo'libdi. Bu galcha men uni sinab ko'raman. Rasmini so'rasammikin? Yo'q, bu juda ko'p bo'lib ketadi, uni cho'chitib qo'yishim mumkin.

Men undan bitta do'ppi so'rayman. Xat yozdim.

«Saodat!

Mendan ko'pdan-ko'p salom. Sog'man, sog'liqlaringizni tilayman. O'qishga kirganingni eshitib, juda xursand bo'ldim.

Kelajakda baxtli bo'lmog'ni istagan har bir qiz o'qishi kerak. Mendan so'rasang: imtihonni yaxshi topshirdim. Men ham, (maqtanmay) birdan oldin, birdan keyin darsimni olib borayotirman.

Saodat! Bilmadim, vaqting bo'larmikan, bizning hovliga borsang-da, xolangga aytsang. agar mumkin bo'lsa, birorta do'ppi tikib yuborsalar, chunki ba'zan, bayram kunlarida milliy kiyim kiyib yurgan studentlarni ko'rib, havasim keladi. Men ham hech bo'lmasa, ba'zi-ba'zida do'ppi kiyib yurmoqchi bo'laman.

Mendan hammaga salom ayti!

Hurmat bilan: Jo'ra».

Men shundan ortiqcha boshqa xayollarga borishim mumkin emas edi. Chunki birinchi kursdaman. Hozirdan boshlab Saodat va boshqalar to'g'risida o'ylay boshlasam, darsimga xalal yetishi mumkin.

Yana o'qishlar boshlanib ketdi. Yana o'sha jiddiy umr. Erta bilan turib, kechki soat birgacha studentlik hayoti.

May oylari keldi. Butun studentlar kechani kunduzga ulab, yillik imtihonga tayyorlanmoqdalar. Men ham shunday.

Shunday jiddiy kunlarning birida pochtdan kichkinagina posilkaoldim. Ochib qaradim: qavatma-qavat turli ipaklar bilan bog'langan qog'oz. Qog'oz ichini sekin ochib qarasam, bitta yaxshi ipak tagdo'zi do'ppi, uning orasidan bitta kichkinagina shohi ro'molcha chiqdi. Shohi ro'molchaning bir chekkasida turli ipaklardan nozik, juda ham san'atkorona qilib chiroyli bir kapalak va qizil gul g'unchasining rasmi tushirilgan. Uning orasida xuddi aspirin poroshogi o'ralgan qog'ozday kichkina maktubcha. Xatni ochib o'qidim. Yana Saodat yozar edi:

«Qadrli Jo'ra aka!

Tuganmas salom. Afv etingiz, xolamdan so'rab yuborgan narsangizni o'z vaqtida yubora olmadim. Sizdan jindek xafa ham bo'ldim. Lekin bilib qo'yingizki, do'ppini tikish degan so'z u — yoshlarning ishi. Bechora xolam qarigan chog'ida hamma ish qolib, sizga do'ppi tikib yursalar uyat bo'lar dedim-da, o'zim tika boshladim. Ma'lumingizki, men ham studentman. O'qishlar juda qizg'in borayotganligidan tezroq

tikib bitirishga vaqt topolmadim. Otpuskklar ham yaqinlashib qoldi. Tunov kun xolamlarning oldilariga yana borib, «men Jo'ra akamlarga xat yozmoqchiman, gap-mapingiz bormi. qo'shib yuboray», dedim. Xolam juda sevindilar. Ayniqsa Yodgoringiz juda sog'ingan ko'rinadi. «Dadang otpuska vaqtida keladilar», — deb uni yupatgan bo'ldim.

Aytgandek, siz uchun yana bitta yangilik: yaqinda men yoshlar uyushmasiga qabul qilindim.

Sizga hammadan salom.

Xatingizni kutib: Saodat».

Masala menga bir qadar ravshan. Ayniqsa shohi ro'molchanning bir chekkasiga tikilgan g'uncha bilan kapalakning surati meni allaqanday xayollarga olib boradi. Allanarsalardan xabar berganday bo'ladi.

Ajabo, chindan ham Saodat meni sevadimi? Men-chi?

Yo'q, hali buni o'zimda his qilib ko'ra olganim yo'q. Yaxshisi, bunday xayollarni unutish kerak. Lekin qiz bolaning ko'nglini cho'ktirmaslik ham lozim. Qanday bo'lsa ham bir javob yozmoqchi bo'ldim. Uning do'ppisiga qarshi men ham biror narsa sovg'a qilib yuborishim mumkin. Unda yana uni allanarsalardan ishorat berganday qilib bog'lab qo'ymasmi-kanman? Yuborganda ham nima yuborish kerak? Yaxshisi, hech nima yubormayman. Yaxshilab bitta xat yozaman. Shuning o'zi bas.

Xat yozdim. Xat o'tgan galdagi singari oddiy. Bir akaning singilga yozadigan xati edi. Do'ppi uchun rahmat aytdim. Bu yil otpuska vaqtida bora olmasligimni bildirdim. O'zim ham qarindosh-urug'larni, ayniqsa, Yodgorni sog'inganligimni aytdim. So'z oxirida tez-tez xat yozib turishini iltimos qildim.

Imtihon kunlari yetib keldi. Ruscham bir qadar tuzalib qolgan. Lekin bu yerda ikkinchi dard chiqib qoldi. Men hozir buni yashirmasdan aytaveraman. Anatomiyadan qanoatlanurlik imtihon berolmadim. Shuning uchun otpuska vaqtida Toshkentga borishni yig'ishtirib qo'yib, akademiyaning dachasiga chiqib, o'rtoqlar yordami bilan tayyorlana boshladim.

Lekin chinini aytish kerak. Yodgorni juda-juda sog'inar edim. Hech kutmaganda iyun oxirida akamdan yuz so'm pul perevod kelib qoldi. Perevod bilan kelgan xatida, akam go'yo

mendan uzr so'ragan bo'libdi. «Kechirasani, — deпти, — bola-chaqam ko'p, ko'proq yubora olmadim. Har holda, student hayoti, birorta kerak-yarog'ingga yarab qolar, oz bo'lsa ham ko'pning o'rnida ko'rasani», deпти. Ham xatida: «Ammalaring ham shaxtidan tushgan, «begonaga beradigan qizimiz yo'q: «Saodat Jo'raniki», deydigan bo'lib qolishdi. Bu tomondan ham tinchlanishing mumkin», deпти. Xullasi kalam, oilaviy gaplar...

Demak, Saodatning do'ppisi, ro'molchasi va ro'moldagi g'uncha bilan kapalak surati — hammasi ham bekorchi narsalar emas. Masala menga oydinlashdi. Yaxshi ham bu otpuskaga bormaganim. Nima qilganda hamki yigitchilik, yoshlik, biror sabab bilan bog'lanib qolishim mumkin. Yo'q, har qancha og'ir bo'lsa ham, garchand Saodat meni yaxshi ko'rib, men uni yaxshi ko'rsam ham, chidayman? O'qishni tugatgunimcha chidayman.

Dachada vaqtda bo'sh chiqqan darsim birgina anatomiya bo'lgani uchun anchagina bo'sh vaqtlarim bo'lar edi. Shunda shaharga tushib aylanib, tomosha qilib yuraman. Akamdan kelgan yuz so'm menga tamom ortiqcha bo'lganligidan unga Yodgorga atab kiyim-boshlar oldim. Bu kiyim-boshlarni yangi oldirgan katta suratim bilan qo'shib hovliga yubordim.

Yodgorga yuborgan posilkam ham rasmimdan keyin oradan bir oylar o'tgach, Saodatdan xat oldim. Saodat bu safar nima desam ekan-a, yurak yutib yuborgan bo'lsa kerak, xati kinoyalar bilan to'lib yotar edi. U yozar edi:

«Sevimli Jo'ra aka!

Yodgorga atab yuborgan rasmingizni xolam uyda chetlariga gullar taqib devorga osib qo'yibdilar. Yodgor har kun «dadam» deb talpinganda, ko'rsatar ekanlar. Bir nafas termilib o'tirgandan keyin sog'ingani qonib, yana olib qo'yar ekanlar. Men borib: «Qani, Yodgor, dadangning suratini men ham ko'ry» desam, shiringina tilchasi bilan: «Qo'yib qo'ying, tegmang, bu — mening dadam», deb meni biylatmadi. «Axir, bu sening dadang bo'lsa, mening Jo'ra akamlar-ku», desam, «ha, mayling», deb qo'linga berdi. Shunda sizning suratingizga qarab turib o'yladim. Bu suratni olgan suratkash bir nusxa olgan ekan-da, tanish-bilishlariga ham berar deb bir-ikkita

olmagan ekan-da, bizga ham yuborsangiz, o'zingizdan ham yaxshiroq qilib saqlar edik. Arzimabmiz-da. Mana siz yubor-masangiz men yuboray dedim-da, Yodgor bilan birga oldir-gan rasmimni yubordim.

Suratkashdan xafa bo'lmang. «Qozonda bori cho'michga chiqadi», deganday borini olibdi.

Darvoqe, do'ppi boshingizga loyiq keldimi?

Jo'ra aka! Agar sizga malol kelmasa, bitta movut beretka olib yuborsangiz, chunki Toshkent qizlarining hammasiga beretka kiyish rasm bo'lib ketgan.

Sizga tuganmas salom bilan, sizni sog'inib:

Saodat.

Aytganday, sizga rasm yuborganimni Toshkentdagilar bilako'rmasinlar».

Xat, ayniqsa rasm yuragimga o't yoqdi. Ajabo, shu o'zi-mizning Saodatmi? Qizi tushmagur ancha yetilib qopti-ya! Rasmning yarim diydor ekanligiga endi ishondim. Saodatning qora ko'zlari meni ishq musobaqasiga chaqirganday, yarim tabassumda turgan lablari menga allanimalar deganday bo'lar edi. Bo'liq, toza oq yuzlariga to'zg'ib tushgan parishon sochlari mening yuragimni o'z zanjirlariga bog'lab olmoq uchun tayyor turganday sezilardi.

Ishon, Saodat, ishon! Men seni sevaman, shu qora jingalak kiprikларingga butun hayotimda yosh ilintirmayman.

Qiz o'z latofati bilan meni ishqqa chaqirar edi. U g'olib keldi.

Menda Saodatga chin muhabbat boshlandi. Biroq, o'qish mavsumlari borgan sari yaqinlashmoqda bo'lgani uchun, muhabbat mojarolari bilan bog'lanib qolish dars uchun ancha xavfli bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun Saodatga bu mavsumning so'nggi xatini yozmoqchi bo'ldim. Ham birdan-bir iltimosi bo'lgan beretkani qo'shib yubormoqchi bo'ldim. Shahar borib so'nggi modadagi bir beretkani oldim. Unga o'z ishqimdan xiylagina ochiq ishoratlar, ishonchlar beradigan bir xat yozdim. Xat ichida rasm bilan, o'qish yaqinlashib qolganidan juda vaqtim ozligini, bu xatdan so'ng yaqin orada xat yoza olmasligimni bildirdim. Bir chekkasi sinoq, bir chekkasi chindan Yodgordan ham, kampirdan

ham xabar olib turishini iltimos qildim. Shu bilan bizning yangi boshlangan «roman»imizning birinchi bobi o'qilib bo'ldi. Kelajak baxtli bobiga — kelgusi yilning otpuska muddatigacha «kanikul» berildi.

Otpuska vaqtida borolmaganim uchun kampir bir oz ranjigan bo'libdi. O'g'lim ham bir oz betoblanib olgan emish. Qumri To'qimachilik kombinatining FZUsiga o'qishga kiribdi. Uni yotoq ham stipendiya bilan ta'minlabdilar. Abdug'ani bo'lsa, hali boshlang'ich maktabni tugatmagani uchun kampirning yonida ekan. Akamdan kelgan bir xatda: «Kampir, Abdug'ani va Yodgorlardan xavotir olmasang ham bo'ladi. Ularninig maishatidan o'zim xabar olib turibman. Bu tarafdin qiyinchilik yo'q», deyilgan edi. Demak, men juda tinch, hech qanday ortiq tashvishni xayolga olmasdan o'qishim mumkin. Bu shunday ham bo'ldi. Fakultetning ikkinchi kursida ham men a'lochi bo'lib o'qidim. Rus tilida ko'rilgan bulturgi bo'shligim bu yil sezilmadi. Anatomiyaning ham yetkazib oldim. Shuning uchun ham ikkinchi yillik imtihonda ko'pchilik fanlardan «a'lo», «yaxshi» imtihon berib, otpuskani Toshkentda o'tkazmoqchi bo'ldim.

Yil bo'yi turmushimda esdalik daftariga yoziladigan katta hodisalar yuz bermadi. Shuning uchun ham ish bilan, o'qish bilan o'tgan umr mayda to'lqinlar bilan oqqan tekis irmoqday o'tib ketdi.

Men otpuska vaqtida Toshkentga borishim to'g'risida uy ichilarga yozgan bo'lsam ham, qay kuni, qay vaqtda borishim to'g'risida ochiq yozmagan edim. Chunki xat yoki telegramma bilan xabar bersam, hoynahoy Saodat kutib olishga chiqadi. U bilan birinchi marta qarindosh-urug'larning oldida uchrashuv menga juda noqulay tuyular edi. To'g'risi, o'ng'aysizlanar edim. Shuning uchun ham stipendiyadan ort dirib yurgan pullarimga kampirga, Qumri, Abdug'anilarga, Yodgorga, shular qatori Saodatga ham arzimagan mayda-chuyda sovg'a-salom qilgan bo'ldim-da, iyul o'rtalarida Toshkentga qarab jo'nadim.

Hech kutilmaganda erta bilan choyning ustiga kirib borishim kampir bechorani juda dovtiratib qo'ydi. Sho'rlik ayvondaen yo'lakka qarab quchog'ini ochib, hovliqib yugurib kelib, bo'ynimdan quchoqlab oldi. Sevinganidan yig'lab ko'rish

boshladi. Yuz-ko'zimni o'par edi. Allanimalar demoqchi bo'lar edi. Lekin tili galdiraklab, aytmoqchi bo'lgan gapini aytolmas edi. Shuncha qariligiga qaramasdan, chamadonlarimni o'zi ko'tarib, ayvonga olib bormoqchi bo'lar edi. Men unga ijozat bermasdan, o'zim olib borib qo'ydim. Hol-ahvol so'rashdik. Ko'zim atrofga javdir-javdir qilar edi. Yodgor ko'rinmas edi:

— Xo'sh, Yodgor qani, oyi?

— Voy, darvoqe, hozir olib chiqaman bolaginangni. Uning katta yigitcha bo'lib, bog'chaga qatnaydigan bo'lib qolgan. Erta bilan, azonlab o'rnidan turadi, iloji bo'lsa choyni ham ichmasdan bog'chaga qarab chopadi. «Hoy, ko'chada bir nima bosib ketmasin, adashib qolmagin», deb ketidan javrab qolaman. Orqasidan qidirib, kalovlab yuraman. Shuning uchun har kuni erta bilan Abdug'ani maktabga ketishida o'zi qo'yib ketadi. Qaytishda yana o'zi olib keladi.

— Qo'ying, kampir, o'zim olib kelaman, — deganimga ham quloq solmasdan, kampir chiqib ketdi. Oradan o'n minutlar o'tganda Yodgorni qo'lidan yetaklab kirib keldi. Egnida bog'cha bergan ko'k xalat. Qo'ltig'ida o'yinchoq avtobuscha, ishonar-ishonmas g'ildiratib kelar edi. Ayvonda meni ko'rishi bilan hech tortinmasdan o'yinchoqni yerga tashlab, chopqillab kelib «dada!» deb quchog'imga otildi. Bag'rimga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pdim. Shunday mahmadona, sersavol bo'libdiki, har narsa uni qiziqtiradi. Bir nafasning ichida mening yangi kelganimni, sog'inganligini ham unutib yubordi-da, savol yomg'irlarini yog'dira boshladi:

— Dada, bu yimadi?

— Tugma, o'g'lim, tugma.

— Yaga yulduzi bor?

— Harbiylarning tugmasi shunaqa bo'ladi.

— Harbiy yima bo'ladi, dada?

— Harbiy qo'shinni bilasanmi, o'g'lim?

— Bizzayam bog'chada Harbiy qo'shin o'ynaymiz. Men Budyonniy bo'laman.

— Ha, ana shuni bilsang, Harbiy qo'shin shunaqa tugma taqadi.

Darrov berib turgan savol esidan chiqdi-da, boshqa savollarga tushib ketdi:

- Qachon keldingiz?
- Hozir keldim, o'g'lim.
- Yimada keldingiz?
- Poyezdda, poyezdni bilasanmi?
- Sharippi dadasi aeroplarda keldi-yu.

Kampir Yodgorni urishadi:

— Judayam ezmachuruk bo'libsan-da. Bir nafas men ham gapirishib olay. — Kampirning gapiga quloq solmaydi.

— Dada-chi, dada, men ashula aytishni bilaman.

— Qani, aytib ko'r-chi?

U darrov tizzamdan tushib, o'rnidan turdi-da, ashulasini boshlab ketdi.

— Ana, bilamiz, biz.

— Ha, yasha o'g'lim, oppoq o'g'lim, mulla bo'lib qolibsan-ku!

— Endi ketib qolmaysizmi?

— Yo'q, endi ketmayman.

— Xayr bo'lmasa, men bog'chamga ketdim.

Orqasidan buvisi javrab qoldi:

— Ko'zingga qarab, chetdan yur. Xaptavuz kelayotgan bo'lsa, chetga chiqib turgin, tag'in bosib ketmasin, bolam!

Kampir bilan o'tgan-ketganlarni gapirishib o'tira boshladik... Gap orasida kampir:

— Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, «xola-xola» deb holimdan xabar olib turadi. Nima uchundir, uch kundan beri kelmadi. «Ti» etsa eshikka qarab o'tirgan edim. Baraka topkurning qo'li gulgina. Bir nafasning ichida hamma ishlarni saranjom qilib berib ketadi. Anavi kuni kelib: «Xola, kiringizni yuvib beraymi?» — dedi. — «Voy, xolaging o'rgilsin, omon bo'lsang, bir kun yuvarsan» — dedim-da, unamadim. Hammadan ham Yodgorga mehribonligini ayting, nax ustida parvona bo'lib o'lib bo'ladi. Yodgor ham unga juda el bo'lib qolgan. Ikki kun kelmasa, «opam kelmadi», deb maktabdan qaytishini poylab o'tiradi.

Mening kelayotganimni bir necha kishilar ko'rgan edi. Ular bilan so'rashib o'tgan edim. Undan tashqari, bir nafas ichida mahalla-ko'y, guzarining hammasiga ovoza bo'lib, bir soat o'tmasdan uyga qarindosh-urug'lar to'lib ketdi. Hali unisi bilan ko'rishish, hali bunisi bilan ko'rishish, rostini

aytsam, o'zim ham oiladan xiyla uzoqlashib ketgan ekanman. Shu takalluflardan juda o'ng'aysizlanardim. Nima uchundir ko'zim eshikda: shu kelgan qarindosh-urug'larning ichida al-lakimni qidirganday bo'laman. Men kutgan biron yo'q. Keling, shuni yashirib o'tiramanmi: Saodatga muntazirman... Bir chekkasi hozir kelmaganiga xursand bo'lib qo'yaman.

Nimaga desangiz, shuncha el-urug'larning orasida u bilan qay xildagina ko'rishish mumkin? Kichkina tabassum, ikki minutlik ko'z urishtirib olish, qisqagina eson-sog'lik so'rashish, vassalom...

O'sha kuni kechgacha, umrim kelgan-ketganlarni kuza-tish bilan o'tdi. Abdug'ani ham kattagina dastyor bo'lib qolibdi. U bu yil beshinchi sinfda o'qir ekan. Uni kelgan mehmonlardan, kampirdan xoli qilib gapga soldim...

— Saodat opalaringnikiga mening kelganimni xabar qildingmi?

— Boya siz mehmonlar bilan ovora bo'lib turganingizda oyim qo'yarda-qo'ymay yuborgan edilar. Borib, aytib kelganman.

— Saodat opang uyda bor ekanmi?

— Yo'q, maktabda ekan. Ammamga aytib keldim.

— Pochchang-chi?

— Pochcham uyda ekanlar.

Abdug'ani bilan suhbatimiz tugamagan ham ediki, eshikdan savat ko'tarib, terlab-pishib ammamning o'zi ham kirib keldi. Eshikdanoq javrab kelar edi:

— Voy ammagingang bo'yingga qoqindiq bo'lsin!

Ammam men bilan juda issiq, bag'rilariga bosib ko'rishdi. Peshonalarimdan o'pdi. Meni o'rtaga olishib, u yoqdan-bu yoqdan ko'rgan-kechirganlarimdan gapga solishdi. Men o'zinga juda ham ulug'vorlik berib, so'ralgan savollarga kalta-kalta qilib, salobatli javob bermoqdaman. Lekin gap orasida Saodatdan so'z ochilishini kutaman. Hech bo'lmasa, nomini eshitish bilan tasalli topmoqchi bo'laman. Xizmat vaqtini tamomlab, akam ham yetib keldi. U bilan suhbatlashib o'tir-ganimizda eshikdan yigitlar chaqirishib qolishdi. Uydagilar bilan suhbatni yig'ishtirib, o'rtoqlar oldiga chiqishga majbur bo'ldim. Yoshlikdan birga o'sgan Obid, Mansur, Yo'ldosh va mahallaning boshqa yosh-yalanglari edi. Ular bilan ko'rishib

ketdik. Obid uyiga taklif qilib, olib ketdi. O'tgan-ketganlardan suhbatlashib o'tirdik. So'z orasida Obid menga tegajaklik qilib Saodatdan gap ochib qaradi. Bizning Saodat bilan bo'lgan, hali barg yozmagan — kurtak holidagina bo'lgan bu muhabbatimiz darrov bunchalik el og'ziga tushib ketganiga hayron bo'ldim. Hoynahoy bu «xolis xizmat» kaminaning kampiri yoki ammaning ichida gap yotmaydigan «devonai rostgo'y»ligidan bo'lsa kerak. Undan tashqari, Obid xotin-qizlar texnikumining direktori bo'lgani uchun Saodat to'g'risida ancha ma'lumotlarni olish mumkin edi. Suhbatimiz yarim kechagacha davom qildi. Ular bilan xayrlashib, hovliga kirib yotdim. Charchaganim uchun, ikki yildan buyon unutilib yuborganim ona quchog'iday issiq oila o'rnida cho'zilib qattiq uyquga ketdim.

Saodat ertalab ham kelmadi. Mening yuragim juda bezovta bo'lib, hatto undan shubhaga ham tusha boshladim. Bir vaqtda — siyrak xatlashib turaylik, degan mazmunda imo-ishora bilan yozgan xatindan xafa bo'lmagannikan, deb o'ylardim. Kelib qolsa, gina ham qilmoqchi bo'ldim.

Tag'in o'zimni yupatib, balki keldi-ketdilarining oyog'i tovsilishini kutar, balki onasi bu yerda bo'lgani uchun meni kelib ko'rishga iymonar, deb o'ylar edim.

Ertangi choydan keyin ammam ketdi. Ortiq bitta-yarimta kelmaydigan bo'lgandan, birrov shaharni aylanib kelmoqchi bo'ldim. Lekin yuragim, «ana Saodat kelmadi, mana Saodat kelmadi», deb talpinar edi.

Toshkent juda o'zgarib ketibdi. Men ko'rmagan yangi binolar, yangi ko'chalar, hatto, odamlarning muomalalari ham ancha o'zgarib qolibdi. Aylanib tomosha qilib yurib, soat ikki-uch bo'lib qolganini ham bilmay qolibman. Tezroq hovliga qaytish kerak edi. O'n-o'n beshta bodring, ikkita handalak ko'tarib hovliga qaytib keldim. Kampirning qilib qo'ygan sho'rvasini ichib, yangi gazetalarni o'qib o'tirdim. Ko'zim gazetada, ammo ko'nglim Saodatda: «tiq» etsa eshikka qarayman. Soat besh-oltalarda uzoq muddat yurak urishlari bilan kutilgan «mehmon» ham kirib keldi. U men haligacha xayolimda suratini chizib yurgan, ko'kragi burma atlas ko'ylakli Saodat emas. Qo'lida kichkina amirkon portfelcha, egnida klyosh qilib tikilgan krepdeshin ko'ylak, boshida men

yuborgan beretka, sochlari turmaklangan, o'rta darajadagi yevropalik bir qiz edi. U eshikdan kirib kelishda pastki labini tishlab, juda uyalgansimon kelar edi.

Yuzlari bo'rtib ketgan, issiq kunda uzoq yo'l yurganidanmi, yo uyalganidanmi, lablari, burun uchlari, manglayi mayda ter bilan qoplangan. U ter artish bahonasi bilan ko'zini yashirmoqchi bo'lar edi. Darrov o'rnimdan turdim. Ko'kraginmi harbiylarcha maxsus savlat bilan oldinga chiqarib, uning istiqboliga chiqdim. Mahkam qo'lini siqib, ko'zda yashiringan tabassum bilan salomlashdim. U juda uyalib ketgan edi. Shu paytda, qaldirg'ochday «pir» etib uchib ketishga tayyorday ko'rinar edi. Mendan qo'lini bo'shatib, kampir bilan so'rashdi. Kampir darrov o'tqizib, yangi dasturxon qilgan bo'ldi. Biz ikkov bir-birimizga ro'baro' xontaxta oldida o'tirdik. Kampir non ushatib, choy quymoqchi bo'lgan edi. Saodat o'rnidan yarim qo'zg'alib:

— Ovora bo'lmang, xola, choyni men quya qolay, — dedi. Kampir mehribonlik bilan:

— Qo'yaver, xolang aylansin, o'zim quyib beraman. Sen hozir mehmonsan, bolam! Omon bo'lsang, hali quyarsan, — dedi.

Kampirning bu soddagina gapidan orada ivir-shivir bir sir o'tganday bo'ldi. Saodat yer ostidan qiya qilib menga qarab qo'ydi. Men ham xuddi shunday qilib qaradim. Har ikkovimizning ko'z qarashimiz yarim sekund ichi dasturxondagi novvot ustida to'qnashib oldi. Bilinar-bidinmas iljayishib qo'ydik. Saodat yerga qaradi.

Saodat yetilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan. Har bir kichik imo-ishoratdan muhabbatga taalluqli ma'nolar anglaydigan yetukkina qiz bo'lib qolibdi. Uyda ko'zinga hamma narsa kulib qaraganday ko'rinadi. Hatto hovli sahnlarini bo'ydoq qizlarning bosh qo'ygan yostig'ining hidi qoplab ketganday tuyuladi. Saodat kichkina qandni qo'lga ushlab, patnis chetiga sekin-sekin urib yerga qarab o'tirardi. Bu hol mening ham tilimni bog'lab qo'yganday.

Oxiri bu qisqa muddatli jimjitlikni kampir buzdi:

— Sizlar bir nafas gaplashib o'tiringlar, bolalarim. Men oshxonadan xabar olay.

Saodat: «Qo'ying, xola, hech narsaning keragi yo'q. Ovora bo'lmang, men hozir ketaman», desa, kampir:

— Nega ketar ekansan? Jo'ra akang bilan bir nafas gaplashib o'tir, nima, men senga qo'y so'yarmidim? Har kungi o'zimizning qiladigan obi yovg'onimiz-da, xolang o'rgilsin, — dedi.

— Shundoq-ku, — dedi Saodat, — sizning oshxona ishlariga kuymalashib yurganingizni ko'rsam juda achinaman, xola.

Gapga men aralashdim:

— Oyi, bo'lmasa, siz mayda-chuydangizni tayyorlang, men o'zim ham ancha vaqtdan buyon osh qilganim yo'q. Oshni o'zim qilib beray.

— Qo'ying, — dedi Saodat. — shu kiyim-boshingiz bilan qozon-tovoqqa urinmay qo'ya qoling, ha, men-chi?

— Sen kuydirib yuborasan.

— Kuydirsam ham, sizcha kuydirmayman.

Yana bir-birimizga qarashib oldik. Kampirning oshi gap boshlanishiga bahona bo'ldi. Kampir oshni vaj qilib, bizni yolg'iz qoldirib, oshxonaga ketdi. Uzilib qolgan gapni qaytadan boshlash uchun so'z qidirar edim:

— Ta'til vaqtida nima qilib portfel ko'tarib yuribsan. Abdug'anini yuborsam, «maktabda» deyishibdi. Sizlarda o'qish tamom bo'lgani yo'qmi hali?

— O'qish-ku tamom bo'lgan. Meni qo'yarda-qo'ymay xotin-qizlar klubida tashkilotchi qilib qo'yishdi. Umrimda shunaqa ishlarni qilganim yo'q edi. Bu, xotin-qizlarning boshini bir joyga qovushtirish ham juda qiyin ekan. Ertadan-kechgacha shular bilan kuymanaman.

— O'h-ho', juda aktivistka bo'lib ketibsan-ku! Men bo'lsam, ikki boshni bir yerga qovishtirolmay hayronman.

Saodat yana kinoya bilan qarab qo'ydi.

— Har bir gapni boshqa yoqqa buraverar ekansiz-da. Leningradliklar muomalaga usta bo'ladi, deb eshitar edik. Sizni ham ancha o'rgatib qo'yishibdi.

Javob o'rniga men cho'ntagimdan Saodatning o'zi tikib yuborgan shohi ro'molchani olib, ko'zimni artmoqchi bo'ldim, bu bilan go'yo, «hali ham yonimda saqlab yuribman», degan ishoratni bildirmoqchi edim. Saodat ro'molchani tanisa ham, o'zini bilmaslikka soldi.

Shu paytda ko'chada o'ynab yurgan Yodgor aravasini yetaklab, alpon-talpon eshikdan kirib kelib qoldi. Men bu

yoqda qolib, to'g'ri borib Saodatning quchog'iga otildi. Bola g'oyat sevingan edi:

— Opa, qachon keldingiz? Nega ertaga kelmadingiz? (kecha demoqchi). — Saodat ham Yodgorni bag'riga bosib erkalar edi. Men bularning har ikkovining qiliqlarini tomosha qilib turib, kelajak to'g'risidagi anchagina xayollarga botib ketdim. «Bolaga shu muhabbat chindanmi, biz uylangandan keyin ham shu muhabbatida davom qilarmikan? Qachon bo'lsa ham Yodgorning tarixi ochilganda, Saodat bunga qanday qarar ekan, nima deyar ekan?» Ham o'sha bir vaqtdagi hikoyalarni ustidagina bo'lsa ham o'ylab chiqdim. Yodgorning bevafo onasi bilan Saodatni bir-birovlariga husnda taqqoslab ko'rmoqchi bo'ldim. Saodat u bevafo xotindan anchagina o'tkir, aql jihatidan ham undan yuqorilik qiladi. Tasodilni qarang-a, bir xotinning tashlandiq bolasi, bir go'zal qizning mehribon og'ushida...

Mening yuzimda ozgina bo'lsa ham bu xomush xayol-kashlikni ko'rgan Saodat, birdaniga o'zining mehribonligini tundlikka aylantirdi. Kinoyali ohang bilan:

— Jo'ra aka, — dedi, — juda xayol surib ketdingiz... olam degan shunaqa bo'lar ekan, hech istamagan vaqtda kishini bir-birovidan ajratadi, xafa bo'lmang.

Men seskanib tushdim, hamma xayolni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, jindak iljaydim. So'zni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldim. Uning ko'zlariga zavq bilan termildim-da:

— Saodat, muncha ham yaxshisan! — dedim.

Saodat bir cho'chib tushganday bo'ldi.

— Muncha, juda ham maqtagingiz kelib qoldi? — men qolib, Yodgorga xitob bilan:

— Yodgor, dadangning so'zlarini eshityapsanmi? — dedi.

Yodgor bahonasida ancha gap aylantirish mumkin edi. Lekin oshxonada kuymanib yurgan kampir, hatto Yodgorni ham bizga xalaqit bermasin dedimi:

— Yodgor, hoy Yodgor, o'g'lim, bu yoqqa qara, mana senga jo'xori kavob qilyapman, — deb aldab chaqirib oldi.

Suhbatimiz boyagiga qaraganda ancha ochilib qolgan. Boshqa taraflardan asta-sekin so'z ochish mumkin bo'lar darajaga yetib qolgan edi:

— Saodat, — dedim, — bugun kechqurun bo'shmisan?

— Nima qilar edingiz?

— Toshkentning parklarini tomosha qilar edik.
— Siz bilan-a, qiziq bo'пти-da?
— Ha, nima, uyalasanmi, kap-katta qiz-a?
— Dadamning tabiatlarini o'zingiz bilasiz-ku, ko'rib qolgunday bo'lsalar, ko'ring hangamani!
— Sen qiziq ekansan, bugun bo'lmasa, baribir keyin yuramiz-da...

Saodat «yalt» etib menga qaradi-da, erkalanibroq:

— Rostdan-a, sizga buni kim aytdi? — dedi.
— Ko'zing aytib turibdi.
— Ayniy-ayniy deyapsiz-a, Jo'ra aka. Xolamga aytaymi?
— Xolang nima qilar edi, qaytaga xursand bo'ladi, kel, gapni chetga burma, kechqurun bo'shmisani?
— Ha, bo'shman, qo'ying, tag'in gap-sz bo'lib yurmaylik, uyalaman.

Aldab-suldab, uning noz-firoqlariga quloq solmasdan ko'ndirdim. Demak, uchrashuvning birinchi bobi, Leningradda boshlangan «roman»ning ikkinchi qismi ham muvaffaqiyatli chiqdi.

Kampir oshni suzib keldi. Birgalashib o'tirib eya boshladik. Kampir so'z orasida o'zini soddalikka solib, gap aylantirmoqchi bo'lar edi:

— Jo'ravoy, bolaginam, kampirlarning qilgan oshi senga yoqadimi, bizlar shunaqa o'zimizga o'xshagan lanj, bo'sh qilib qo'yamiz. Saodat qilganda edi, tasmadakkina qilib pishirar edi.

— Yo'q, xola, — dedi Saodat, — men munaqa shirin qilib pishirolmayman: sabzi-piyozni xo'p yaxshi qovuramanu, lekin tuzini bilolmayman.

So'z navbati menga kelib qoldi:

— Oshni o'zim qoyil qilaman-da, lekin, shunda ham o'tni birov yoqib berib tursa.

— Oh, bolam, — dedi kampir, — to'rt yildan beri masalluqli tayyor oshni pishira olmaysan-ku?..

Bu gapdan Saodat uyalib yerga qaradi: men ichimda: «Obbo kampir tushgur, eski zukkolikdan bittasini ishlatding-a», deb qo'ydim. Yana kampirning o'zi gapni boshqa yoqqa burmoq uchun besh panjasini og'zi-burni aralash surkab o'tirgan Yodgorni koyib ketdi:

— Aylanay bolam, to'kmasdan yegin. Qo'lingni mana bunday qilib, chimchib olgin!

Kampirning pichingi bilinar-bilinmas o'tib ketdi.

Oshdan so'ng kampir laganni ko'tarib oshxonaga ketdi. Saodat o'rnidan qo'zg'alib ketmoqchi bo'ldi. Kechqurun parkka borish to'g'risida qat'iy va'dasini oldim. Hovlidan birga chiqib ketish unga ham, menga ham bir oz o'ng'aysiz edi. Shuning uchun tramvay bekatida uchrashmoqchi bo'ldik.

* * *

Saodat bilan ko'pincha birga yuramiz. Hatto bir oyning ichida ikki-uch marta birga parkka boruvimiz hamma uchun ham masalaning ochilib qolishiga sabab bo'lgan edi. Saodatning o'rtoqlari bir-ikki marta unga tegajaklik qilib ko'rgan bo'lsalar ham, bu ish ularning oldida ham oddiy sanalib, hech kim bu to'g'rida gapirmaydigan bo'lib qolgan edi. Bizning ko'pincha birga yuruvimiz Saodatning otasiga ham eshitilibdi. U akam bilan uchrashib: «Endi bo'lar ishning bo'lgani yaxshi, qiz bolaning tuprog'i juda yengil bo'ladi. Jo'ravoy bu yil o'qishdan qola qolib, to'yni qilib ketgani ma'qul bo'lar edi. «To'y qachon?» deb so'rayverganlaridan juda zerikdim», — degan emish. Akam «ha, xo'p, gaplashib ko'rarman», deb javob beribdi. Men o'qishim tamom bo'lmaguncha to'yni qilmasligimni bir talay uzrlar bilan aytib, tushuntirib qo'yishni so'radim.

Bir kun Saodat menga kelib:

— Jo'ra aka, dadam sizga salom aytib yubordilar. Dam olish kuni kechqurun bir-ikkita o'rtoqlaringiz bilan biznikiga borar emishsiz, mendan boshqa dastyorlari bo'lmagani uchun men o'zim sho'rlik xabar qilib yuribman, — dedi.

— Ha-ha, — deb kuldin, — to'ydan ilgari challarni yer ekanmiz-da.

— Hech hazilkashligingizni qo'ymadingiz-da, sizga bir gapni aytishu qochish.

Va'da qilingan kuni texnikum mudiri Obid o'rtog'imni olib bordim. Quyuq-suyuq ziyofat juda yaxshi bo'ldi.

Lekin Saodat oshxonadan chiqmas edi. Pochcham, ya'ni Saodatning dadasi o'zi xizmat qilib turar edi. Pochcham, bu gal juda ham yechilib ketib, ammamni chaqirib qoldi:

— Saodat! Saodat! Bu yoqqa qara, mulla Obiddan qochmay qo'ya qol. Qizimizning domlasidan ham qochasanmi? Saodatingni ham chaqir, o'zining kunda ko'rib yurgan domlasi-da! Uyda senlar turib, men xizmat qilib yuraymi! Jo'ravoy bo'lsa — o'zimizniki.

Obid hazillashib qo'ydi:

— Umar aka, bunday, kampir bilan birga bog'larga tomoshaga ham tushmaysiz!

Kulishdik.

— Ey, uka, — dedi pochcham, — endi bizlarning vaqtimiz o'tib qoldi. Mana sizlar yursangiz yarashadi.

Dadasining bu himmati Saodatning kutganiday bo'lsa kerak, shu gapdan keyin ba'zi narsalarni dahlizga olib kelib, yarim ko'rinishlar bilan xizmat qilib turdi. Men bo'lsam, mumkin qadar eshik tomonga qaramaslikka harakat qilar edim. Sipohgarchilikni qo'ldan bermas edim. Anchagina u yoq-bu yoqdan so'zlashib o'tirdik.

Ketar oldimizda Leningradga yuborilgan tagdo'zi do'ppining ikkinchi nusxasi ammam tomonidan menga kiygizilib yuborilgan edi.

* * *

‘ Shunday shirin turmush juda tez o'tib bormoqda. Yaqinda Leningradga qaytib ketaman. Saodat bilan birga o'tkazilgan soatlarning qanday tez o'tib ketganligini bilmayman. Mening ketishga tayyorlana boshlaganligimni ko'rgan Saodat:

— Ketmang yo meni ham ola keting, — dedi.

Ketadigan kunlarim juda ham aniqlanib qoldi. Avgustning o'n beshlarida yo'lga tushaman. Shuning uchun ertaga Saodat bilan so'nggi marta bog'ni tomosha qilmoqchimiz. Ham o'sha yerda men uning chinakam va'dasini olmoqchi bo'laman. Abdug'anidan Saodatga chumchuq tiliday xat yuborib, «Xo'p» degan javobni oldim. Ertasiga kech bilan bizning hovliga keldi. Kampir ozgina ovqat qilib qo'ygan edi. Bizning o'zimizga ayrim suzib berdi. Ovqatdan keyin sekin-asta Saodatnng yoniga o'tdim. Qo'lini kaftlarim orasiga olib siqdim, ko'zlariga termildim-da:

— Jonim Saodat, — dedim, — bugun-erta men Leningradga qaytib ketaman. Sen ham o'qishingga kirasan, shuning

uchun seni chaqirtirgan edim. Sen bilan bizning turmushimiz to'g'risida ochiq fikringni eshitmoqchiman.

— Qanaqa turmush? Nima demoqchi bo'lasiz?

— Ke qo'y, o'zingni soddalikka solma, bilasanki, men seni yaxshi ko'raman, bilamanki, sen ham meni yaxshi ko'rasan.

— Buni sizga kim aytdi?..

— Ha, mayli, qani javob ber-chi, turmushimiz to'g'risida sening qanday fikrlaring bor?

— Leningradda ham pedtexnikum bormi?

— Bor...

— Men borsam olarmikin?

— Olmaydi, ruschani bilmaysan.

— O'rgatmaysizmi?

— Senga bir nima o'rgatib bo'ladimi?..

— Harbiy odam bunaqangi gap qilmaydi, undan ko'ra siz menga komanda bering!

— Xo'p, yaxshi, komanda beraman. Hozir bo'l! Ikki yildan keyin to'yimiz bo'ladi. Men o'qishimni bitirib kelaman. Sen ham o'qishingni bitirib qo'yishga majbursan. Porloq turmush uchun, chin hayot uchun, yaxshi farzandlarning otasonasi bo'lish uchun ilgariga qarab shagom marsh!

Saodat bu gapdan, kampirning eshitib qolishidan uyalishni ham esidan chiqarib, o'zini to'xtatolmasdan sharaqlab kulib yubordi... Suhbatimizning bu tomoni jiddiy bordi. Saodat bir nuqtada turib olib, Yodgorning onasi kim ekanligini bilgisi, shu to'g'ridagi hikoyaning nima bo'lganligini eshitgisi kelar edi. Men unga Yodgorning butun hikoyalarini to'ydan keyin aytishga va'da berdim.

Va'damiz bir yerga qaror topdi. Men eng yaxshi doktor bo'lib kelishni, u eng yaxshi pedagog bo'lishni va'dalashdik.

* * *

Leningradda yana ikki yil qoldim. Yil o'rtasidagi otpuskada Toshkentga kelishni o'zimga ma'qul ko'rmadim, ayniqsa oxirgi yilgi o'qishlar juda og'irlashib ketgan. «Ikki quyonna quvlagan birisini ham tutolmas» degandek, shu qimmatli vaqtlardan ozgina — bir qismini bo'lsa ham muhabbat mojarolariga sarf qilsam, darsga xalal yetishi mumkin edi. Saodat bilan bo'lsa

va'dalashib qo'yganmiz, bu to'g'rida hech qanday tashvish tortmasam ham bo'ladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, u menga yozib turadi, men unga ora-sira javob berib turaman. Shuning singari oila bilan bo'ladigan xat bordi-keldisi ham o'rta darajada: «Sog'indik», deydilar, «O'g'ling ayniqsa ichikmakda», deydilar, kampir, «Kasalman», deydi. Shunga o'xshagan gaplar...

So'nggi yilning imtihoniga juda qizg'in tayyorgarlik bormoqda. Ishimizning ko'p qismi amaliy tajriba ustida bo'lgani uchun, ko'proq vaqt klinikalarda o'tadi. Men ichki kasalliklar vrachi bo'lishni havas qilganim uchun ko'proq ichki kasallar bilan qiziqaman.

Imtihon vaqti yetdi. Deyarli ko'p darslardan professorlar bilimimni yaxshi topdilar. Akademiyadagi boshliqlarning maslahaticha men o'zimning diplom ishimni bajarish uchun yana bir yil Leningradda qolishim kerak. Lekin men diplom ishini Toshkentda yoqlashni so'ramoqchiman. Bu tarafi ixtiyoriy bo'lgani uchun, ijozat berdilar. Kerakli hujjatlarimni olib, muallimlarim, professorlar va o'rtoqlarim bilan xayrlashib, Harbiy komissariatdan uchyotimni Toshkentga ko'chirtirdim. Shu bilan to'rt yil meni quchog'ida saqlagan, tarbiyalagan, oddiy askardan oliy ma'lumotli harbiy doktor tayyorlab chiqargan shahar — Leningrad bilan xayrlashdim.

G'oyat shodman, g'oyat quvnoqman. Yo'l-yo'lakay shu mahalgacha o'tgan, ayniqsa so'nggi olti-yetti yillik umrimning yakunlarini mulohaza qilib ko'raman.

Toshkentga yaqinlashgan sari yuragim uradi. Har galgi odatcha qachon borishim to'g'risida hovlidagilarga telegramma bergan emasman. Faqat mening qachon kirib borishimni Saodatgina biladi.

Poyezd sekin-asta tiyg'anib kelib, Toshkent vokzalida to'xtadi. Plashimni bilagimga solib, qo'limga chamadonimni ushlab, vagon derazasidan platformaga qarayman. Kishilar, xotinlar, bolalar — kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopadilar.

Derazalardan qarab, allakimlarning ismlarini qichqirib chaqiradilar. Shular ichida Saodatni qidiraman. Ana u!.. Yurak urishlari bilan zoriqib-zoriqib kutganim — Saodat! U allakimnidir qidirib yuradi. Bizning vagon derazasi yoniga kelganida, oynani chertdim. U alanglab yuqoriga qaradi:

— Jo'ra aka! — Yugurib eshikka kela boshladi. Men ham kupedan chiqib yo'lakka yurdim. U allaqachon tamburga yetib qolgan edi.

U hech qanday tortinib ham turmadi. Kela solib menga otildi...

Go'yo bizning har ikkovimiz Leningraddan birga kelganday, bizning uyga kirib bordik.

Mening kirib keluvim har ikki uyda ham, ya'ni bizning uyda ham, Saodatlarning uyida ham juda katta quvonchlarga sabab bo'ldi. O'qishim tamom bo'lganini bilgan onam terisiga sig'may sevinar edi. Yillar bo'yi xayoldan haqiqatga o'tmay yurgan «kenjatoy kelin» umidi ortiq qo'lga kirgan edi. Har ikki uyda ham to'y taraddudi uchun jahdu-jad bilan tayyorgarlik borayotgani qulog'imga yetib turar edi. Yana galga solishga qo'limda hech qanday vaji korson bo'lmagani uchun, men ham bu ishga o'z roziligimni bergan edim.

Olti yoshni to'ldirib, yettinchingning ikki-uch oyini yashab qo'ygan Yodgorning anchagina esi kirib qolgan. Unga kimdir tushuntiribdi. U kelib mening tizzalarimni quchoqlaydi-da:

— Dada, menga oppoq oyi olib berasiz-a? — deydi. Men uning bu gapidan o'ksib ketaman. «Bechora Yodgor, — deyman, — qachon bo'lsa ham men sening haqiqiy otang emasligimni, sen qandaydir bevafo, biroq go'zal bir xotinning tashlandiq va qandaydir bag'ri qattiq, men tanimagan sayoq yigitning ko'zi ko'rmagan farzandi ekaningni bilib qolsang...» deyman, yana o'zimni yupataman, o'zimga qattiq ishonch beraman: «Yo'q, Yodgor — bu mutlaqo mening o'g'lim, u Saodatning ham birinchi bolasi», deyman, uni gapga sola boshlayman.

— Senga tag'in qanaqa oyi olib beraman, o'g'lim, katta oyimlar-chi, u senga ham oyi bo'ladi, menga ham, Abdug'ani akangga ham, Qumri opangga ham bo'ladi. Tag'in kimni olib beraman?

U yana suykanib keladi, erkanib:

— Ha, oling-a, u kishi buvim bo'ladilar-ku, menga Saodat opamlarni olib berasiz! Men u kishini oppoq oyim qilib olaman o'zim...

— Obbo jinni-ye, buni senga kim aytdi? Xo'p-xo'p, olib beraman, — deb kulib qo'yaman.

Muhabbat quchog'iday issiq yoz, charoslar baxt chelhrasiday xol otgan, qizilurug' qovunlar ishqday shirin. Iyul oyining qizg'in kunlaridan birida Saodat bilan ikkov yetaklashib ZAGSga bordik. Bu mening ZAGSga ikkinchi boruvim... Menga bu yerdagi ko'p narsalar, hatto umrning ayrim qoidasi, xunuk qismi ham tanish. Xuddi kechagina shu yerga kelganday sezinaman. Tag'in bu galgi keluvim, o'sha birinchining o'zi bo'lmasin, deb, sekin yonimga qarab qo'yaman. Yo'q, bu — mening Saodatim! Vafoli Saodatim! Men u bilan umrli baxtning ahdi uchun kelganman.

Turmushda har narsaning tarozuday ikki pallasi bo'ladi, deyдилar: shirinlikning achchig'i, qorong'ilikning nuri, kechaning kunduzi, tikanning guli bo'ladi. Yoshlik g'ururi bilan qilingan bir taloqning jabrini tortib keldim. Achchiqligi bilan o'rtandim. Qorong'iligi bilan tentiradim. Kechasi bilan zulmatda qoldim. Tikani bilan alam tortdim. Endi bularning hammasiga nihoyat.

Endi men bilan Saodat uchun baxt darichasiday ochilgan qalin muqovali ZAGS daftari boshida kulgan yuzlar bilan turmoqdamiz. Uzun va oydin umr yo'li. Bu yo'l nurlarga to'lgan, shirinliklarga mo'l, muttasil kunduz, gullar to'shalgan yo'l.

Mening bu bir nafas xayolga cho'muvim Saodatni shubhalantirdimi, bilmadim. Qo'limni mahkam siqib qo'ydi-da:

— Mening familiyam nima bo'ladi? Javob bersangiz-chi, kutib qoldilar... — dedi. «Yalt» etib uning ishq va muhabbat to'la ko'zlariga qaradim. Butun kechmish xayollarim bo'ronga yo'liqqan tutunday to'zg'ib ketdi:

— Ixtiyor senda, xohlasang mening familiyamni yozdirishing mumkin.

ZAGSdan chiqib, kiyim-bosh magaziniga qarab ketdik...

* * *

Harbiy komissariat meni uzoq chegara rayoniga yubordi. Men bu yerda soqchi o'tryadlarining doktori bo'lib tayinlangan edim.

Uylanganimdan keyin Saodat bilan uyda bo'lishim uchto'rt oydan nariga o'tmadi. Saodatning yana bir yillik o'qishi bor. Shuning uchun men uni o'zim bilan birga olib kelishga andisha qildim.

Umrinning anchagina qismi harbiy ishlarda o'tgani uchun men bu yerda hech qanday qiyinchilik tortmayman. Lekin sog'inuv o'z hukmini o'tkazib turadi. Uylanmasdan ilgari bu hisni o'zimdagi tajriba qilib ko'rmagan edim. Uzun kechalar, yulduzli osmonga qarayman. Jimirlab oqib turgan Amudaryoning mayda to'lqinlarida oy nurining ermak bo'lganini ko'raman. Daryo kabi keng quchoq ochib, to'lqinli bag'rimda Saodatni ko'rgim keladi...

Osmonda shimoldan janubga qarab Somon yo'li bo'ylab turnalar, g'ozlar karvoni uchib o'tadi. Go'yo ular mening bu orzularimning tezdan ro'yobga chiqishiga bashorat berganday, «haq-haq», deb o'tadilar...

Yana o'z uyimga qaytib kiranman. Saodatdan kelgan xatlarni bir necha marta o'qib ko'rgan bo'lishimga qaramay, yana qaytadan o'qib chiqaman. Xatlar Saodatlanib men bilan so'zlashganday bo'ladilar, sekin o'pib qo'yaman.

Bizning chegara soqchiligidagi yigitlarning hammasi ham tog'ni ursa tolqon qiladigan azamat, sog'lom yigitlar, borganimga ikki-uch oy bo'lishiga qaramasdan, bularning ichida birorta jiddiy kasal uchrata olganim yo'q. Oshib borgan tumov yoki oftob urisi. Harbiy poliklinikada ish o'z bo'lgani uchun nachalniklarning ijozati bilan grajdanlar poliklinikasida ham ishlayman. Ko'p umrim tevarak-atrofdan keladigan aholiga yordam berishdan iborat. Ayniqsa grajdanlar o'rtasida nomim yaxshilikka yoyilgan. Mening yerlik tilni bilishim, ularning dardlariga darmonlardan bittasi bo'lib hisoblanadi.

Grajdanlar o'rtasida bo'lganidek, mahalliy tashkilotlar o'rtasida ham durustgina obro'yim bor. O'zimga yarasha oshnalar o'rtoqlar, yor-do'stlar topganman. Dam olish kunlari ular bilan birlikda bir-birimizga bordi-keldi qilamiz, xushchaqchaqlik bilan umr o'tkazamiz.

Kunlardan bir kun shu o'rtoqlarimdan birisi — rayonimizda mas'ul xizmatlardan bittasini egallab turgan bir yigit — meni shaxsan uyiga taklif qildi.

— O'rtoq doktor, — dedi, — bir necha vaqtdan buyon tuzalmayotgan bir bemorim bor, ko'p doktorlarga ko'rsatdim, har qaysisi har xil fikr beradi, lekin birortasidan ham shifo topgani ma'lum emas. Rostini aytsam, bemor — o'zimning xotinim. Sizdan iltimosim: bir borib ko'rsangiz.

Bu yigit ko'rinishda mendan bir-ikki yosh katta, ko'nglida kiri yo'q, juda xushchaqchaq bir kishi edi. Ayniqsa, rayondan

orttirgan o'rtog'larim ichida men ham unga, u ham menga ko'nglimizni juda yaqin tutar edik. So'zini qaytarmasdan, va'dalashgan kuni uyiga bordim. Mehmonxonasida bir oz so'zlashib o'tirgandan so'ng, meni yotoq uyiga olib kirdi. Uyning to'rida po'lat karavotda ko'zini shipga tikib bir yosh xotin — bemor yotar edi. U meni ko'rishi bilan o'rnidan qo'zg'alib, karavotdan tushmoqchi bo'ldi. Men unga ozor bermaslik uchun qo'zg'almasligini taklif qildim. Xotin bir oz ozib, rangi sarg'ayinqiragan bo'lishiga qaramay, yuzlarida o'tkir husnning izlari barq urib ko'rinib turar edi. Yoshi yigirma to'rt-yigirma beshlarga kirgan bir juvon. Men uni doktorlarga xos bir ezmalik bilan diqqat qilib tekshirib ko'rdim. Bilmadim, boshqa doktorlar qanday hukmga kelgan ekanlar, menimcha, xotinda o'tkir asabiylikdan boshqa hech qanday jiddiy kasallik ko'rinmas edi. Men buni o'rtog'imga aytdim. Ham xotinni sayohatga yuborishni maslahat berdim. So'z orasi bolalari bor-yo'g'ligidan, oilaviy turmushlaridan so'radim. U bir xo'rsinib oldi-da:

— Bolamiz yo'q. Rostini aytsam, bu kishining kasallari ham qisman shu bolasizlikdan, — dedi.

Men uylanganlariga qancha vaqt bo'lganini, bolalari bo'lsa ham turmaganmi yoki hech bolalari bo'lmaganmi, hammasini aylantirib so'ray boshladim (Chunki doktorlarga ba'zan shunday, turmushdagi mayda faktlar ko'p narsalarni bilishga yordam beradi). Mening savollarimdan zerikdimi yoki ezildimi:

— O'rtog' doktor, — dedi do'stim, — hammasini bilgingiz keladimi? Xo'p aytib berganim bo'lsin. Siz shu yerda bir nafas o'tirib turing...

Narigi uydan bir stul keltirib, bemorning bosh tomonida men, oyoq tarafida eri o'tirdi. U hikoyasini so'zlay boshladi:

— O'rtog' doktor, men sizga aytsam, buning kasali bola vajidan. Ba'zi-ba'zida men ham o'ylab ketib, kasal bo'lguday bo'lib qolamanu, nima qilsangiz hamki, bir tarafi erkakchilik, ikkinchi tarafi, ish bilan ovunib, ko'pda esimga olmayman.

O'rtog'im so'zini bo'lib xotiniga qaradi:

— Aytaveraymi, Mehrixon?

Xotin uyalganday bo'lib, yuzini ters o'girdi-da:

— O'zingizga sinashta o'rtog'ingiz bo'lsalar, u kishidan sir yashirib o'tirasizmi, bir boshlagan gapni o'lda-jo'lda qo'ymay aytavering endi, — dedi.

O'rtog'im yana bir xo'rsinib qo'ydi:

— Shunday qilib desangiz, o'rtog' doktor, men bundan olti-yetti yil burun qip-qizil chapani yigit edim, — xotinini ko'rsatib, — bu bo'lsa paranjidagi oddiy bir o'zbek qizi edi.

Mana endi o'zingiz ko'rib turibsiz, bilasiz: men SAKUga kirib o'qidim, masalaga boshqacha qaraydigan bo'ldim. Hikoyamizning bosh yillaridagi oddiy chapani emasman. Mening hozirgi hikoyamga bu kungi odamshavanda, madaniyligimning aloqasi yo'q. Bu ham o'qib, tuppa-tuzuk aktivistka bo'ldi. Mana besh yildan buyon bir-birimizni sevib, ko'rmasak sog'inishib, mehribonchilik bilan umr o'tkazamiz, meni shu rayonga tayin qilishdi. Ikki yildan beri shu yerda ishlamoqdaman. Albatta, bu gaplarning sizga qizig'i yo'q. Gapning qizig'i mana qayerda, quloq soling, o'rtog' doktor!

Bizning uylanishimizning tarixi juda ham qiziq. Haligi aytganimdek, men oddiy bir chapani edim. Bu bir musulmonning iffat pardadagi qizi edi. Nima qilay, yigitlik g'ururi deysizmi, yoshlik deysizmi, biz bir-birimizni sevishdik — bu mendan boshqaga tegmaydigan, men boshqani olmaydigan bo'ldim. Lekin buning otasi menga berishga rozilik bermas edi. Shunday bo'lsa ham, ishq deganday, bir-birimizdan ajralmas edik. Birmuncha vaqt yashirin yurdik. Bilasizki, o'rtog' doktor, men dunyo ko'rmagan chapani yigit bo'lganimdan keyin, bu paranji ichidagi hurkovich quyondek, ota-bobolarcha aytganda, «qog'ozdagi qantdek qiz» bo'lgandan keyin, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu sirni ikkovimiz va buning onasi bildi. Nima qilish kerak, bu sir bitta-yarimtaga oshkora bo'lib qolsa, buning otasiga bosh ko'tarib yurish o'lim bilan baravar edi. Bizga ham, ayniqsa, bunga juda zo'r isnod bo'lar edi. Biz har uch go'l kishilar mumkin qadar sirni yashirib, oy-kunini kutishdan boshqa chora topa olmas edik.

Voy o'rtog'-ey, o'sha kezlarda men bilan Mehrining tortgan jabru jafolarimizni qo'yavering. Hammaga shumshuk ko'ringanday. Hamma meni jinoyatchi deb barmoq o'qtalib ko'rsatayotganday sezinaman. Shaxtimdan tushganman. Bo'shashib qolganman. Ayniqsa, Mehrining onasi menga ko'z ochirmaydi. «Yigit o'lgur, juvonmarg, qizimning nomini bir pul qilding», deb qarg'aydi. Biroq bu qarg'ishlar foyda bermas edi. Yo menga Mehrini berishlari, yoki bolani yo'qotishlari kerak

edi. Otasi bu sirlardan xabarsiz bo'lgani uchun onasining qilgan qiyin-qistovlariga quloq solmas, so'zida turib olgan edi. So'nggi ikki-uch oy ichida, mana o'zining yuzi ko'zi, uydan ostona hatlab ko'chaga chiqqani yo'q. Uzoq kutilgan «mehmon» tug'ilishiga bir necha kun qolganda Mehrini «Dalaga, xolasinikiga ketdi», degan bahona bilan otasining ko'zidan bir ovloqqa yashirdik. U yerda bola tug'ildi. Ikki-uch kundan so'ng Mehri salomatlandi. Endi bo'lsa qanday qilib bo'lsa ham bolani yo'qotish — hammamizning fikrimiz bo'lib qolgan edi.

Hikoya chuqurlashgan sari bir qorong'ilikdan — nurga, shubhadan yaqinga borayotgan kishilarday ko'zimning qorachilari kengaymoqda, badanim allaqanday qo'rqinchli uchrashuvdan darak berganday jimirlashmoqda edi. Xotin bo'lsa ko'zini yashirib, «piq-piq» yig'lamoqda edi. O'rtoq'im hayajonlangan... Bir necha sekund oraliqni jimjitlik bosdi. Go'yo pashsha uchsa, uning qanotidan chiqqan ovoz jimjitlikni buzar edi. O'rtoq'im xotiniga bir qarab qo'ydi. O'zini to'xtatib olib, yana so'zida davom qildi:

— Shunday qilib, o'rtoq doktor, og'ayni, men sizga aytсам, bolani nobud qilishga hech qaysimizning ko'zimiz qiymadi: oppoqqina lo'mbillagan o'g'ilgina bola edi. Ming tomonni o'ylab hiyla va chora axtarar edik. Birorta befarzand odamga berib yuboraylik, desak, sir ochilib qolishidan qo'rqar edik. Hali ham maslahat Mehrining o'zidan chiqdi. U mening pasportimni so'rab oldi, ko'chaga chiqib ketdi. Bilmadim, bolani nima qildi? Ertasiga xabar olay deb uchrashganimda — bola yo'q. Hech nima ko'rmaganday. Menga muomalalari sovuq. Mehri menga pasportimni qaytarib berdi. Pasport ichida ZAGSdan olingan, mening nomimga yozilgan taloq xatining kopiyasi yotar edi. Juda hayronlikda qoldim. Biz ilgari u bilan nikohdan o'tmagan edik. Xo'sh, taloq xati qayerdan paydo bo'ldi?..

Gapning qisqasi, bola nima bo'lganini hali ham menga aytgan emas, o'rtoq doktor. Mana shu taloq xatini hali ham saqlab yuraman.

U qo'yin cho'ntagidan pasportini oldi. Pasport ichidan tarixiy taloq xatini olib menga uzatdi. Qo'llarim qaltirar edi. Ko'z oldimni yillar bo'yi to'sib yotgan qorong'i tuman sekin-sekin tarqalganday bo'lar edi. Ag'rayib qolgan edim. Bu —

o'sha, men qo'l qo'yib olgan va meni qo'lga tushirgan taloq xati edi. Yigitlik zabtini yig'ib olishga ojiz edim. Mening buncha o'zgarib ketuvimdan shubhalangan o'rtog'im to'xtalib, menga hayronlik bilan termilar edi.

Mehrixonga qaradim. Bu — o'sha aldamchi, bevafo ko'zlar, bu — o'sha bir kulgusi bilan machit tarnovidan musichalarni cho'chitib uchirgan yoqut lablar...

Mehrixon yig'idan bo'rtinib ketgan ko'zini i pak dastro' molchasi bilan artib oldi. Uyning ichini suvga ivitilgan qalampirmunchoq hidi tutib ketdi. Men o'zimni bundan yetti yil ilgari bog' machitida, deb his qilar edim. Nihoyat, o'zimni qo'lga oldim.

O'rtog'im mening tinchlanganimni ko'rib, xotinini qistay boshladi:

— Mehrixon, hoy, Mehrixon! Kel, qo'y endi, sog'-salomat bo'lsa o'ynab-kulib katta bo'lib qolgandir, o'lib ketgan bo'lsa, ayb eski turmushning kishilarga kafan bichishida. Mana bu o'rtog'im doktor — o'zimizning hamshahar. Bu kishining fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi. Juda ulfat yigit ekan. Sen o'sha yetti yil ichingda saqlab yashirib kelgan siringni shu bugun ochib ber. Shu bilan bu hikoyaga go'r qaziylikda, yuragimizdan sidirib tashlaylik. Sen ham o'zingni diqqat qilib kasal bo'lib yurma, men ham seni ko'rib ich-etimni yeb yurmayin. Qani, qolganini o'zing aytib ber, bolani nima qilgansan?

Og'ir bir jimjitlikning vazmin qo'llari har uchovimizning yelkamizdan bosib turganday edi. Go'yo qorong'i kechalar zanjir halqalariday bir-biroviga tutashib ketgan, go'yo ulug' bir tilsimot sandig'ining qulfiga bir kalitning tushishini kutganday har uchovimiz shu mubhamlikda, jaranglagan ovoz kutar edik. Meni esa umri yetti yil, lekin mazmuni yetmish yillarga teng bir hissiyot chulg'ab olgan edi. Meni o'ch bilan shafqat, g'azab bilan marhamatning kurashi o'z domiga tortgan edi.

...Ana Yodgor, haligina emgan ona sutining lazzatini tamshanib mening qo'limda uxlamoda...

... Ana Yodgor, mening yulduzli shapkamni kiyib oynamoqda...

...Ana Yodgor, «Menga oppoq oyi olib bering», deb qistamoqda...

...Ana Yodgor...

Endi Yodgor yo'q. Yodgor — u, birovning o'g'li.

Ey ishq, muncha ham qudratlisan!

Xotin ko'zlarini ochdi. Titragan qo'llari bilan karavot qirg'oqlarini ushladi-da, qaddini rostladi.

Titroq va hayajonli ovoz bilan:

— Aytaymi? Aytaymi? Men bir o'g'il va bir yigitning qoniga javobgarman! — dedi.

U yarim telba edi. Hissiyot agar muhit bo'lsa, u shu muhitning to'liqiniga asir bo'lgan bir cho'loq chumeli...

Menda shafqat — o'chni yengdi, mehr — g'azabni, go'yo so'qir paxsa devorlardan shaftolilar mo'ralagan uzun va jimjit bog' ko'chaning yalla bedard chapanisi edim. O'rnimdan qo'zg'aldim: Mehrixonning ikkala qo'lini ushladim. Butun kuchimni ikki ko'zimga yig'dim-da, uning bevafo, biroq g'amgin, sho'x, lekin ma'yus ko'zlariga tikildim:

— Birovga hech xolis xizmat qilib o'rganganmisiz?

Mehrixon menga juda qattiq termildi. Andisha oyoqosti bo'ldi, oru nomus bir pul!

— O'sha sizmisiz? To'g'ri, sizsiz...

U meni mahkam quchoqladi va hushidan ketdi...

* * *

Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z yonimda, ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi.

1936



HIKOYALAR

CHORBOZORCHI

Men uni juda yosh vaqtlarimdan buyon taniyman. O'lguncha yuraksiz ekanini ham bilaman. Bir kun mahallamizga hovli ko'radigan doktor keldi. Ahmad Sedob bu ovozani eshitishi bilan yuragi qinidan chiqib, behush bo'lib qolibdi. Betiga suv purkab o'ziga keltiribdilar. Sababi — uyda kir o'rasi yo'q ekan.

Ahmad Sedob inqilobgacha vofurush edi. So'nggi paytlarda do'kon-dastgohini yig'ishtirib, chorbozorchi bo'ldi. U, qo'l kelgan narsaning hammasi bilan savdo qiladi. Foydagarlik qaysi molning ustida yaxshi bo'lsa, o'shanga qarab og'adi. Bir vaqtlar shiravor narsalarning bozori chaqqon bo'ldi. U darrov attorivor buyumlarni yig'ishtirib, dastmoyaga novvot, qand, parvarda xarid qildi. Shiravorlikning bozori o'lgan edi, tayyor ko'ylak-ishton, paxtalik shim, yovliqlar bilan savdo qila boshladi. Hamma narsalarga ham xaridor topilmaganda «Shariati imon», tasbeh, xurmo va duo yozilgan qog'ozlar bilan qishloqma-qishloq yurdi. Umrining oxirgi paytlarida yana attorivor buyumlar sotish bilan kun kechirdi.

U o'z kasbining har pallada o'zgarib turishiga qaramay, xaridorni o'ziga og'dirishga epchil. Shiravor narsalar bilan savdo qilayotganda:

— Labingizni labingizga payvand qiladi. Tobingizni me'yoriga keltirsa pul bering, qandasha xo'r, azamat! — deydi. Tayyor kiyim-kechaklar bilan oldi-sotdi qilganda, mabodo siz bironta narsaning bahosini so'rab qolsangiz, baloga qolasiz. Masalan, birorta dehqon kelib:

— Mana bu shiming necha pul? — deb qolsa bo'ldi. Xaridorni yerga o'tqazadi. Qo'lidagi shimga ishtonbog' taqadi. So'rovchining oyog'idan mahsisini tortadi. Shimni kiydiradi. Agar jussasiga mos kelsa:

— O'lmang, kiroyi mol olganday bo'lasiz, sizga juda o'tirdi, choklari ham ikki qaytadan tikilgan, puxta. Bir umr tepkilab kiyganda ham, asl mol-da, tamom bo'lmaydi. Xayr, sizga nasib qilgan ekan, yaxshilikka buyursin, — deydi. Xaridor narx so'raydi. Ahmad Sedob unga bir qarab oladi-da:

— Endi gap pulda emas. Moli hozirgi mollardan emas, yangangizning bisotida qadimdan qolgan edi. Ataylab o'zinga tiktirgan edim, sal tor keldi. Siz o'zimizniki — yetti so'm berasiz, — deydi. Xaridor cho'chib shimni yecha boshlasa, qo'lini ushlab to'xtatadi-da:

— Xayr, xayr, qani shoshmang, siz qancha berasiz? — deydi. Xullasi, xaridorning u yog'idan o'tib, bu yog'idan o'tib shimni sotadi.

«Shariati imon», tasbeh, duo qog'ozlari sotganda ham u juda biyron.

— Makkadan kelgan, atigi ikki dona edi, bittasini noilojlikdan sotaman, — deydi tasbehni ko'rsatib. — Endi ham bosilsin-chi, qadriga yetgan musulmonga sotaman, — deydi «Shariati imon»ni so'ralsa. — Shamdoni sharif, choruqi sharif, misvoki sharif, — deydi palaxsa-palaxsa suratli duo qog'oz sotganda.

Attorivor buyumlarga xaridor bo'lsangiz, u bitta oynami, taroqmi, saqichmi — nima bo'lsa ham, sizga yaxshi mol ekanini maqtay-maqtay narx aytadi. Siz kanga so'rasangiz, qo'lingizdan molni tortib oladi-da, jahl bilan:

— Yur, yur, uka, kooperativga bor. Koshki u yerdan bundoq narsa topa olsang. Seni odam deb jo'yalik narx aytgan edim, — deydi.

Ahmad Sedob kooperativ bilan hech chiqisha olmaydi. Yuragida kooperativga qarshi raqobat o'ti gurillaydi. Kundan-kunga qishloqlarda ochilayotgan kooperativlarni, ularda qator uymalashgan dehqonlarni ko'rib, odamlardan insof ketdi, deb dilidan o'tkazadi. Agar biror kishi uning oldida kooperativdan so'z ochsa:

— Echkini o'z oyog'idan, qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar. Senga ikki yo'l: bittasi o'ng, bittasi so'l. O'ng yo'l qolib, so'l yo'l bilan kooperativdan savdo qilsang, jazosini ko'ra berasan. Uning butun moli bizdan olingan nalogdan, —

deydi. Uni har doim yelkaga ko'targan xurjuni bilan atrof qishloqlarda bozor kunlari ko'rish mumkin. Juma — Jumabozorda, shanba — Yarmarkada, yakshanba — Eski Toshkent qishlog'ida, dushanba — To'ytepada, seshanba — Qovunchida, chorshanba — Chinozda, payshanba — Telovda va hokazo...

* * *

Biz Jumabozorga yaqin bir qishloqda Muhammadjon degan o'rtog'imizning yeriga chiqdik. Atrofni aylanib zerikkanimizdan so'ng, o'rtoqlar bilan qishloq bozorini tomosha qilgani chiqishni ma'qul ko'rdik.

Bozor dehqonlar bilan to'la edi. Kooperativlarda odam sig'ishmaydi. Muhammadjon aka sigirga arqon olmoq uchun bizni bir samovarga o'tqazib, o'zi kooperativga ketdi. Oradan besh minutch vaqt o'tgandan so'ng, kooperativlar oldida to'polon ko'tarildi. Odamlar o'sha tomonga qarab yugura boshladilar. Muhammadjon aka o'sha tarafdin chopib bizning oldimizga keldi-da, hovliqib:

-- Bizning qo'shni Ko'kanni xudo urib qolibdi. Kooperativdan gugurt olaman degan ekan, pulini kissavurga oldiribdi, — dedi.

Biz hammamiz samovardan odamlar g'ujg'on o'ynagan yerga yugurdik, dehqonlar Ko'kanni o'rta olib surishtirmoqda edilar. Bir xurjun ko'targan, o'rta yoshli, cho'qqisoqol kishi emish, kooperativning oldida Ko'kanni yoniga surkalib turgan ekanmish, bir aylanib puli yo'q emish... Odamlar Ko'kandan kayfiyatni bilgandan so'ng tarqala boshladilar.

Yana oradan besh minutlar o'tar-o'tmas mol bozorda to'polon chiqib qoldi. Kissavur ushlendi. Dehqonlar otliqmi-yayov kissavurni o'rta olib, alamon qilar edilar. Biz ham yugurib borib, oraga suqildik. Kissavur o'lim oldida yerda cho'zilib yotgandi. Otlarning oyoqlari, atrofdan kelgan tosh, g'isht, kesaklar...

Birdan qay ko'zim bilan ko'ray: chorbozorchi Ahmad Sedob.

Yelkasidagi xurjuni yerga tushib, ichidagi narsalar atrofga sochilgan, ayniqsa ikki-uchta taroq — egasi chorbozorichining holiga tishlarini irjaytirib kular edi.

«Endi shu kasbni topgan ekansan, jazongni tortibsan», deb ko'ngildan o'tkazdim. Militsiyalar kelib, odamlarni tarqatdilar, kissavurni o'limdan qutqarib, shahar kasalxonasiga jo'natdilar. Biz ham bafurja Muhammadjon akaning qo'rg'oniga qaytdik. Kechqurun Ko'kan bir tarvuz ko'tarib chiqdi. Shunda biz:

— Qancha, qancha pul oldirdingiz? — deb so'rasak:

— Aylanayinlar, ikki xurma sut sotgan edim, miri kam uch tenkami, miri kam to'rt tenkami, haytovur, esimda jo'q, — deb javob berdi...

1929

GUVOHLIKKA O'TGAN HO'KIZ

1979-yilning (bizdan ellik yil so'ng) bahor kezlaridagi bir kuni bolalar uyining o'quvchilari 1929-yildayoq Chirchiq labiga solingan azot zavodiga ekskursiyaga chiqdilar.

Bu kecha o'sha yerdagi ishchilarning umumiy yotoqxonalarida qo'nmoqchilar.

Bolalardan bir turkumi kelib, o'z murabbiylaridan tarixiy bir hikoya eshitishni iltimos qildilar. Murabbiya ko'ndi. Kechki mashg'ulotdan so'ng bolalar yotoqxonalariga kirdilar. Hammalari gavjum bo'lishib, murabbiyadan hikoya kutdilar. Murabbiya ham va'daga muvofiq hikoya boshlamoqchi bo'ldi.

— Ukalarim, — dedi murabbiya, — hammalaringiz ham charchadingiz. Mening sizga aytadigan hikoyam ham hordiqni chiqaradigan hangomacha tarzida bo'ladi.

O'quvchilar ma'qul topdilar.

— Bundan oltmish yillar ilgari sotsializm qurish uchun juda qizg'in kurashlar borar edi. Har tarafda sinfiy kurash alangalanar edi. Kapitalistlar, boylar, ruhoniylar va ularning bolalari bizning haddan ziyoda sur'at bilan o'sib bormoqda bo'lgan og'ir qurilishlarimizni ko'ra olmas edilar. Har qanday tasodifdan foydalanib bizga zarba bermoqchi bo'lar edilar. Ko'pincha ular, bizning ijtimoiy tashkilotlarimizga ham kirib olishga muvaffaq bo'lib, kambag'al dehqon, ishchilarning manfaatiga zid bo'lgan harakatlarda bo'lar edilar.

O'quvchilar murabbiylarining so'zini tinglab, sukutdalar.

— Bundan rosa ellik yil burun «X» qishloqli kambag'al bir dehqon qishloqning bozoridan o'tib borar edi. Uning yo'li

«X» qishloq chorvadorlar shirkatining kooperativi yonidan o'tdi. Kooperativ mudiri Ashirqul degan dehqonni chaqirib, to'satdan:

— Qani Ashirqul aka, uch so'm oltmish tiyin chiqaring, — dedi. Ashirqul hayron bo'lib sababini so'ramoqchi bo'lgan edi, kooperativ mudiri og'zini qoqib:

— Qo'yavering, biz sizdan bekorga pul olmaymiz. Sizga juda ham qimmatbaho bir buyum beramiz, — dedi. Mudirning so'ziga do'kon yordamchilari ham qo'shilib:

— Obbo soddada odam-ey, siz beravering, kuysangiz, biz kafil, — dedilar.

Ashirqul ikkilanib uch so'm oltmish tiyin chiqazib berdi. Kooperativ mudiri pulni olgandan keyin ma'noli qilib:

— Endi, Ashirqul aka, sizning pulingizga bir turli, siz ko'rmagan yem beramiz. Bu yem markazdan kambag'al dehqonlarning ish hayvonlariga atalib kelgan. Biz shu yemni tajriba qilmoqchimiz. Olib borib ho'kizingizga berasiz, mazza qiladi, — dedi.

— Xayr, baraka topinglar, ukalarim, — dedi Ashirqul aka minnatdorlik bilan. Qopni ochdi. Qayroqtooshga o'xshash, oq bilan zangor aralash olachalpoq rangli, palaxsa-palaxsa narsani tortib qopga soldilar. Ashirqul aka bu muammo buyumni orqalab ho'kizini xursand qilish uchun ovulga bordi.

Nima ekanini surishtirmay, ho'kizga soldi. Faqat teringga somon tiqilgur ho'kiz tumshug'i bilan bir-ikki turtib yemakdan bosh tortdi.

Murabbiya hikoyasini shu yerda to'xtatib, bolalarga qaradi.

— Ukalarim, — dedi murabbiya, — hikoyaning davomida bir talay sizga yot bo'lgan so'zlar eshitildi, masalan: «Teringga somon tiqilgur», «harom o'lgur»ga o'xshash, bu so'z zamonasining jumalari bo'lganidan meni kechirasizlar.

Bolalar ma'qul ko'rdilar. Murabbiya so'zida davom qildi:

— Ashirqul aka ho'kizning tepasida turib, yemning yaxshiligi, to'q tutadigan ekanini maqtasa ham, ho'kiz unamas edi. Na iloj qilsin.

«Yopiray, bu o'zi qanday mo'jiza yem bo'lsa ekan, uch so'm oltmish tiyinga o'tday kuymasam yaxshi edi», deb bir yumalog'ini olib tekshira boshladi. Ashirqul aka ne ko'zi bilan ko'rsin, bu mo'jiza yem yomg'irda qolib, ivigan, xamir

bo'lgan, mog'orlab, qotib, qayroq toshday bo'lib qolgan un ekan. Ashirqul aka garangsidi.

«Kooperativ ulug'lari men bilan hazilkash emas edilar-ku?» deb ko'targanicha yana kooperativga bordi.

— Ota-onang to'yingni ko'rgurlar, bu qanday yem edi, sizlarning so'zingizga kirib, ho'kizimga uyatli bo'ldim, pulni qaytaring, shovvozlar, — dedi Ashirqul aka. Kooperativ mudiri sirning oshkora bo'luvidan qo'rqib, Ashirqul akani kooperativning ichkarisiga olib kirdi. Bu voqeani hech kimga aytmaslikni iltimos qildi. Ocheredsiz choy, sovun, maydachuydalar berdi.

Do'kon mudiri Ashirqul akani do'kon eshigidan kuzatib qo'yishda yelkasiga qoqib:

— Endi, Ashirqul aka, agar ho'kiz begona odamning ho'kizi bo'lganda, qorniga pichoq urar edim, qanday qilayki, sizniki-da, — dedi.

Ashirqul aka ham soqolini serkillatib:

— To'g'ri aytasiz, hayvoni bezabon-da, harom o'lgur, oldiga solingan buyum toshmi, kesakmi, zahri margmi, surishtirmay yeya berganda bunchalik gap-so'z bo'lmas edi, — deb uyiga jo'nadi.

Ashirqul akaning kooperativda bo'lgan bu voqeadan vijdoni siqildi. Bu xiyonatni yashirib ketishga g'azablendi. Tikka borib jinoyat qidiruv sho'basiga xabar berdi. O'sha kuniyoq, kooperativdagi butun xizmatchilar qamoqqa olindilar.

O'n besh kundan so'ng, bularga qishloqda namunali ochiq sud bo'ldi. Sudning aybnomasida shunday yozilgan edi:

«X» qishloq chorvadorlar kooperativiga markazdan ikki vagon — ikki ming puddan ziyodroq unni dehqonlarga tarqatish uchun yuborilgan. Pudi ikki so'm o'ttiz tiyindan — besh ming so'mdan oshiq bo'lar edi. Bu unning kelganiga bir oydan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham, kooperativ mudiri va xizmatchilari bo'shatib olmaganlar. Un ochiq havoda yomg'ir, qorlar ostida qolib ketgan.

Eng oxiri, kooperativdagilar o'z jinoyatlarini yashirish uchun bir so'm ellik tiyindan o'n yetti nafar ishchi yollab, qayroq toshday qotib qolgan bu unni ushattira boshlaganlar va dehqonlarga yem o'rnida tarqatmoqchi bo'lganlar.

Dehqonlar, kooperativda shuncha un nobud bo'lib yotgan holda, xususiylardan bir pud unni besh so'mdan sotib olganlar.

Kooperativ xizmatchilarining bu qilmishlari mutlaqo sinfiy dushmanlik va ko'ra-bila turib, jinoyatkorlikdir».

Sud majlisiga Ashirqul aka va uning ho'kizi guvoh qatorida chaqirilgan edi. Ashirqul aka kooperativdan olgan o'sha unning namunasini keltirdi. Tajriba uchun ho'kizning oldiga soldilar. Ho'kiz o'z guvohligida sobit qoldi. Unni yemadi.

FARZANDI SOLIH

Mulla Shoshqol domlaning beshta bo'yi yetgan, qaddi barkamol, saydovutday-saydovutday qizlari bo'lsa ham, bittagina o'g'ilning gadoyi edi. Er-xotin har kech xudo bir farzandi solih ato qilishini so'rar edilar.

«O'g'il tug'ilsa, Zangiotaga qo'chqor so'yamiz», — dedilar, bo'lmadi. «O'g'limiz bo'lsa, oti «Xudoybergan» bo'lsin», — dedilar, bo'lmadi.

«Bir o'g'il farzandi solih ko'rsat, boshi Bahovaddin balogardonga nazr», — dedilar, bo'lmadi. Axiyri er-xotin Abdumalik eshonga qo'l berdilar. Xotin yetti kecha-kunduz eshonning ostonasini supurdi, innaykeyin, eshonning «nafasi» bilan bo'yida bo'lib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat deganda, chehrasidan «nuri imon» balqib turgan bir o'g'il — farzand tug'di. Er-xotin eshonga hurmatan bolaning ismini «Ostonaqul» qo'ydilar.

Zamonlar o'tdi. Mulla Ostonaqul ulg'aydi. Bola Shoshqol domladan ko'ra Abdumalik eshonga o'xshash, lanj va tor peshona, yassi bashara, chaman fe'l edi.

Ostonaqul beshta opalari o'rtasida arzanda edi. Shoshqol domla o'g'lini boshqa ustozga bersa, urib-so'kishidan cho'chib, o'zi tarbiya qila boshladi. Mulla Ostonaquldagi zehn «burroligi» yetti yilda ham «Haftiyak»ning «sassi»sidan nari o'tishga yo'l qo'ymadi.

Yana yillar o'tdi. Ostonaqul yigit bo'ldi. Har otaning vazifasi bo'lgani kabi Shoshqol domla o'z o'g'lini bir kasbga solib qo'yishi kerak edi. Domla o'zi mullavachcha bo'lib, domla-imom bo'lib, boyonlarday farog'atda umrguzaronlik qila olmagan uchun, o'g'lini savdogar qilishga niyat qilib qo'ygan edi. Opalari, enalari ham mulla Ostonaqulni erkalaganda: «O'Imasa, magazinchi bo'ladi, ko'pas qal'achi bo'ladi», deb taltaytirar edilar.

Kunlarning saodatli bir fursatida mulla Shoshqol domla o'g'li Ostonaqulni yoniga chaqirdi.

— O'g'lim, — dedi u, — siz ertadan boshlab kasb-korga tushasiz, men siz uchun mana shu molni xarid qildim. Olib borib, bozorga soting, tannarxi ikki so'mdan, siz ikki yarim so'm, o'n bir-o'n ikki tangadan sotsangiz ham mayli, ozdan ko'payadi. Xudo kushoyishingizni bersin, omin ollohu akbar.

O'g'lining qo'liga to'rt dona chachvon (chimmat) tutqazdi.

Ostonaqul ertasiga kallayi saharlab yana qaytadan ota-onaga, opalaridan fотиha olib, bozorga jo'nadi.

U eng avval yarmarkaga chiqdi, undan kapponga kirdi, undan ot bozoriga, qo'y bozoriga, xullasi, kirmagan bozori qolmadi. Vaqt peshindan oqqan bo'lsa ham, birorta azamat: «Uka, nima ko'tarib yuribsan, sotasanmi, qanchadan?» — deb so'ramadi. Mulla Ostonaqulning haddan ziyod qorni ochdi. Namozgar haddida bozor kasodligidan arazlab, uyiga qarab jo'nadi.

Tole' agar yor bo'lsa, shisha sandon sindurur,
Agar baxt yor bo'lmasa, atala dandon sindurur.

Qoq yog'och bozorning oldiga kelganda, ro'paradan bitta oq namat ko'targan kishi chiqib qoldi. O'zi cho'qqisoqol, qirra burun, ko'zlari ichiga botgan kishi edi.

— Yaxshi yigit, — dedi, — qo'ltig'ingizdagi nima?

— Chimmat.

— Sotasizmi, jonidan?

— Hovva.

— Qanchadan?

— Uch so'mdan.

— Qani ko'raylik-chi. — Xaridor har to'rt chimmatni birin-birin ko'rib chiqdi. Mulla Ostonaqulga qaradi:

— Endi, uka, — dedi, — men ham olib sotarman, mana shu qo'ltig'imda ko'rganingiz namatni sotmoqchi bo'lib yuribman. Bir necha xaridor chiqsa ham narxi kelishmadi, sotmadim. Esizki, naqd pul bo'lganda hammasini aytganingizga berib olar edim.

Ostonaqul umidsizlandi.

— Namatingizni necha pulga sotmadingiz?

— O'n to'rt so'mga, — dedi-da, xayrlashib keta boshladi.

«Bitta yaxshi namat ellik so'mga dovur bor, buniki juda arzon, chimmatga bir amallab ayirbosh qilaman, zoyelik tortmayman», degan fikr Ostonaqulning miyasidan yashin tezligida o'tdi.

— Hoy, aka, — dedi u, — bu yoqqa qarang.

— Nima deysiz?

— Bo'lmasa chachvon bilan ayirbosh qilamiz.

Ketuvchi kishi orqasiga qaytdi.

— Unda sizning ikki so'mingiz yetmaydi-ku, nima qilamiz? — dedi. Ostonaqul yalindi, yolvordi:

— Bir ko'rganda uzilishib ketarmiz, — dedi. To'rt chachvonni birdan «eng oliy» namatga alishdi. Har ikkovi yangi buyumni qo'ltiqlab, yo'lga tushib jo'nadilar.

Ostonaqulning qadamlari go'yo o'ziniki emas edi. U qanday bo'lsa ham uyga yetib, bu g'animatni ota-onalariga ko'rsatib xursand qilmoqchi edi. Yo'l-yo'lakay qo'ltig'idagi namatga qarab, sevinar edi. Ostonaqul mahallaga kirib borganida, bir to'da kishilar ko'cha boshida gurunglashib o'tirgan ekanlar. Hammalari Ostonaqulga qaradilar.

— Ha, maxzum, bunchalik ildam, yo'l bo'lg'ay, qo'ltig'ingizdagi nima?

— Shunday, bozordan uyga, bu namat.

— Necha pulga oldingiz?

— O'n ikki so'm.

— Ne miqdor arzon, bir qo'lga tushiribsiz-da, maxzum, qani bir ko'raylik-chi.

Ostonaqul faxr va aqllilik ko'rsatib, qo'ltig'idagi namatni ularga berdi, ular maqtay-maqtay namatning qatini ocha boshladilar.

Ostonaqul o'zini unutayozdi. Hammalari ham hayronlikda qoldilar. Namat allaqaysi bir musofir ko'p qo'nadigan choyxonadan chiqqan eski namat bo'lib, butun badani tanchalar, ustun o'rinlari uchun ilma-teshik bo'lgan ekan.

Maxzumi tushmagur olarda ko'rmay olgan ekan. Ko'ruvchilar ichaklari uzilguncha kuldilar. Mulla Ostonaqulni mazax qildilar. Tezdan buni bo'yincha bozoriga eltib sotmog'ini maslahat berdilar. Ostonaqulning butun umidlari bir pul bo'lib, bo'yincha bozoriga qarab jo'nadi.

Bo'yincha bozorida namatga qayrilib qaraguvchi topilmadi. Eng oxiri, Ostonaqul bir bo'yinchachiga yalinib-yolvorib, namatni bitta ich bo'yinchaga alishdi va uyga qarab jo'nadi.

Yo'lda Ostonaqulning juda xo'rliigi kelib ketdi. Ko'zidan milt-milt yoshini oqizib, eshikka keldi. Ichkariga kirishga qo'rqib, darvoza yonidagi supachada bo'yinchani bo'yniga ilib, yig'lab o'tirdi. O'g'li — mulla Ostonaqulning bunchalik kech qolganidan xavotir olgan Shoshqol domla ko'chadan xabar olish uchun chiqdi. Qarasa, yo'lakda bo'ynida bo'yincha o'g'ilcha yig'lab o'tiradi.

— Bahay, o'g'il?

Ostonaqul butun bo'lgan voqeani so'zladi. Shoshqol domlaning ko'zi qinidan chiqib ketayozdi. Tutdi — so'kdi, tutdi — so'kdi. Bo'yinchani qo'liga olib:

— Keltirgan bo'yinchang hech bo'lmasa otniki ham emas, eshak bo'yincha, kichikligini qara, xo'tik, — deb g'azab qildi.

Ertasiga «farzandi solih»ni o'z orqasiga solib yetaklab, bir juvozkashga shogird berib keldi.

1930

JO'RABO'ZA

Daryolarning ul yuzida otim yurganu,
Quyushqoni sag'risiga botib yurganu...

Paykalning so'nggi damlari, chaylada yaktakni qiya qilib yotmagan kishi sovuq yeydi.

Tong. Quyosh. Qo'ng'irtepa orqasidan bug'riqib qaraydi. Uning birinchi shu'lalari eng daroz teraklarning uchlarigagina tushadi. Ostida quyuq to'fon. Palak yaproqlari shabnamli, marvarid taqqan qizlarday. Qoraqo'tir qirqma qovunlarning yuzlari terlagan, go'yo shafaq latofatidan sharmisor bo'libdi. Chayla ustiga ishkoni bo'lib yopirilib tushgan suvqovoqlar ana uzilay-mana uzilay deb, osilib turadi.

Polizning bir chekkasiga baland bir yog'ochga o'tkazilgan to'rqovoq bir qimirlab qo'ydi. Ilk sahar nash'asidayoq uyg'ongan xo'roz o'z rafiqlarini ququlab uyg'otdi. Ular to'ppa-to'ppa yerga tusha boshladilar.

Chayla asta tebrandi. Qiya qilib yopilgan yaktakning yuqori tarafi ochildi. Orasidan o'ttizlardan oshar-oshmas bir dehqon yigiti uyg'onib turdi. U boshiga qo'ygan turli katta-kichik tugunchalar orasidan nos shishasini paypaslab topib oldi va kaftini to'lg'azib bir otdi-da, paykalning uzoq burchaklariga qarab, o'ylanib qoldi.

Ahmadqul o'z og'aynilari ichida ulug'i. Uch og'ayni qo'llarida bo'lgan ikki desat yerlarini hamjihatlik bilan ishlaydilar. Bu yil zavodga yozilib paxta, qolganiga bir oz jo'xori bilan kuzgi qirqma qovun ekanlar. Umuman, unum yaxshi.

Ahmadqul o'rin ustida o'ylanib o'ltirar ekan, yaqin o'rtadan birov qichqirib chaqira boshladi:

--- Ahmadqul, hoy, Ahmadqul!

Ahmadqul, «po'p» etib nosini tashladi-da, ovoz kelgan tarafa qaradi.

— Besh qadam joydan hayqirig'ini qara-ya... Kelaver.

— Uyquda bo'lsang, uyg'otay, degan edim-da.

— Qovunlarni uzsammikin, deb o'ylab o'tiribman.

— Be... Zab erinmagansan-da... Ukalarimg' o'lganmi. «Shuni shundoq qil», deb bir og'iz aysang, og'zingning yeli. Kechgacha dunyo to'la ish tayor. Bugun Turvatning bozori. Borib sayil qilib kelamiz.

— Sen, o'rtoq Bo'ta, juda vaqtsiz jo'jalaysan. Ayni yig'im-terim vaqtida sayiling nimasi?

— Yig'im-terim emish, — dedi Bo'ta kinoya bilan, — ota-bobodan ish qolganmi, supraday yering bor-ku, tashvishing miriga besh bog'. Mana men ishlamasdan ochimdan o'lganim yo'q-ku. Davr kelganda taralangni qilsang-chi, lodon.

— O'zing boraver.

Bo'ta Ahmadqulni qaytadan qistamadi, yo'liga qarab ketdi.

* * *

Ahmadqullar qo'rg'onining torgina bir hujrasida milt-milt etib chiroq yonadi. Terimdan qolgan ko'saklarni uch azamat og'ayni o'rtaga qo'yib chuvib o'ltiradilar. Bir tavaqali taxta eshik «g'iyq» etib ochildi. Uch og'ayni yalt etib, keluvchiga qaradilar.

— Assalomalaykum, hormanglar, yigitlar.

— Keling, Bo'taka.

— Sizlarniki qachon qarasa ish ekan-da, bu yil kuzlaring kelib, bitib qoldilaring-ku.

— Ishlamasa bo'ladimi, Bo'taka, shirkatdan, «Bo'nakni qaytar», deb darvozaning turmini buzib yotir, — dedi Ahmadqulning kichik ukasi.

— Qarz qursin, — dedi Bo'ta shikoyatli ohang bilan.

— Bemahalda nima qilib yuribsan? — dedi Ahmadqul.

— Shunday guzarga chiqqan edim, samovarda hech kim yo'q. Bari yigit-yalanglar Madiyorning qo'rg'oniga kirib, o'qib yotganmish. Kirmadim. Odam zerikadi. Bu maxtovi qurg'ur dehqonlarga bir balo bo'ldi. Hech bo'lmasa, qishda qo'ysa-chi...

— Siz bilan meni qishda o'qitmasa, yozda qayerdan topib keladi, mana men ham o'qimoqchiman, — dedi Ahmadqulning o'rtancha ukasi.

Bo'ta ma'noli qilib Ahmadqulga bir tikildi:

— Hammalaring mulla bo'lib ketaversalaring, podani kim boqadi? Men bilan Ahmadqulning o'qimaganimiz ham ma'qul. Ora-sira omiyi benavolar ham bo'lib tursin. Bizning didamiz qotib qolgan, nima deysan, Ahmadqul?

Ahmadqul indamadi. Orani faqat «chirt-chirt» etgan ko'sak ovozigina qopladi. Bir nafasga bo'lgan so'zsizlikni yana Bo'ta buzdi. U hamyon topganlarday hovliqish bilan Ahmadqulni bir turtib:

— Hali, Ahmadqul, xabaring yo'q. Men sening ustingdan kattalik qilib qo'ydim.

— Qanday kattalik?

Yigitlar hammasi ishdan to'xtab, Bo'taga qaradilar. Bo'ta maqtanish aralash g'urur bilan:

— Beshqo'rg'on yigitlari jo'rabo'za qilar ekanlar. Avval o'zim qo'shildim. Ahmadqul ham yigit, u ham bir tan, dedim. Chiqimidan qochsa, o'zim to'layman, dedim. Seni ham ulfat qilib qo'ydim. Ma'qulmi? Qish bo'yi yalla-da, jinni...

— Gap chiqimda emas-ku... — dedi Ahmadqul.

— Akam bo'zaga jo'ra bo'lmaydi, — dedi o'rtanchasi.

— Biz o'qishga ketganda qo'rg'onni poylaydi, — dedi kichigi.

— Voy, lodonlar-ey, — dedi Bo'ta, — akalaring senlarning qorovullaringmi? Axir, yoz bo'yi ishladi, qishda sal ko'kragiga shamol tegsin. Yori-jo'ra orttirsin. Tokay mehnat...

— Bormaydi.

— Borsa, biz xafa bo'lamiz. Zeriksa, kursga olib chiqamiz.

Bo'ta o'spirinlarning gapini elamasdan, ulug'vorlik bilan kuldi:

— Akalaring senlarning so'zlaringdan chiqmaydigan bo'lsa, bekorga belbog' boylab yurgan ekan. Katta boshi bilan kurslaring nimasi, har kim o'ziga munosib ishni qiladi-da, nima deysan, Ahmadqul?

— Ko'ramiz, — dedi Ahmadqul.

* * *

Daryolarning ul yuzida otim yurganu, yor-yor,
Quyushqoni-ya sag'risiga-ya botib yurganu, yor-yor.

Torgina palossiz mehmonxonaning o'rtasiga katta-katta to'nkalardan gulxan yasalgan. Bir to'da badmast qurama yigitlar gulxanni gir aylantirib o'tirib olganlar. Poyma-poy ashulalar. Orada bir chora sig'adigan zarang kosalar aylanib yuradi.

Tashqarida gurs-gurs ot yurgani eshitildi. Mast yigitlar bir nafasga jim bo'ldilar.

— Voy, voy, shu, voy, mening qo'shnim o'zi keldi, -- dedi Bo'ta.

— O'zimi, o'zi-ya, shtrafni katta pichasan, hoy sen biy, hezalakka, — dedi uchitasi.

Shu choqda eshikdan tumog'ini qoqa-qoqa Ahmadqul kirib keldi.

— O'rtanglar to'lsin, yigitlar.

— Voy, sen jovrab qolibsan, ikkita azamat ukang cho'pchak tersin, seni voy, — dedi Bo'ta badmastlik bilan.

— Cho'pchaksiz ham o'tin ko'p, — dedi Ahmadqul.

— Qani, o'zing ham davraga kir, hoy beburd.

— Shtrafingni ayt, biy.

— Ma'qul, — dedi biy, — biylik — uch manak, o'ng otalik — dam olmas, ikki zarang — dam olar.¹

— Kam, shuning o'zi kam, voy, yigit kishiga, — dedi Bo'ta.

— Kammas, — dedi biy.

Ahmadqul kech qolgani uchun uch manak, ikki zarang dam olmas, ikki zarang dam olar bo'za ichishga majbur qilindi. Bo'ta aytgancha, «yigit kishi» «ichmayman» demadi. Uch manakni osonlik bilan ichdi. Ikki zarang dam olmasning birini zo'r bilan ichdi. Ikkinchisining yarmiga borganda ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Gulxanga qarab ichganlarining barisini tashladi. Mast yigitlar o'rtasida chuvvos ko'tarildi:

— Hezalak.

— Ko'tara olmasang ulfatga qo'shilma-da.

Biy g'azablandi. Ahmadqulga darra urdilar. Yana shtraf, yana navbat kosa, uzluksiz ichmoqdalar. Nordon, taxir, bo'tana oqishoq zardobi qorinlarni qappaytirmoqda, boshlarni qizitmoqda, o'rtadagi katta chora bo'shar-bo'shamas, katta xumdan kir bo'z belbog'lar orqali suzib o'tkazmoqdalar.

Tashqarida hech kimdan hadiksiz yaydoq izg'iriq hukmron. O'z zo'ravonligini yalang'och daraxtlarga ko'rsatadi.

Bir xo'roz, ikki xo'roz, uch xo'roz qichqirib o'tdi. Allaqaylarda itlarning qayg'uli hurishlari...

Soyasi yupqaroq yigitlar uchib qoldilar. Qolganlari yarim-yorti o'tdan cho'qilab, bo'tdan cho'qilab alyor aytmoqdalar.

Bo'ta Ahmadqulning gardaniga osilgan, ho'ng-ho'ng yig'laydi:

— Voy, uka, men g'aribman-a, sendan boshqa hech kimim yo'q-a...

— Obidiyda qilma, oy yigit, — deb jerkadi biy.

— Hech kimim yo'q-a...

Biy yana tetik Bo'taga qarab:

— Obidiyda qilma, oy yigit, — deb jerkadi.

¹ Jo'rabo'za ulfatchilik qoidasida ulfatlar o'rtasidan uch kishi ulug' saylanadi. Bularning eng martabalisi jo'raboshi — biy bo'ladi. Qolgan ikkisi biyning vazirlari — o'ng otalik, so'l otalik bo'ladi. Butun ulfatchilik muddatida hamma shularning amriga itoat qilishga majbur bo'ladi. (*Muallif eskartishi*).

Yana ichadilar, olam-jahon achimsiq hid. Bu ham yetmaganiday, bir sasib, bir yonib yotgan gulxanni puflab qo'yadigan esli kishi yo'q. Ko'zlarni yoshlatadigan achchiq tutun burqiydi.

Ahmadqul suzilib borayotgan ko'zlarini bir marta katta qilib ochdi. Bo'taning qo'lini yelkasidan olib tashladi, sandirag'lab, o'rnidan turdi. Chordanada uvushgan oyog'ini uqalab:

— Hoy biy, sen meni, sen biy bo'ladigan bo'lsang, top mening o'ng oyog'imni, topmaysanmi-ya, ol kerak bo'lsa bunisini ham, menga oyoq kerak emas, hoy biy. Men ketdim, — dedi va eshikka qarab yo'l oldi.

Ahmadqulning baridan hech kim ushlamadi. Faqat orqasidan mastlik g'o'ldirashlari ko'tarildi.

— Oti asov edi yigitning, — dedi birisi.

Mehmonxona orqasidan otning shataloq otib qo'zg'algani bilindi. Ichkarida yana badmast zavq:

— Choviga sava, azamat, harom o'lgurni, — deb qoldi.

Erta bilan qo'rg'on darvozasini Ahmadqulning o'rtancha ukasi ochdi. Ne ko'z bilan ko'rsin, to'riq otning ustida hech kim yo'q. Tizgini yerga tushgan. Bo'ktargi yechiq, ayil bo'shagan, darvoza turmida suvliq chaynab turadi. Yuragi shuv etib ketdi. Otning yuganidan tutdi. Kichik ukasini chaqirdi.

— Misa, bu yoqqa qara, akam yo'q. To'riq yaydoq kelgan...

Aka-uka sovuqda yalang bosh, yalang oyoq otni tekshira boshladilar. O'ng tarafdagi uzangida Ahmadqulning bir poy etigi osilib kelibdi.

O'spirinlar bir-birlariga qarab, termilib qoldilar. Bo'g'izlariga allanechuk narsa qadalganday, so'zsiz edilar.

— Bu akamning etigi-ki, — dedi Misa iztirob bilan. Baravariga yig'lab yubordilar. Atrof qo'shni dehqonlarga yugurdilar. Bir nafasda «Ahmadqulni ot yiqitgan, o'zi yo'q», dovrug'i olamni bosdi. O'n-o'n beshlab dehqonlar to'riq otizidan otliqmi-yayov keta boshladilar. Bular Qo'ng'iroqtepaning yonboshiga borganlarida, ko'pchilikning sharpasiga bir nimaga uymalashib yotgan bir gala qarg'alar

gurr etib uchdi. Oldingi o'ng oyog'i oqsoq sariq bir ko'ppak hadik olib qir tepasiga qochdi.

Yig'ilishib, qarg'alar uymalashgan yerga bordilar. Unda, ot tuyog'iga ichak-ro'dalari ag'darilgan, afti angori cho'qilgan, timdalangan, boshi majaqlangan, choponlari burda-burda, o'ng oyog'i yalong'och Ahmadqulning badani — sovugan murdasi yotar edi.

Yonida siniq nos shisha, yerga sochilgan ikkita bir mirili chaqa, bitta uch mirili tanga bilan...

1929

CHORASI KO'RILDI

(Apparatni tozalash munosabati bilan)

Hammaga ma'lum va mashhurdirki, soliq idoralari o'z ishlarini nechog'liq puxta va pishqlik bilan bajaradilar. Har qanday anglashilmovchilik va sargardonliklarga yo'l qo'ymaslik uchun, o'z apparatlarini ixchamlaganlar. Ularning eng kichik sho'balarida ham bir necha o'nlab xizmatchilar — mudirlar, kotiblar, agentlar ishlaydi. Toki, ishi tushib kelgan kishi o'z ishini qanchalik tezlik va puxtalik bilan bajarganligini bilib qoyil bo'lib ketsin.

Apparatdagi puxtaliklardan bir necha namunalar. Masalan: qishloqlarga, soliq ro'yxati uchun chiqqan agentlardan biri Rahmat Hikmat o'g'lining xo'jaligini ro'yxatga oldi. Qalamning kurtligi, pichoq yo'qligi, ishning tig'izligi, qog'ozning g'udurligi, qishloqlarda hadeganda stol-stul topilmay yoziladigan narsa patnis orqasida yozilganligi va bularning ustiga bir qancha o'zidan bo'lmagan sabablar orqasida Rahmat Hikmat degan so'z ianiqroq yozilmadi, o'qishga qiyinlik keltirdi. Bunday hodisalarda bosh idoradagi ixchamlanganlar ikkilanib o'tirmay, ularda mavjudiyatlar bo'lmasa ham, har ehtimolga qarshi, bir necha kishilarning nomlariga soliq varaqalari yoza boshladilar. Masalan: Ahmad Sunnat o'g'li, Zinnat Rahmat o'g'li, Hikmat Ne'mat o'g'li, Barakat Falakat o'g'li, Ahmad Savlat o'g'li va hokazo...

Shuning singari bir soliq ro'yxatlarini tuzuvchi agent qishloqning oti bo'lgan «Qo'shqo'rg'on» so'zini aniqlik yozmadi. Soliq idoralari yana ikkilanib o'tirmay, bir necha

qishloqlarga soliq varaqalari yoza boshladilar. Masalan: Qo'shqo'rg'on, Go'shtqo'rg'on, Esxirmon, Misqumg'on, Bo'shto'g'on, Mushyo'g'on va boshqa qishloqlar.

Bu tajriba g'oyat ma'qul bo'lgani kabi, soliqlarning biridan bo'lmasa biridan unishiga imkoniyat tug'diradi.

Bekobod qishlog'iga chiqqan soliq ro'yxatchilaridan biri mushtumzo'r Ibay Zafarovga individual soliq solinmoqni lozim topib ro'yxatga oldi. Yuqorida aytilganlarday bir qancha o'zidan bo'lmagan sabablar orqasida, soliq varaqasi Beshrabot qishloqlik yangi ro'zg'or Ubay Zufarov nomiga keldi.

Albatta, Ubay qarab o'tiradimi? Qishloq batraklaridan bir nechalarini guvoh qilib, o'zining yakka ro'zg'or ekanini, xo'jaligi yakka holda soliq to'lash qobiliyatiga ega bo'lmaganini, soliq varaqasi uning nomiga yanglish yozilganini birma-bir bayon qilib ariza yozdirib rayon ijroqo'miga topshirdi. Zamonlar o'tdi, soliq undiruvchilar tiqilinchdan to'xtamadilar.

Ubay so'nggi gal rayon ijroqo'miga borganda, «Arizangizni tekshirib, chorasini ko'rish uchun, Beshrabot qishloq sho'rosiga yubordik», deb javob qaytardilar. Ubay «chora ko'rilishini» kutib yana bir necha zamon sabr qildi.

Beshrabot qishloq sho'rosiga Ubayning arizasi ustiga qizil siyoh bilan «Chorasi ko'rilsin» degan rezolyutsiya qo'ygan holda havola qilingan edi.

Beshrabot qishloq sho'rosida ham ish halqumdan. Arizaning hammasini o'qib chiqishga vaqt yo'q. Binobarin, faqat rezolyutsiyagina o'qildi va rayon ijroqo'midan bo'lgan buyruqqa asosan ish ko'rishga majbur bo'ldilar. Qishloq sho'rosi o'z yoniga ikki nafar yigitni (militsiya o'rnida) olib, tikka Ubayning qo'rg'oniga bosib bordilar. Va hech narsadan hech narsa yo'q, qo'rg'onga kirib tintuv boshladilar.

Ubay voqeadan xabarsiz. «Biror gunoh qilgan bo'lsam kerak», deb hayron edi.

Tintuvchilarning ko'ziga hech qanday chora ko'rilmagan edi shekilli, qaytib ketdilar va rayon sho'rosidan kelgan arizaning ustiga zangor siyoh bilan «Ijro qilindi va hech qanday chorasi yo'qligi aniqlandi, axborotingiz uchun», deb rezolyutsiya qo'ydilar. Ariza rayon sho'rosiga qaytib bordi va ishga tikildi.

Shu choqqacha dom-daraksiz qolib ketgan arizasi to'g'risida Ubay ancha ranjigan edi. Qaytadan ariza yozdirib, rayon sho'rosiga bordi. Unda Ubayga qarab:

— Siz soliqni to'laysiz, qishloq sho'rosining bergan ma'lumotiga qaraganda chora yo'q ekan, — dedilar. Ubay yalindi-yolvordi. Qishloqning o'n-o'n besh batraklari tarafidan kambag'alligi, yangi ro'zg'orligi, soliq to'lay olmasligi uchun qo'yilgan qo'llarni ko'rsatdi. Rayon ijroqo'midagilar hayron qoldilar. Yana «Bizdan nima ketayotir», deb ariza ustiga yangidan: «Sizga qat'iy taklif qilinadi, tezdan Ubay Zufarovning chorasi ko'rilsin», deb rezolyutsiya qo'yidilar va qishloq sho'rosiga yubordilar.

Beshrabot qishloq sho'rosidagilar, rayon sho'rosidagilarning to'raligidan, quyi apparatning ishi bilan hisoblashmaganlaridan koyidi, yana shunday bo'lsa ham «Sazalari o'lmasin» deb, yigitlari bilan Ubayning qo'rg'oniga bordilar. Bu gal juda diqqat bilan tekshirdilar. Hatto, tovuq katagigacha qolmadi. Yarim soatlarga cho'zilgan tekshirishdan so'ng, bir yigit og'ilxonadan turib qichqira boshladi:

— O'rtoqlar, hoy o'rtoqlar, bu yoqqa qaranglar, chora bu yerda ekan, mana!

Hammalari yugurib bordilar. O'rta chorani olib tekshira boshladilar.

Qishloq sho'rosi yigitlarga qarab:

— Yigitlar, — dedi, — otga o'ngarib olingiz.

Ubay: «Bu tashlandiq buyum-ku, bularga nimaga kerak bo'ldi ekan?» deb hayron edi. Yigitlar chorani otga o'ngarib, qishloq sho'rosiga keltirdilar. Yana qayta boshdan tekshirdilar va rayon ijroqo'midan kelgan qog'ozning ustiga: «Ijro qilindi, Ubay Zufarovning chorasi ko'rildi. Chora aytaturgan yaxshi choralardan emas. Bir put, bir yarim put oqshoq eltaturgan, kunjaradan bo'lgan eski chora ekan, axborotingiz uchun bizda saqlanadi», deb rezolyutsiya qo'yidilar va rayon sho'rosiga yubordilar.

Tasodif ko'p yomon narsa, qishloq sho'rosining shunchalik jonkuyarlik bilan qilgan harakatlari havoga uchdi. Ubayning arizasi ustiga beqasam to'n kiygan rezolyutsiyalari bilan rayon sho'rosini tekshirishga kelgan ishchilar brigadasining qo'liga tushdi. Ular ariza yuzasidan boshqacharoq chora ko'ra

boshladilar. Shundayki, rayon sho'rosidan tortib, qishloq sho'rosigacha, rayon soliq idorasidan tortib, ayrim soliq ro'yxatchilarigacha choralari ko'rildi. Natijada rayon sho'rosining ish boshqaruvchisiga «hayf senga» berildi, qishloq sho'rosining raisi yotlardan bo'lgani aniqlanib, ishdan olindi. Soliq idorasining kotibi sudga berildi. Ubay Zufarov soliqdan ozod qilinib, varaqaning haqiqiy egasi Ibay Zafarovdan soliq undirildi va kunjaradan bo'lgan chora bo'lsa, egasining roziligi bilan sansalorlik ko'rgazmasiga xotira uchun olindi.

1930

KIM AYBDOR?

Madmisaning boshiga kelgan falokatlarining boshlanishi Aris stansiyasidan o'tgandan so'ng bo'ldi.

Poyezd bilan safarga chiqqan kishilarning barisi ham ko'rgandirlarki, vagonlarning ichida bir necha yerga Vestingauz tormozining ruchkalari qo'yilgan bo'ladi. Bu yo'g'onroq kelgan bir yarim metr chamasi uzunligidagi trubadan iborat bo'lib, yuqori qismi qizilga bo'yalgan va bir ruchka (tutqi) bilan tutashtirilgan, tutqi bilan truba plombalangan (pechatlangan) bo'ladi va shu trubaning tepasiga ko'zga ko'rinarli qilib: «Biror falokat ro'y berib poyezdni to'xtatish kerak bo'lib qolsa, shu ruchkani pastga qarab torting», deb yozilgan bo'ladi.

Madmisa o'z xonasidagi o'zga yo'lovchilar bilan kechasi soat birlargacha suhbatlashib bordi. Yo'l uzoq, bisotdagi gaplar har qancha bo'lgani bilan gapirisha bersangiz tugaydi. Ermak talab qilib qoladi kishi. Hamrohlar unga shaxmat o'ynashni taklif qilgan edilar, bilmasligini e'lon qildi. Kartadan ham biladigan o'yini «parlab tashlash — durak» bo'lganligidan, bu ham ermak o'rniga o'tmadi. Chor-nochor hammalari ham uyquni tusab qoldilar.

Qorong'i va jimjit kecha. Yo'lovchilarning barisi ham uyquda, yostig'i past qo'yilgan yoxud noqulay yonboshlab qolgan kishilarning xurragi, ahyon-ahyonda yo'lovchilarni kuzatib yurgan provodniklarning etigi polga urilib chiqqan, taraq-turuqdan boshqa ovoz yo'q.

Tashqarida poyezd shaxt chopmoqda. Iz ustida to'xtamay aylanib turgan vagon g'ildiraklarining «Taq-tuq, tuq-tuq,

taq-tuq» ovozi poyezd tagidan qo'pollanib, o'tmaslanib muntazam oqmoqda.

Yo'lovchilarning ko'kraklari manzilga yetib borish ishtiyoqi bilan asta ko'tarilib qo'yimoqda.

Oradan ikki soat o'tgandan so'ng parovoz uch topqir ketma-ket gudok chalib, yurishini sekinlatdi, ayrim vagonlar ham unga itoat qildilar va yuraklarida siqilib qolgan havoni charchaganlarday «ux» deb cho'zibgina chiqardi-da, to'xtadi.

Hali stansiya uzoq. To'xtalgan yer biyday dala, buning ustiga parovoz falokat signalini berdi. Uyg'oqlar o'rtasida hayajon ko'tarildi. Bu hayajon uyqudagilar o'rtasiga cho'kib, yuqib va borgan sayin kengayib bormoqda edi. Provodniklar shoshgan, vagonlar ichida rango-rang fonuslarni ko'tarib chopmoqdalar.

— Katta falokat bor...

— Bosqinchilar sostavga hujum qilibdilar.

— Parovoz odam bosibdi...

— Izni o'g'rilar ko'tarib tashlabdilar.

— Qarshi tarafdin poyezd kelmoqda ekan, to'qinish bo'lishiga sal qolibdi...

Yo'lovchilar o'rtasida bir-biroviga hech bog'lanmagan va hech birisi ham to'g'ri bo'lmagan yuqoridagiday vahimalar cho'kkan edi.

Natija ma'lum bo'ldi. Yo'lovchilardan kimdir vagon ichidagi Vestingauz tormozining ruchkasini pastga tortib yuboribdi. Sho'rlik kim ekan, qanday falokat uni poyezdni to'xtatishga majbur qildi ekan?

Tekshirish ketdi...

Topdilar. Madmisa platskartasi bo'yicha yuqori polkada shuncha to'polon va hayajonlardan bebahra oyoqlarini ozod uzatgan, xurakni bashang qo'yib uxlab yotar edi. Provodnik va bosh konduktor, bir guruh uymalashgan yo'lovchilar Madmisani turtib uyg'otdilar. U ko'zini ochib, boshiga yig'ilgan olomonga olazarak bo'lib qaradi va xayolidan: «Meni xudo urib qopdi, kisavur shilib ketibdi», degan qo'rquv o'tdi, darrov cho'ntak va yonlarini paypaslay boshladi. Hammayoq joyida. Bas, bu olomon nega yig'ildi ekan?

— Nega tormozni pastga tortdingiz? — deb so'radi bosh konduktor.

– Qanday tormozni?

– Qanday tormozni bo'lar edi, nega sostavni to'xtatdingiz?

– Sostavni to'xtatdingiz?! – deb sarosimalik bilan konduktorning ko'zlariga tikildi Madmisa. Konduktor shtraf daftarchasini chiqarib, provodnikning tutib turgan chirog'i yordamida yoza boshladi.

– Ismingiz?

– Madmisa.

– Familiyangiz?

– Ma'disa.

– Yigirma besh so'm cho'zing! – deb amrona buyruq berdi konduktor. Madmisaning hangu mangligi yana oshib, haligina osoyishta bo'lmagan uyquning iliq quchog'ida bir-biriga bog'lanib yetmagan tushlarni ko'rib turgan ko'zlari bir juft g'ayni olxo'riday qinlaridan chiqib ketayozdi.

– Nega axir? Yigirma besh so'm bermoq, mening gunohim nima?

– Gunohingizni keyin aytib beramiz. Siz hozir yigirma besh so'm beraveringiz. Poyezdni yana ushlab turmang. Agar qarshilik qiladigan bo'lsangiz, shaxsiy guvohnomangizni berib, mening orqamdan yuring, ana shunda bilasizki, sababsiz tormozga qo'l tegizishning yigirma besh so'mdan tashqari namunali sudi ham borligini.

O'zga yo'lovchilar o'rtaga tushdilar. Madmisadan yigirma besh so'm shtrafni tortib olganday undirdilar. Konduktor pulni olib kvitansiya bergach, yo'lakka chiqib hushtak berdi. Poyezd qo'zg'alib ketdi.

Oradan sal o'tgach, provodnik kelib, tormozni ilgarigiday qilib, qaytadan plombalab qo'ydi va Madmisaga qarab, tormozni ko'rsatib:

– Bunga tegish yaramaydi. Biror falokat bo'lib qolsa, unda yo'li boshqa, – deb nasihat qila boshladi.

Bir jihatdan yigirma besh so'mning alami, boshqa jihatdan ko'pchilikdan uyalish orqasida ortiq Madmisani uyqu olmadi. Ayniqsa yuqori polkaga chiqib yotganda, yana birinchisi kabi, bilmasdan tormoz qulog'ini bosib yuborish ehtimoli uni qo'rqitar, yigirma besh so'm naqd aqchani qo'lidan chiquviga sabab bo'lgan bu ishkali murvatga yana bir qayta

yo'lagali yuragi dov bermas edi. Past polkadagi hamroh-larning birisiga iltimos qilib joyni almashtirdi va azongacha mijja qoqmay shu arzimagan tormoz tutqisini pastga tortish bilan kami yigirma beshta vagonni sudrab ketayotgan kuchli parovozning to'xtab qoluviga aql yugurtirar va bu ishga ishonmas edi.

Erta bilan o'zga yo'lovchilar texnikaning bu shoxobchasini tushuntirdilar.

U Moskvada oddiy nomerlardan birisida qo'ndi. Ulug' shahar. Bir yerni yoxud birovni qidirib topish qiyin. Har bir ko'ringan yangilikka ag'rayib, Moskva ko'chalarida ikki kun yurdi. Bu orada ro'y bergan qiziq ishlarning birisi erda bilan adashgancha kech soat to'qqizda, o'shanda ham militsiya yordami bilan nomerga qaytishi bo'lgan edi.

Uchinchi kun u o'zining hammomga tushishga mayl qilganini sezdi. Nomer xizmatchisidan bu yaqin orada qayerda hammom borligini so'radi. Nomer xizmatchisi nomerning o'zida issiq vanna — kichik mo'rcha borligini bildirib, kerak bo'lgan taqdirda tayyor ekanini e'lon qildi.

Madmisa nomer mo'rchasiga tushdi.

Yaxshi, pokiza, issiq. Vannaga suv buradi (muvratni bir talay timirskilash orqasida topib oldi). Vannaga quyilgan issiq suvning harorati bilan mo'rcha yana qizib, rohatijonga aylanib bormoqda edi. Muddaodagiday cho'mildi, vannaga ikki qaytadan tushdi.

Artindi, kiyindi, galstugini mo'rcha oynasida po'rim qilib bog'lab ham oldi. Kirlarini tugib, eshikka bordi. Faqat... eshik ochilmaydi...

Toza urindi. Eshikda bo'lgan hamma murtigardonlarni tekshirib chiqdi. Falokat... eshik ochilmaydi. Bir tarafdin mo'rchaning issiq va bug'langan havosi dimiqtirmoqda.

Chorak soat qiynaldi — ochilmadi. Noiloj qolib, mushtlarini tugib, bor kuchi bilan eshikni ura boshladi va qichqirdi. Nomer xizmatchilari kelib, orqa tarafdin so'rasha boshladilar:

— Nima gap, nima falokat yuz berdi?

— Yordam qilingiz, eshik ochilmayotir, bo'g'ilib o'layozdim.

Orqa tarafdin ayollar hirlinglashi eshitildi:

– Nega ochilmasin, ochiladi.

– Axir ochilmaydi, hazillashmang, kishining ustidan qulflab qo‘yasiz-da, tag‘in undan kulasiz.

– Yigit, – dedi orqa tarafdin birisi kulgi aralash, – siz balki vannadagi iste‘mol qilingan suvni bo‘shatmagan va jo‘mrakni burab qo‘ymagandirsiz.

Madmisa orqasiga – mo‘rcha ichiga qaradi. Darhaqiqat, jo‘mrakdan suv oqib yotir, vannada iflos suv. Vannaning tubini ochdi. Jo‘mrakni burab qo‘ydi. Qaytib eshikka keldi, itarib ko‘rdi, eshik ochiq.

Eshikning ochiluvini mo‘rcha ichini ozoda saqlanuvini uchun aloqador qilib ishlagan ekanlar yangi zamon ustalari, mana sizga texnika!

Madmisa bir jihati, mo‘rchaning qaynoq havosidan bo‘g‘riqqan, bir jihati, shu oddiy narsani ham bilmovidan nomer xizmatchilarining kulishlaridan uyalib, bo‘rtib ketgan holda o‘z xonasiga boshini yerga solib kirib ketganicha. kechgacha o‘ralib yotdi.

Ertasiga u Moskvada allaqachonlardan buyon o‘qib yurgan bir o‘rtog‘ini topmoqchi bo‘lib qoldi. Faqat adresini bilmaydi.

Nima qilish kerak?

Nomer xizmatchilarining birisidan:

– Bu yerda o‘zbek o‘quvchilari bormi? – deb so‘ragan edi. «Bor» degan javobni oldi.

– Ular qayerda turadilar? – deb so‘ragan edi:

– Moskvada o‘zbeklardan ko‘pi yo‘q. Men adresniy stol emasmani, kim ko‘ringanning turar joyini bilaversam, – degan dag‘al muomalaga yo‘liqdi. Biroq, bu galcha ham obro‘ ketsa ketar, degan o‘y bilan:

– A, adresniy stol qayerda bo‘ladi? – deb so‘nggi so‘rog‘ini berdi.

– Nahotki siz hech nimani bilmaysiz, adresniy stolning bo‘limchalari shaharning har muyulishida bor. Ana shundoq ko‘chaga chiqqaningizda ro‘paradagi budka ham uning bo‘limchasi.

Madmisa ko‘chaga chiqib, xizmatchining nishon bergani budkaga yo‘liqdi va qidirib yurgani kishisining ismini aytib, qayerda turuvini so‘radi.

Besh minutga ham qolmay bitta qog'ozni yozib berdilar: «Proletar rayon, Pushkin ko'chasi, 43-uy, 11-qavat, 2-korpus, 96-xona».

— Ana endi topib ol, — dedi o'z-o'ziga ta'na bilan Madmisa. — Baribir o'zim topolmayman, biror kirakash izvosh bo'lsa ma'qul kelar edi.

Shu orada budka oldida bir avtomobil to'xtab, ichidan bir kishi tushdi-da, shoferga pul berib, uzoqlashdi, demak, kirakash avtomobil.

Madmisa avtomobil yoniga yaqinlashib, shofer bilan gapirisha boshladi:

— Proletar rayon, Pushkin ko'chasiga qancha olasan?

— Qaytasanmi ham?

— Bali.

— Uzoq kutmaymanmi?

— Unchalik uzoq emas.

— Qani tush bo'lmasa, qancha yurganingga qarab to'lay berasan.

— Eha, — dedi Madmisa, — yurganingga qarab to'lay berasanki, ko'chaga tashlab qo'ygan karmon bormi, hozir bayini qilmasak, birpas turib, falon pul berasan, deb o'tirsang, o'ramizda janjal chiqsa, bunga kimning tobi bor. Puxta qil, o'rtoq.

Shofer kuldi.

— Xavotirlanma, sendan ortiq olmaymiz, bu taksomotor.

— Taksasi qanchadan?

— Sifri o'n tiyin.

— Sifring nimasi?

— Ajoyib odam, — dedi shofer istehzo bilan, — axir mana bu avtomat qancha yurganimizni va qancha kutganimizni o'lchab turadi. Shunga qarab to'laysan-da, — dedi avtomobil yonboshidagi masofa avtomatini ko'rsatib. Madmisa bu avtomat va uning xo'jayini shoferga ishonib-ishonmaslik bir tarzda avtomobilga chiqib o'tirdi. Ichidan: «Shopir ranjitmasa bo'lgani», deb borar edi. Shofer so'radi:

— Nechanchi uy?

— 43.

Bir damda yetib keldilar. Avtomobil to'xtadi. Madmisa ko'kka yag'rin berib yotgan bu baland imoratning katta darvozasidan ichkariga kirdi.

«Hali o'n birinchi qavatga chiqish kerak-a, biron yuz zinapoya bosarman», degan o'y bilan zinani qidirib, ko'zini jalanglatib turgan edi, imorat eshigida turgan darvozabon unga yaqinlashib so'ray boshladi:

- Nechanchi qavatga chiqasiz?
- O'n birinchi.
- Bo'lmasa nega qarab turasiz, qani, liftga o'tirmaysizmi?

Madmisa «Lift nimasi?» deb so'rashga ham ulgura olmadi, darvozabon uni boshlab, bir kichik hujraga qamadi. Hujrada Madmisadan tashqari yana bir xotin ham bor edi. Madmisa xotindan ba'zi narsalarni so'rashga endigina og'zini juftlagan ham ediki, xotin hujra devoridagi qator tugmachalardan birisini bosdi va muammo hujra Madmisaning qo'rquv va taajjubiga qarshi «viz» etib yuqoriga ko'tarilib ketdi.

Madmisaning yuzida bir qari bo'z bittanga deyarli darajada qaliq paydo bo'lgan edi. Tomog'i qurib, lablari yelimlanib qolgan. Xotindan bir nima so'rashga ham tili bormas edi.

Hujra to'xtadi. Xotin eshikni ochib, chiqib keta boshladi. Madmisa xotinning bariga mahkam yopishdi.

- To'xtang, endi men nima qilaman?
- Sizga nima kerak?
- Axir, men o'n birinchi qavatga chiqmoqchiman-ku?

Bu yerning o'zi qayer.

– Bu hali sakkizinchi qavat, – dedi xotin, – yuqoriga chiqish uchun tugmalardan keragini bosing!

– Jon opa, buni bilmayman, menga yordam qiling.

– Uyimda erim kasal, meni ushlamang, nahotki shuni ham bilmaysiz, – dedi-da, xotin hujra eshigini yopib, jo'nab qoldi.

Madmisani qo'rquv aralash muammolik o'rab oldi va qaltiragan barmoqlari bilan tugmalardan ro'baro' kelgan allaqaysi birini bosib yubordi. Hujra yuqoriga ko'tarilish o'rniga quyiga qarab, sur'at bilan tushib bormoqda edi. Madmisa shoshib yana bir tugmani bosdi. Hujra yarim yo'lda to'xtab, yana yuqoriga qarab ko'tarila boshladi.

Qayerga bormoqda? Bunisi endi tavakkallik ish edi.

Hujraning tepasi oxirgi tomga yetib, bir nimaga tegdi-da, pastga tisarildi. Yana ko'tarildi, yana bir nimaga tegib tisarildi, yana, yana...

Liftning umumiy tugmasi bosilgan bo'lib, davomli elektr toki unga ta'sir qilib turganidan, u shu qabilda zovta bilan bir quyi, bir yuqoriga qarab borib kelishda davom qilmoqda edi.

Madmisa yaxlit o'limning qayda ekanini ortiq tushundi, bir-ikki bor o'n to'rtinchi, oxirgi qavat bilan o'n ikkinchi qavat o'rtasida borib-kelib yurgan liftning ichida bor kuchi bilan: «Yordam beringiz, yordam beringiz!» deya qichqirdida, hushidan ketib qoldi. Lift darvozaboni eng ilgari liftning borib-keluvini, birorta ermaktalabning o'yini bo'lsa kerak, deb o'ylagan bo'lsa ham, davomli bu «o'yin» uni taajjubga solgan va oxirini kutib turmoqda edi. Lift ichidan ivir-shivir quloqqa eshitilgan «yordam beringiz»dan so'ng, pastki vklyuchateldan liftni pastga tushirib oldi.

Eshikni ochdilar. Boyagi Madmisa ko'rindi, behush yotardi.

Chalqanchasiga yotqizib, sun'iy nafas oldirdilar, yuziga suv sepdilar, talaydan so'ng yigit o'ziga kelib, ko'zini ochdi.

Darvozabon kamoli hayrat bilan uning chehrasiga telmirar edi.

— Sizga nima bo'ldi?

Madmisa bir qo'lini ko'kragiga qo'yib, boshini bir tarafga ta'zim bilan qiyshaytirdi. Javob berdi. Darvozabon so'radi:

— Kerakli joyga chiqa oldingizmi?

Madmisa bosh chayqab, «yo'q» ishoratini qildi.

— Olib chiqib qo'yaymi?

Madmisa yana bosh chayqab, «Yo'q», dedi.

— Ketasizmi?

Madmisa bu gal boshini ilgariga chayqab, «ha» ishorasini qildi. Darvozabon uning qo'ltig'iga kirib, ko'chaga olib chiqdi va kutib turgan taksomotor (avtomobil)ga tushishga yordam berdi. Shofer haligina sog' kirib ketgan yo'lovchining dabdurustdan bu holga tushib qolganiga taajjublanib, darvozabonga qaradi:

— Nima gap? Nima hodisa bo'ldi?

Darvozabon tundlik bilan shoferga:

— Nima gap bo'lar edi, texnika-da, — degan javobni aytdi. Shofer darvozabonning «texnika-da», degan javobidan bir narsa anglamagan bo'lsa ham, vaqtni o'tkazmay mashinani yurgiza boshladi va Madmisaga qarab:

– Endi qayerga, skoriy pomoshgami? – deb so‘radi.

Madmisa halqumiga tiqilib yotgan nafasini arang yutdida, yerning ostidan kelayotganday sekin g‘o‘ldirash bilan javob berdi:

– Avval «Pobeda» mehmonxonasiga, u yerda men yuklarimni yig‘ishtirib chiqaman, innaykeyin vokzalga...

Madmisaning Moskvadan kelganiga bir oy o‘tib ketgandan so‘ng, u eski qadrdonim bilan suhbatlashish ishtiyoqida uyiga bordim. Yangi ishga kiribdi. Ishdan endi qaytib, yuvinib turgan ekan.

Moskva xotiralarini so‘ylaydi:

– Texnikani egallamasang, afsona bo‘luving aniq ekan, men endi texnikani egallashga o‘z-o‘zimga so‘z berdim, texnicheskiy masterskoyga kirib ishlamoqdaman, mening Moskvada kulgi bo‘lib qoluvimga texnikani bilmasligim aybdor, – dedi.

– To‘g‘ri, – dedim men.

1932

TO‘RT HANGOMA

Birinchi hangoma

Kolxoz kassiri Mamarayim akaga olti ming ikki yuz o‘n uch so‘m yetmish ikki tiyin mehnat daromadini berib turib so‘radi:

– Xo‘sh, Mamarayim aka, o‘rinlatib mehnatni ham qildingiz, sharaqlatib chervonni ham oldingiz, endi bu pullarga nimalar qilmoqchisiz?

– Ro‘zg‘or kerak-yarog‘larini butlaymiz, ona-bolali ikki sigir bilan to‘rt qo‘y eski otxonada siqilib yotibdi, ana shularga atab birorta durustroq og‘ilxona yopamiz, qolganini egilik kunlar uchun saqlaymiz.

– Albatta endi omonat kassada saqlarsiz?

– He-he, – deb kuldi Mamarayim, – shukur, o‘zimiz ham ancha sarishtalik odammiz, innaykeyin yangangiz bir oz g‘ashroq, omonat kassaga qatnay bersam, kassir qizga rashk qiladi, uy-ro‘zg‘orning tinch bo‘lgani ma‘qul.

– Har qancha sarishtalik bo'lganingizda ham omonat kassa bo'la olmasmiz.

– Ko'rarmiz-da, – deb Mamarayim aka bosar-tusarini bilmay chiqib ketdi.

O'zi aytganday, uy-ro'zg'or kerak-yarog'larini butladi. Og'ilxona ham solib oldi. Hamma ishdan ortib, qo'lda shaldiragan ikki ming bir yuz so'lkavoy ham qoldi. Mamarayim bu pulni selpoga chiqib, nuqul ko'kavoy yuztalik qilib, yiriklab oldi. Xo'sh, buni endi qanday saqlash kerak? Omonat kassada kassir xotin mojarosi bor. Uyda bo'lsa xotin. Xotin degan o'sma-tasma bilan zeb-ziynatga o'ch bo'ladi, xarajat qilib qo'yishi mumkin. Sekin borib eski otxonaning devoridagi bitta qoziqni sug'urdi. Qoziqning o'rniga pulni yashirib, ustidan yana qoziqni tiqib qo'ydi. «Bu yer o'g'ri tugul, shaytonning ham esiga kelmaydi», dedi va o'z aqliga o'zi tan berib, iljayib qo'ydi.

Kunlardan bir kuni xotini otxonaga kirdi-da, haligi qoziqqa eski bo'yinchani osmoqchi bo'ldi, qoziq turmadi. Xotin ham o'ylab-netib turmay, bir palyon sarjin bilan qoziqni mahkamlab qoqdi. U ham o'z kuchi va donoligiga tan berib chiqib ketdi...

Mamarayim aka, selpoga bobrik chakmon kelibdi, deb eshitib qoldi. Albatta bittasini olish kerak. Yugurgilab otxonaga kirdi. Qoziqni tortib chiqara olmadi, tortdi – chiqarolmadi, yuragi «shuv» etib, chopgancha ko'chaga chiqdi. Otxona devorini sirtidan tekshira boshladi, qarasaki, qoziq bir qarichcha ko'chaga chiqib yotibdi. Qoziqning uchida yirtilib ketgan yarimta ko'kavoy yuztalik...

Bu hikoyani eshitgan Mahamat Oqil kulvordi.

Ikkinchi hangoma

Hayvon degancha bor. Hayvonlarning ichida yana ham hayvonrog'i sigir bo'lar ekan. Agar hayvonlar bir-birovlaridan koyinmoqchi bo'lsalar, «sigir» desalar ham bo'laveradi. Bo'lmasa, axir o'zingiz ayting, pul bilan xazonni ajrata olmaydimi?

Qovulnazar, «Pulingizni omonat kassaga qo'ying», deganlarni sergap, bemaza odamlar, deb o'ylagan edi. «Pul

topgan odam saqlashni ham biladi», degan edi. Unchamuncha ham emas, uch yarim ming so'mni guldor satinga tugib, kuzakda to'plangan xazonga yashirgan edi. O'z donoligidan o'zi minnatdor bo'lib, yo'talib ham qo'ygan edi.

Bir kun nima bo'ldiyu qovun pishig'ida avans puldan olingan harom o'lgur govmush sigir yechilib ketib, xazonga tumshug'ini cho'zib qoldi. Ayvonda jazliq yamab o'tirgan Qovulnazar sigirning og'zida guldor satinni ko'rib, «xo'sh-xo'sh»laganicha sigirga yugurdi. Sigirning og'zidan tugunchaning bir uchini tutib qoldi. Sigir bir tomonga. Qovulnazar bir tomonga tortar edi. Nima bo'lsa hamki, hayvon zo'rlik qilib, tumshug'ini bir siltadi. Bir parcha guldor satin Qovulnazarda qolib, qolganini kekirik aralash yutib yubordi. Qovulnazar obkashni ko'tarib, sigirni savalab qoldi. Bari bir foydasiz. Sigir xalqi qayt qilganini hali hech kim ko'rgan emas. So'kib-so'zlab, urib-do'pposlab, holdan toygan Qovulnazar sigirni yetaklab qo'ni-qo'shnilariga maslahatga chiqdi. Hammalari ham kular edilar.

Bittasi:

— Sigirni so'y, — dedi. Yana bittasi:

— Bari bir chaynab yutib yuborgan, ham puldan, ham sigirdan ajralasan, — dedi. Uchinchisi:

— Kovush qaytarishini poyla, koptokday bo'lib og'ziga qaytadi. Ana shunda ko'r-chi, shildirarmikin, yo'qmi, shildirasa puling butun bo'lgani, — dedi. To'rtinchisi:

— Harom o'lgurni sotvor, — dedi. Bu gap Qovulnazarga ma'qul bo'lib, sigirni bozorga yetakladi. Narx so'raganlarga yetti ming so'm deyar edi.

Bitta xaridor uni mayna qilib:

— Bu sigirning yeliniga kurak bilan urib, sutdor ko'rinsin uchun shishirib olib kelibsan, sigirning bahosi o'n ming, — dedi. Qovulnazar bo'g'ildi.

— Gap sutda emas, buning jig'ildonida axir uch yarim ming so'lkavoy ham bor.

— Aldar Ko'saning eshagi ekan-da, bo'lmasa, bozor qaytishini kutaver, — dedi xaridor.

Bu hikoyaning ustida bo'lgan Mahamat Oqil kulib yubordi.

Uchinchi hangoma

Ba'zida yosh kelinchaklarning tannozi ham qo'l bermay qoladi, kishining jig'iga tegadi. Abdullajon bilan xotini bir-biriga o'chakishmaganda edi, bu falokat bo'lmas edi.

Abdullajon daromadidan tekkan pullarni chetiga gajim tutilgan shohi ro'molchasiga tugib oldi-da, uyingning eshigidan xotiniga qarab kulib kirdi.

— Xotin, mana bu pullarni qara, bir ot ko'tarim chervon, hamma orzung qonadigan bo'ldi.

— Shu pul bir ot ko'tarim bo'lsa, toza xudo urgan ekan, — dedi kamsitib xotini.

— Bir ot ko'tarim bo'lmay nima, buncha pulni yetti pushting ham sanamagan.

— Mushuk ham ko'tara beradi.

— Ko'tarolmaydi.

— Ko'tara oladi.

— Astag'firullo, — dedi Abdullajon, — qani mushugingni keltir-chi.

Darcha tagida mashina g'altakni chuvatib o'ynayotgan baroq mushukni tutib keltirdilar. Eru xotin ermak-ermak qilib, shohi ro'molchani mushukning beliga tang'ib bog'ladilar. Mushuk umrida vazifasi bo'lmagan bu yukkashlik hunaridan cho'changlab ketib, sapchib shotiga tirmashdi.

— Ana ko'tara oladi demadimmi? — dedi xotini.

— Ko'targani qursin, pulni olib qochdi, — dedi Abdullajon. Har ikkovlari irg'ib turib uni quvladilar. Dumiga chelak bog'lab safarqochdi qilingan itday cho'chib ketgan mushuk tomga chiqdi, o'zini tomorqaga tashladi, sahndan chopib borib zovurga kirdi, qo'shni tomonga o'tdi, ko'zdan yo'qoldi.

Eru xotin quvlab yetolmadilar. Izini yo'qotdilar.

Abdullajon oshna-og'aynilariga arz qildi. Salkam o'n kishidan iborat brigada bo'lib, qidirmagan joylari qolmadi. Topolmadilar.

Kechqurun bir-birlarini ta'na qilib, horib-charchab uyga kelganlarida, mushuk pulsiz shohi ro'molchani beliga qiyshiq bog'lab deraza tagida yuz yuvib o'tirar edi.

Bu hikoya qulog'iga chalingan Mahamat Oqil qah-qah solib yubordi.

To'rtinchi hangoma

Mamarayim pulsiz, Qovulnazar chaqasiz, Abdullajon chervonsiz qoldilar, har uchovlari ham pul ishlashga tushdilar. Qaytadan kolxoz kassalaridan avans so'rashga xijolat chekar edilar. Hammalari bamaslahat Mahamat Oqildan qarz so'ramoqchi bo'ldilar.

– Pulning qati buzilmagan ko'kavoyi Mahamat Oqilda bo'ladi, – dedi Mamarayim.

– Rost, uning puli xazondan ham ko'p, – dedi Qovulnazar.

– Undagi pulni ot ko'tara olmaydi, – dedi Abdullajon.

Har uchovlari bo'yinlarini xam qilib, Mahamat Oqilning oldiga bordilar.

– Yuzta-yuzta so'mdan qarz berib tursangiz, topa-tuta beramiz, – dedilar nam tortib.

– Ko'proq so'rasalaringiz ham topiladi. Illo pul yonimda emas. Men pulni davlat omonat kassasida saqlayman, qani yuringlar, olib beray, – dedi-da, ularni yetaklab ketdi. U yo'l-yo'lakay uch marta kulib yubordi.

Balki o'tgan hangomalar yodiga tushgandir...

1940

HOJIBOYOI GULFURUSH

Ba yoron gulfurushi mekunam, bo dushmanon xoro.
Muhabbat ham g'azab du rang chunin bozorho dorad.

Muntazir

Mening qushlarga ishqiboz bir do'stim bor. O'tgan juma bir keksa dastparvar bulbuli o'lganini eshitib, ko'nglini so'rashga jazm qildim...

Teshikqopqa guzaridan o'tib hali Qichqiriqqacha yetmagan edim. Bu ko'chani sukutga ketgan majnuntollar va mahmadona chinqiriq ariq xiyoboni deb atalsa, yana yaxshiroq bo'lardi. Tevarak-atrofi ozoda qilib supurilgan kichkina eshik oldi. Supachaga supadan ham kichikroq gilamchani yozib, oldilariga bir savat rang-barang guldastalarni qiyoy o'tdan kamar

bog'latib qo'yib, ikki mo'ysafid kichik jonon choynakdan jonon piyolaga nilufar bargiday tiniq ko'k choyni quyib, suhbatda edilar.

Aniq sanoqlarga hushim yo'q. Oldida gul savat turgan birinchi mo'ysafidning yoshini sakson va oshig'i bilan taxmin qila qo'ydim. Yaqinlashdim, salom berdim, yana bir necha qadam ta'zim bilan ilgariladim.

— To'xtang, o'g'lim, — dedi kulimsirab birinchi mo'ysafid, — ko'klamingiz muborak bo'lsin.

— Sizniki ham.

— Rahmat.

Qo'linga oq bilan to'qqizilning o'rtasida, muzikadagi avjday ko'tarilib borguvchi necha darajali rang bo'lsa hammasidan to'plangan bir guldasta tutqazdi. Men taraddudlanib yonimni kavlay boshladim. Ya'ni, bu gullar sotiladigan deb o'ylagan edim. Ikkinchi mo'ysafid menga qattiqroq tikildi:

— Nima qilmoqchisiz?

— Yo'q, o'zim shunchaki...

Birinchi mo'ysafid kuldi.

— Nima kasbdasiz?

— Shoirman.

— Balli... Men ham Hojiboboyi gulfurush emasman. Bu gullar o'z bog'imning mahsuloti. Katta o'g'lim injener, kichigi harbiyda, qizim bilan kuyovim doktor, o'zim ekan gullarni ta'binga yoqqan kishiga biror dastadan berishga menga ijozatdir deb o'ylayman... Pulning hojati yo'q, o'g'lim. Badaliga juda biror narsa beringiz kelayotgan bo'lsa ayta qoling...

Men, Muntazirning yuqoridagi she'rini o'qib berdim.

1941

OBRO'

G'anijonning kelganini o'tgan kuni eshitgan bo'lsam ham, bugungina ko'rgali ketardim. Tiriklik, deganday, hammaning o'z ishi o'z boshida. O'tgan kuni Mirzafarangning uchastkasida hasharda bo'ldik (Asli ismi Mirzaahmad aka bo'lsa ham Tekstilning mohir to'quvchilaridan bo'lgani uchun do'stlari

hazil-mutoyiba yuzasidan «Mirzafarang» deb laqab qoʻyganlar. Bu laqabdan uning nafsini koʻyib qoʻygan. Kecha boʻlsa hayit-arafagarchilik deganday, bolalarni mashinachiga olib bordim, univermagga chiqib, bayram xarajati qilishdik va hokazo... Gʻanijonni koʻrish bugunga qoldi, xolos.

Bir xil shovq, bir qop yongʻoq, shoda but, yaratilishidanoq loyi quvnoqlik bilan yoʻgʻrilgan odamlar boʻladi. Bu xillar erkakda ham boʻladi, xotinda ham boʻladi.

Ana, mening ammam shu zayil odamlardan biri. Boringki, inqilobgacha ham paranjini «yopindingmi, yopindim» taxlit irimiga boshiga ilgan. Erini esa shariatga emas, doʻstlarga sevgan. Inqilobning bosh kunlarida, xotin-qiz ozodligi toʻgʻrisidagi birinchi gap qulogʻiga chalin-ar-chalinmas, boʻpti, degan banoras paranjini buzib, yakandoz qilgan. Shu-shu, MOPR bilan «Bolalar doʻsti» znachoklarini koʻkragiga taqib, roʻmolini bilinar-bilinmas qiyshiq tangʻib, kekkaygancha yashab keladi. U, hamma yerda quvnoq, oilada erkin, turmushda shod va mehnatda jafokashu ozod...

Gʻanijon shu ammamning oʻrtancha oʻgʻli. Harbiyga ketgan edi. Kadrga qolipti. Hozir uchuvchilar maktabini tamom qilish oldida. Otpuskaga kelgan.

Bozor Taxtapulga koʻchgandan buyon 6-tramvayga tushib boʻlmaydi, koʻchada esa kishi yakka kift boʻlib yuradi, odam koʻp. Shu koʻchadan ketib borar edim. Roʻparamdan bir harbiy yigit chiqib salom berdi.

— Salom, togʻa.

— Iya, senmisam, Gʻanijon? Men seni koʻrgali ketayotgan edim.

— Bir-ikki joylarga boradigan ishlarim bor edi, ikki kundan buyon mehmon ustiga mehmon, chiqib boʻlmadi.

— Oʻzing yaxshimisan, uy ichlaring tinchmi?.. — va hokazo soʻroq-istoqlardan soʻng u bilan xayrlashdim, u yoʻliga ketdi. men ham yoʻlimda davom qildim. Yigirma qadamlardan soʻng juldur-juldur parangi yopingan bir xotin kelib, barimdan tutdi.

— Toʻxta!

— A, kim, nimaga?

— Hovliqma, amman bo'laman. — G'anijonning onasi, hali aytgan shovoqi kampir.

— O'zi nima gap, paranjingiz nimasi? — Ammam kuldi.

— Obro' qidirib yuribman. G'anijoning mana tappa-taq to'rt yildan beri harbiyda, men uning yoqasiga taqqan chor burchaklarini tushunmayman. Xo'sh, qani dedim, ilming qayerga borgan ekan, senga ham ko'cha-ko'ya birov salom beradigan bo'ldimi, yo'qmi, dedim. Ko'chaga chiqishini poylab, nomus bo'lsa hamki, Asalat achaning paranjisini so'rab yopindim... Izma-iz ketayotibman. Necha odam bilan salom-alik qilganini sanab borayotibman.

— O'zi qayerga ketayotibdi?

— Sevganining oldiga-da, Shayxantohurga. Besh yildan buyon andarqat.

— Siz ham Shayxantohurgacha orqasidan borasizmi?

— Boraman.

— Bo'lmasa, 10-tramvay bilan orqadan aylanib men ham boraman. Kinoning oldida bir-birimizni kutamiz. Keyin menga aytasiz.

Ammam o'g'lining orqasidan ketdi.

Men oldinroq borib Shayxantohurda uni kutib turdim. Eng ilgari G'anijon o'tib ketdi, o'zimni panaga olib turdim. Orqasidan parangi yopingan ammam keldi. Menga yaqinlashdi. Men so'radim:

— Xo'sh, qalay?

— Bo'ldi, ishondim. Qirq bitta-yu, yettita.

— Nima qirq bitta-yu, nima yettita?

— Salom-alik-da. Janggohdan shu yergacha qirq bitta harbiy yigit G'anijonga oldin salom berdi. Yettita harbiyga G'anijon oldin salom berdi. Tuzuk, obro'yi yaxshi.

Ammam o'sha yerdayoq parangi-chachvonini taxlab, qo'ltiqqa urdi.

— Kechqurun hovliga bor.

Ajralishdik.

Leytenant o'g'liga ryadovoy harbiylarning bergan chestlari, ammam obro'yining protsentlari ekanini bildim.

MENING O'G'RIGINA BOLAM

Voqeiyy hikoya

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam — onamning onalari Rokiya bibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab Qora buvi deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvinto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday Qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin, Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovozda suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda boqqa ko'chib ketadilar. Hozir ular tomon bo'sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da: «Bizning uyga o'g'ri keldi». G'unur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?

O'g'ri o'sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar. Buvim «puf» deb nosni tuflab, tomga qarab:

— O'g'rigina bolam, hoy, o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi? — debdilar.

O'g'ri tomdan turib:

— Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo'lini to'saverasizmi? — debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

— Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? Mana, olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib mizg'iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol qochib ketadi.

— Nimalarni xayol surasiz, buvijon? — Bu gapdan keyin ustidagi to'nini turmuchlab bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

— Nimalarning xayolini surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da, bolam. Zamonni o'zing ko'rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'. Hali bularning qo'lidani ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zlarining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut bo'lishi qiyin. Ro'zg'orda bo'lsa: ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi! Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittaginasi o'g'il, uchasi qiz. Endi o'n to'rtidan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur, qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi deysan? Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!

— To'g'ri aytasiz, buvijon, — dedi o'g'ri, — mening ham ikki bolam, xotim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga-cho'qqa, Alining tig'iga uraman. Bo'lmasa, ishlay desam, bilagimda quvvat bor, aqlu hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'rilik kasbi yoqadi, deysizmi? Tuppa-tuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi, degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarniki.

— Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam? — dedi kampir.

— Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbim kavushdo'zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush

tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig'ining o'zi bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab sabzi-sholg'om oladigan badavlatlarning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolipu shonu so'zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga movoza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o'zbek, qozoq, qirg'iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to'ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib: «Amaki, non bering», deydi. Non-a, o'zimirigiga topolmaymanu! Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo'zchilar ham, ko'nchilar ham, boringki, maktab domlari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obiyovg'onga zor. Sanqib yuribdi.

— Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat qoyim degani shudir-da, a, o'g'rigina bolam-a. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir. Xo'sh, endi o'zingdan so'ray. Axir noilojlikdan-ku shu harom yo'lga qadam bosibsan, o'ziga to'qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo'lmaydimi? Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor. Odilxo'jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko'nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo'lmaydimi?

— Ey, buvim tushmagur, soddasiz, sodda, — dedi o'g'ri. — Boylarning uyiga tushib bo'ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo'rasida eshakday-eshakday ikkita, uchadan iti bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa bir hafta vovillaydi. Odilxo'jaboyning g'ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham, Sibir qilib yuboradi.

— Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagan, — dedi bizning kampir.

— Gapingiz to'g'ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to'rtta tovuq, bitta xo'roz o'margan edim.

— Tovuq-xo'roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurug' qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

— Hamma ishning ham o'z maromi bo'lar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho'ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo'ndoqning tagiga borib, og'zimni suvga to'ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo'q. Yomg'ir yog'yapti shekilli, deb o'ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog'idan tutib xaltaga solaman.

— Shunaqa degin, voy tavba-yey. Hamma hunarning ham o'zining murti gardoni bo'lar ekan-da.

— Shunday qilib desangiz, buvixon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo'q, ellikboshimiz Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo'ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so'm pul jamg'arib: «Topganimiz shu, ellikboshi ota», deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

— Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko'rsin. Endi bu yoqqa qara, o'g'ri bolam, hademay, tong ham yorishib qolar. Ana, yorug' yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg'alib pastga tush, o'tinimiz yo'q. Oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg'on qo'yaman. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yganman, birgalashib choy ichamiz.

— Yo'g'-e, buvi, — dedi o'g'ri, — to'nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman.

— Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To'xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Alla-zamonlar uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g'ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to'rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam.

— Yo'q, yo'g'-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. Yana katta oilalar

jam bo'lad. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O'sha yetimlarning o'ziga buyursin. To'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog' tomon ham yorishib qoldi.

- Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur.
- Xo'p, ona, xo'p.

* * *

Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

1965, yanvar

AFANDI O'LMAYDIGAN BO'LDI

Afandi daladan bir eshak o'tin terib, shahar bozoriga olib tushib, uch miriga sotdi. Qishloqqa qayta turib yo'l-yo'lakay eshak qadamidan zerikib o'sha uch mirilik kumush tangani o'ynab kelar edi: tangani o'ng bosh barmog'ining ustiga qo'yib chertib yuborar, chap qo'lining kaftida ilib olar, yana chap bosh barmog'i tirnog'iga qo'yib chertib yuborar, o'ng kafti bilan ilib olar edi. Tanganing bir tomonida poshsholik muhr, ikkinchi tomonida «Xoqon ibni Xoqon Sulton Sulfiddinxon G'oziy» deb yozilgan tamg'asi bor edi. Afandi tanganing o'ngi-tersiga istehzo bilan qarab:

— Ey, tavba, bir misqol kelar-kelmas qalay aralashgan kumush bo'lsa, ikki tomonida aji-buji xatlari bo'lsa, na san'ati, na qadr-qiymati bo'lsa, ana shu bir burda tangaga ne-ne kishilar muhtoj bo'lsa, ne-ne barno ayollar, ne-ne azamat davangirday yigitlar sakkiz no'xat og'irligidagi shu temirga ertadan qaro kechagacha ishlasa... Shu tangang bo'lmasa, obro'ying bir pul, aqlu farosating, ilming hemiri, qavmu qarindosh begona, do'stu oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o'chardan qadaming qirqilgan, bola-chaqa och, o'zing yalang'och. Ajab zamon ekan-da.

Ajab zamonada qoldik, yaqolar bo'ldi etak,
Bo'z paytava bo'ldi, boshga chiqdi patak.

Bunga sen nima deysan, hangi hofizi mayda qadam?

Eshak Afandining so'ziga «ma'qul» deganday boshini silkitib, quloqlarini bir-biriga urishtirib, bedana yurish qilib ketib borardi. Afandi tanga o'ynashda davom etar edi.

Kech kirib qolgan. Uchko'prik degan yerga yetganida ro'baro'sidan bir oqsoq it chiqib hura boshladi. Afandi ham, eshak ham shunga alaqsiy ketib, tanga ichqinib yerga tushdi, yerdagi qaysidir toshga jiring etib urilib, qaygadir yo'qoldi. Afandi topaman, degan xayol bilan eshakdan bafurja tushib, tangani qidira ketdi. Ko'tarib qaramagan biror toshi qolmadi. Tanga yer yutganday nom-nishonsiz edi. Qosh qorayib, shom tushdi. Topolmasligiga ko'zi yetib, tanga yo'qolgan joyiga atrofdagi katta-kichik toshlarni yig'ib kelib qo'ydi. Erta bilan barvaqt kelib yana qidiraman, degan o'y bilan qishlog'iga jo'nadi.

Erta bilan tong saharda kelib yana qidirdi. Tangadan nom-nishon topilmadi. Shunda Afandining xayoliga bir gap kelib qoldi:

— Iya, nega men avval o'ylamabman? Kecha oqshom ham mendan boshqa kishilar shu yerdan o'tgandir yoki bugun mendan oldin bir necha kishi shahar tomon tushgandir. Nahotki shulardan birontasi mening tangamni topib olmagan bo'lsa? Shulardan surishtirish kerak!

Shu payt ustidan belini bog'lagan, xachir mingan bir yigitcha shahar tomon zudlik bilan o'tib qoldi. Afandi shoshilib uning jilovidan ushladi:

— Qayoqqa ketayotirsan?

— Amakim vafot qilib qoldilar, janozaga aytib yuribman.

— Bu yerdan kecha ham o'tganmiding?

— Ha, kechqurun tabib olib o'tgan edim.

— Ha, barakalla! Tangani cho'z! — dedi Afandi.

— Qanaqa tanga? — dedi yig'lamsirab yigitcha.

— Mug'ambirlik qilma! Qanaqa tanga bo'lardi, uch mirilik buxor tangasi, sandan boshqa it olarmidi, bu yoqqa cho'z!

— Man tanga-panga ko'rganim yo'q, qo'yvoring, mulla aka! O'lik muntazir bo'lib qoladi.

— O'liging bilan ishim yo'q, tangani cho'z! Bo'lmasa xachirdan ag'darib, do'pposlayman.

Janozaga odam aytishdan kechikayotgan yigitcha adi-badi aytib o'ltirishning foydasizligini anglagach, yonchig'ini

kavlab uch miri chiqarib berdi-da, shoshilib jo'nab ketdi. Afandi tangani kaftiga solib o'ngi-tersini sinchiklab ko'rdi:

— Yo'q, bu mening tangam emas. Mening tangamda «Sulton Sulfiddinxon» degani qiyshiqroq yozilgan edi. O'zimniki topilmaguncha qidiraman. Ammo bu ham ortiqchalik qilmaydi, — deb yong'ichiga solib qo'ydi. Xarsangga o'ltirib yo'l kuzatdi. Bu navbat shahardan sakkizta xurmacha, katta sut chelak ko'targan o'rta yashar bir qatiqfurush obkash ko'tarib yayov kelar edi. Unga:

— Bir nafas to'xtang, jonidan akasi! Shu yo'ldan qachon o'tgan edingiz? — dedi yumshoqlik bilan Afandi.

— Ilk tongda, Cho'lpon yulduzi ko'tarilganda.

— Barakalla, — dedi Afandi, — qani tangamni cho'zing!

— Qanaqa tanga?

— O'smoqchilamang, uka. Shu yerda kecha bitta buxor tangasi yo'qolgan. Uni sizdan boshqa hech kim topib olmagan, albatta. Shu pulni cho'zing!

— Bo'lmagan gap!

Gap mojaroga aylandi. Mojaro mushtlashuvga. Bir xurmacha sinib, sut chelakning qorni pachoq bo'ldi. Afandiga kuchi yetmasligiga ko'zi yetgan qatiqfurush bitta uch mirilikni boshidan yetti aylantirib, Afandiga uzatdi:

— Ma, ol, yo'lto'sar, ablah! Bola-chaqangga osh bo'lmasin, yug'uchingga buyursin. — U so'kina-so'kina singan xurmachasiga, noo'rin ketgan uch mirisiga achinib, yo'liga ravona bo'ldi. Afandi undan qoqib qolgan tangani ham tekshirib:

— Yo'q, bu mening tangam emas. Bu tanganing kungirasi siyqalanib ketibdi. Meniki zarbdan yangi chiqqan edi... Hay, mayli, bu ham bir kunga yarab qolar, — deb kissaga uribdi.

Bugun Afandi o'tgan-ketganlardan besh-o'n tanga olib qolgan bo'lsa ham, bu tangalar yo'qotgan tangasiga o'xshamas edi.

Hazil-hazil bora-bora kasbga aylanib, Afandi Uchko'prik boshida besh yilu uch oy qolib ketdi. Har kuni o'tgan-ketgandan o'z tangasini so'roqlab, ba'zilar bilan yaxshilikcha, ba'zilar bilan mushtlashib, uch miridan olib qoladigan bo'lib qoldi. Kuniga o'n-o'n besh tanga tushib tursa ham, lekin bu tangalar yo'qotgan tangasiga o'xshamas edi. Afandi,

o'z tangamni topmay qo'ymayman, deb qasam ichib qo'yganligi uchun o'z ahdidan qaytmas edi. Daladan shaharga, shahardan dalaga o'tuvchi yo'lovchilar Afandining bu tiqilinchiga ko'nikkan edilar.

— Nazarmat, qaysi yo'ldan ketamiz, uch miri jinni tomondanmi yoki uzoqroq bo'lsa ham G'irvon oshib ketamizmi? — desa, boshqa birov:

— Menda tanga bor, yaqiniga Uchko'prikdan ketaveramiz, — derdi kulib.

... Ammo tepada xudo bor. Afandining qilig'iga hamma ko'niksa ham, xudo ko'nikmas edi. Besh yilu uch oydan beri bitta oq bulutga yonboshlab, uzun rezinka nayli chilimda takbas chekib kayf qilib, cho'zilib yotgan xudo Afandining qiliqlariga g'ashi kelib, uni kuzatar edi. Oxiri chidolmadi. Bitta yugurdak farishtani zing'illatib Azroilni chaqirtirdi. Vazifasi kishilar jonini olish bo'lgan qo'rqinchli Azroil qo'ltig'iga bir katta kitobni qisib, xudoning oldiga kelib ta'zim qildi. Xudo Afandini ko'rsatib:

— Bor! Anov bandaning yo'qotgan uch mirsini topib ber, keyin jonini ol! U mening ham, boshqa bandalarimning ham joniga tegdi, — dedi.

Azroil pastga qarab:

— Iya, bu mulla Nasriddin Afandi-ku, — dedi.

— Ha, o'shaning jonini ol!

Azroil qo'ltig'idagi ro'yxat kitobining «N» harfidan Nasriddin Afandini topib, xudoga murojaat etdi:

— Soqolingga sadaqa bo'lay, xudojonim, o'zing yozgan mana bu taqdir kitobida Afandining o'lishiga hali yigirma bir yil bor, ajali yetmagan. Agar hoziroq jonini olsam, yerdagilar orasida janjal ko'tariladi. «Va'dasida turmaydigan beburd xudo» deyishadi, senga ishonmay qo'yishadi.

— Bo'lmasa, qo'rqit, cho'chit, bu hunarini qilmasin. Boshqa yengilroq hunar o'rgatib chiq.

— Xo'p, — dedi-yu, bitta chikkabel farishtani yetaklab yerga tushdi.

Azroil eshak arava mingan handalakfurush dehqon siyoqida Afandiga ro'baro' bo'ldi.

— Bu yerdan qachon o'tgan eding? — dedi Afandi unga do'q aralash.

– Bugun ertalab.

– Bu yerda uch mirilik bitta tanga yo‘qolgan. O‘shani sendan bo‘lak it ham olmagan. Shu tangani egasiga, ya‘ni menga qaytar-da, yo‘lingga ketaver.

– Bo‘lmagan gap, – dedi Azroil. – Sen besh yilu uch oydan buyon uch miringni bahona qilib, xudoyim bandalaridan necha o‘n ming tanga undirib olding. Bo‘ldi qil! Bo‘lmasa, hozir joningni olaman!

– Joningni olaman?! Sen Azroilmiding?

– Bo‘lmasam-chi! – Azroil shu zahotiyoy o‘z dahshatli qiyofasiga, eshagi esa chiroyli bir farishtaga aylandi. Afandining yuragi shuv etib ketgan bo‘lsa ham, sir boy bermadi.

– Bitta emas, yetti Azroil birdan kelganingda ham jonimni olib bo‘psan, gapni aylantirmay tangani cho‘z!

Azroil bilan farishta Afandi shuncha yillardan beri po‘stak solib o‘ltiradigan katta xarsangni ag‘darib tashladilar-da, tagidagi qumu tuproqlarni tirnoqlari bilan tirmalab, ko‘karib, zanglab ketgan tangani Afandiga olib berdilar:

– Ma, ol, to‘ymagur! Bu, o‘sha, sen yo‘qotgan tanga.

Afandi zihlaridan o‘zi yo‘qotgan tangasini tanigan bo‘lsa ham, tan olmadi:

– Bu meniki emas. Mening tangam yangi edi. O‘zimniki topilmaguncha shu yerda o‘ltirganim-o‘ltirgan.

– Endi o‘tirmaysan, – dedi Azroil. – Biz senga oson, daromadli kasb o‘rgatamiz, kuning yetib o‘lguningcha bemalol bola-chaqangni boqasan.

– Qanaqa hunar ekan? O‘zimmnikidaqa mo‘may kasbni topib bo‘larmidi, – dedi Afandi.

– Biz senga tabiblikni o‘rgatamiz, – dedi Azroil...

– Tabibchilikka ilm kerak, men esam g‘irt savodsizman, alifni kaltak deya olmayman, qizamiq bilan chipqonni bir-birovidan ajratolmayman, taqdir, – dedi Afandi.

– Tabibchilikka ilmning hojati yo‘q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo‘ri chiqadi, – dedi Azroil. – Xotiningga ellikta xalta tiktirasan. Xaltalarga har xil o‘tlarni quritib, uqalab solasan. Besh-olti shishada har xil rangorang suvlar tayyorlaysan. Mahallangga borib, tushimda hazrati Luqmon og‘zimga tupurib ketdi, tabib bo‘ldim, deysan. Sal kunda dovrug‘ing olamni bosib ketadi. Qolganiga men yordam beraman.

– Sen qanday yordam berarding?

– Iya, aytdim-ku, axir, men Azroil – o‘lim farishtasiman. Kimning ajali yetganini mendan oldin biladigan kimsa yo‘q. Kim o‘ladi, kim qoladi, men senga ishoratlar bilan ma‘lum qilib turaman, ya‘ni bir odam kasal bo‘ldi, seni tabib deb chaqirtiradilar, sen bilan qo‘shilishib men ham boraman. Sen meni ko‘rasanu xaloyiq meni ko‘rmaydi. Agar men borib kasalning oyoq tomonida o‘ltirsam, bilginki, o‘sha kasal o‘ladi. Agar bosh tomonida o‘ltirsam, har qanday og‘ir kasal bo‘lsa ham sog‘ayib ketadi. Ana shunga qarab ishingni qilaverasan.

Afandi goh ishonib, goh ishonmay, bu muomalaga ko‘ndi. Mahallaga qaytib, o‘zini tabib deb e‘lon qildi. Ko‘pchilik Afandini mayna qilib kuldi, ko‘pchilik jinniga chiqardi. Bir qism kishi ishondi ham. Asta-sekin Afandining shuhrati ko‘tarilib, ixlosmandlari orta bordi. Chunki uning ishlariga, bilasizki, Azroil sherik edi. Ha-hu deguncha, hakimi hozir mulla Nasriddinning ovozasi elu yurtga tarqab ketdi. Kimni qoladi, desa qoladi, o‘ladi, desa o‘ladi. Tabibgarchilikdan keladigan daromad katta. Ichki-tashqilik tunuka tom, xo‘roz karnayli imoratlar, qo‘sh xotin, to‘rt kelin, yegani oldida, yemagani ketida, bisotu bag‘al haddan ziyod, elu-yurt o‘rtasida obro‘si bashang, bosar-tusarini bilmay kekkayib ketgan...

Ana shu zaylda yigirma bir yil o‘tib ketdi. Osmondagi xudoning katta kitobi hisobida Afandining o‘lim kuni yetib keldi. Bu gaplardan bexabar Afandi o‘zining kasal qabul qiladigan mehmonxonasida sherigi Azroilni kutib o‘tirar edi. Soat o‘ndan ham oshib ketdi. Azroildan darak yo‘q. Eshikda odamlar kutar, Afandi mehmonxonaning u yog‘idan-bu yog‘iga yurib so‘kinar edi:

– Bu nima degan gap! Sherik bo‘lgandan keyin xizmatga o‘z vaqtida kelish kerak-da!

Kuta-kuta charchadi shekilli, baxmal ko‘rpacha to‘shalgan parqu yostiqli so‘riga borib yastandi. Shu tobda desangiz, Azroil ko‘kdan inib tushib, to‘g‘ri Afandining oyog‘i tagiga o‘ltirdi. Afandi qo‘rqib ketsa ham, bilib bilmaslikka olib, oyog‘ini yig‘ishtirdi. Azroilni koyigan bo‘ldi. Yon cho‘ntagidan yo‘g‘on zanjirli, qo‘ng‘iroqli tilla soatini olib:

– Mana, qara, soat ham sal kam o‘n bir bo‘libdi. Eshikda qirq chog‘li kasal kutib o‘ltiribdi. Sen bo‘lsang arshi a‘loda qaysi hur qiz bilan bekinmachoq o‘ynab yurganikinsan...

— Shunaqamikin, — dedi tabassum bilan Azroil. — Ammo bugun sizning navbatingiz. Xudoning osmonidagi katta kitobida sizning o'limingiz bugun soat o'n biru o'ttiz yetti minutga tayin qilingan. Men yigirma bir yillik qadrdonlik yuzasidan qirq minutchga oldin tushdim. Bola-chaqalaringizni, yoroshnolaringizni chaqiring, vasiyat qiling. Keyin men og'ritmay avval esingizni, keyin joningizni olaman.

— Bo'lmagan gaplarni qo'ying, — dedi Afandi, dovdiraganidan sansirashini ham esdan chiqarib. — Endigina tabiblik hunarni mag'ziga yetib, og'zimiz oshga yetganda o'limdan gapirmang! Yana biron o'n-o'n besh yil totuvlashib ish qilaylik.

— Iloji yo'q, — dedi Azroil. — Qazoyi qadarni o'zgartirolmayman. Tayyorgarlikni ko'ring! Gap bilan bo'lib, mana, yana to'rt minut o'tib ketdi.

Afandi yana anov-manov deb gap cho'zayotgan edi, Azroil shig' etib Afandining yarim beligacha jonini olib qo'ydi. Afandi juda qo'rqib ketdi.

— Hoy-hoy, to'xtang-to'xtang, bu nima qo'pollik!

— Hali vaqtim bor, mana endi bu gap bo'пти, — deb kuldi-da, Azroil jonning tanobini bo'shatib o'z joyiga qo'ydi. — Vasiyatni boshlang, Afandim!

— Vasiyat shuki, — dedi Afandi, — men o'z umrimda xudoyimga ko'p gunoh qilgan bandaman. Xudoning bandalariga yo'qolgan tangam vajidan besh yillab ozor berganman. Endi xudoyimga yig'lab, tavba qilishim kerak. Ikki rakaat namoz o'qib, iltijo qilishim kerak. Dargohi keng xudoyim zora gunohlarimdan kechsa. Siz ham qasam iching. Shu ikki rakaat namozimni o'qib bo'lgunimcha jonimni olmay turasiz.

Azroil maslahat so'raganday osmonga qaradi. Xudo hali ham o'sha oq bulutga yonboshlab takbas qilib, kayf surar edi. Azroilning savol nazariga: «Mayli, Afandiga ijozat bera qol, ikki rakaat tavba namozini o'qisa o'qiy qolsin», deganday chap ko'zini qisib, ijozat berdi. Shundan keyin Azroil Afandiga qarab:

— Xo'p, mayli, namozingizni o'qing. O'qib bo'lguningizcha joningizni olmayman, — dedi.

— Qasam ich!

— O'n sakkiz ming olamni yaratgan yakka-yagona xudoyimning nomiga qasam bo'lsinki, ikki rakaat namozingizni o'qib bo'lguningizcha joningizni olmayman.

— Barakalla, — dedi Afandi. So'ng xotirjam nosqovog'ini olib o'zi kaftini to'ldirib bitta otdi. — Ma, sen ham otasanmi? Juda zo'r. Qoraqishloqning tolqonidan.

Azroil xo'mrayib qarab, indamadi. Afandi tashqariga chiqib tahorat qilib keldi. Makkaning surati solingan joynamozini yozib, qiblaga qarab imirsilab namoz boshladi. Azroil jon oladigan asboblarini tayyor qilib kuzatib turardi. Afandi bir rakaatgina namoz o'qib o'ltirdi. Salom berib, yuziga fотиha tortdi. Bu degan, namoz tamom bo'ldi, degani edi. Hovliqib qolgan Azroil:

— Iya, Afandim, namozingiz chala qoldi-ku, qolgan bir rakaatini o'qimaysizmi?

— Vaqtim yo'q, — dedi iljayib Afandi. — Eshikda bemorlar kutib qolishdi. Qolgan bir rakaatini dunyodan zerikkanimda o'qiyman. Hayot juda shirin narsa, hunaring jon olish bo'lgandan keyin sen buni tushunarmiding, ablah!

Ana shu-shu bo'ldi-yu, Afandi o'lmaydigan bo'ldi, u bizning hayotiy olanimizda hamma ishlarimizga aralashib, kuldirib, xushnud qilib yuribdi. Azroil bo'lsa uning orqasidan bir rakaat namozini qistab necha yuz yillardan beri ovora.

HASAN KAYFIY

(Xalqimizning yumoristik ertaklaridan)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi, chumchuq chaqimchi ekan, deganlaridek, osmon tog'orasining ostida, yer tarvuzining ustida bir podshohi azim yashar ekan. Yeri shunchalik ko'p ekanki, unga qaram qishloqlardan bittadan guvalak yig'anda ham butun saroy ahliga sag'ana qurishga yetar ekan. Unga qaram fuqarolar shunchalik ko'p ekanki, agar har bittasidan bittadan qo'noq olinsa ham, to'qqiz xumda bo'za solsa bo'lar ekan. Lekin podsho, kishi boshiga bittadan qo'noq emas, bir qopdan o'lpon solishni yaxshi ko'rar ekan. Podsho kulollarga bitta sopol tog'ora yasatib, katta machitning eshigiga

qo'yib qo'ygan ekan. Fuqarolar navbat bilan kelib shu tog'oraga o'ltirar ekanlar.

«Sol tog'oraga ketingni, sig'sa ham bir tanga, sig'masa ham bir tanga», degan soliq shu podshoning zamonasida rasm bo'lgan ekan. Ana shu podsho desangiz, ertadan-kechgacha taxtda o'ltiraverib juda zerikar ekan. Bekorchilikka ermak, deb odamlarni osib ko'rar ekan, so'yib ko'rar ekan, qish kunlarida sovuq suvga pishib ko'rar ekan, tirnoqlarining tagiga g'arov yurgizib ko'rar ekan, bari bir, ko'ngli ochilmas ekan. Keyinchalik borib erta bilan, tushda, kechqurun bir chinnidan ichib turadigan ko'knorisi ham kayf qilmay qo'yibdi. Sayroqi qushlar, urishqoq it, xo'rozlar ham ko'ziga yomon ko'rinib qopti. Urishqoq mast nortuyalarga etik tiktirib kiygizish, toshbaqa poygalar ham shuning zamonasida qoidaga kirgan ekan. Keyin, bosh vazirning maslahati bilan kechalari shahar aylanib, fuqarolarning siru asroriga, gapiradigan gaplariga ayg'oqchilik qilib yuradigan bo'lib qolibdi.

U ustiga malla to'n kiyar ekan, engagiga ot to'rvadek katta oppoq soqol bog'lar ekan, boshiga laylak uyaday salla o'rar ekan, qo'liga uzun yashil tayoq ushlab olar ekan, sarpoychan oyog'iga uchi qayrilgan baland o'kchali sag'ri kavushni ilib, ko'cha aylanar ekan. Uni bu suratda ko'rgan kishilar: «Yopiray, bu kishi Xizrmikan, Ilyosmikan, qaysi payg'ambar ekan, yo xudoimizning amakivachchalaridan bittasimikin?» deb gumon qilishar ekan.

Kunlardan bir kuni avval oqshomda ko'cha aylanib yurgan podsho, shaharning utta chekkasida bir bo'yra-ikki bo'yra eni ekin-tikinlar o'rtasida qaqqayib qolgan bir chaldivor uyga ko'zi tushibdi. Katta hovuz o'rtasida bir palla yong'oq po'choqday turgan bu loy tomli kulba to'rt tomondan tirgovichlar bilan tiralib, qari baytalday arang turar, eski eshigi yuziga yopiq, oyna o'rniga yog'langan qog'oz yopishtirilgan darchasiga ichkarida yoqilgan so'nik shamning qizg'ish, bemador shu'lasini tushib turardi. Kulba ichida kimningdir, randa yemagan, do'rillagan ovozi xirgoyi qilar edi. Podsho eshik tirqishidan mo'ralab quloq soldi. Qandaydir o'rta yoshli bir kishi shoir Hofizning:

«Kishti shikastagonem, e bodi shurta, barhez,
Boyad ki boz binem on yoru oshnoro».

«Kemamiz sinib, daryo o'rtasida qolganlarmiz, ey yoqimli shamol, tezroq esib bizga qirg'oqqa chiqishga yordam ber. Koshki o'sha oshnalarimizni qaytadan ko'rolsak», degan baytini kuylar edi-da, har dam olganda: «Ishqilib, aql bilan mehnatim bor bo'lsin», deb qo'yar edi. Taajjubda qolgan podsho eshikni taqillatdi. Ichkaridan:

— Marhamat, kiravering, bu eshikning qulfu zanjiri yo'q, marhamat, — degan ovoz keldi.

Podsho ichkariga kirdi. Uy egasi hangu mang bo'lib, tavoze bilan salom berib kutib oldi. Podshoning savlati uni dovdiratib qo'ydi shekilli, qanday iltifot qilishini ham bilmay elovsirab:

— Xizmat, taqsir, xizmat! — der edi.

— Men senga qo'noqqa keldim, — dedi unga podsho.

— Hay, hay, — dedi uy egasi, — o'zi kelgan qo'noq atoyi xudo.

Yugurib borib ko'hna bir sandiq ustiga taxlab qo'yilgan eski o'rin-boshdan bir ko'rpachani olib to'rga yozdi, yonboshiga bir bo'z lo'laburma bolish qo'ydi.

— Qani, marhamat, o'z uylaridek bemalol o'ltirsinlar...

Podsho kavushini yechib, tayog'ini devorga suwab, ko'rsatilgan joyga o'tirdi. Uy egasi o'rtaga bir kir dasturxon yozdi, fотиha o'qishdilar. Uy egasi shu fotihaga ham: «Haq ilohim, aqlimiz bilan mehnatimiz bor bo'lsin», deb qo'shib qo'ydi.

— Xo'sh, — dedi podsho, — siz kimsiz, nima tiriklik qilasiz?

— Avval o'zlaridan so'rasak bo'lardi, taqsir? — dedi mezbон.

— Men hazrati Xizr bo'laman, jahon kezib, xudoning yaqin bandalaridan xabar olib yuraman. Erta namozni Quddusi sharifda o'qigan edim, peshinni Istambulda o'qidim, namozgarni Mashhadda, shomni Tehronda, xuftonni Buxoroda o'qidim-da, sizning shahringizga keldim.

— Hay, hay, — yoqa ushlab, ko'ksiga tupurdi mezbон, — chaqmoqdan ham tez yurarkansiz-da, taqsir. Avliyoga ikki dunyo bir qadam, deganlari shudir-da.

Podsho miyig'ida kuldi:

— Xuddi shunday. Shak keltirmay, ishona bering. Qani, xo'sh, endi o'zingiz...

— Mening ismim Hasanboy, musallas ichishni yaxshi ko'raman. Shuning uchun xaloyiq menga Hasan Kayfiy

degan laqab qo'ygan. Katta Chorsuda yamoqchilik qilaman. Menga kuniga bitta tanga yetadi. Shuning uchun bitta tangani topguncha ishlayman. Keyin so'zan, bigizni yig'ishtirib, ish qutimni yopaman. Ortiqchasining keragi yo'q. Undan u yog'iga malikaning poshnasi uzilgan bo'lsa ham yamaydigan ahmoq yo'q. Ishqilib, taqsir, aql bilan mehnat omon bo'lsa bo'lgani...

— Shunaqa deng, — dedi podsho o'smoqchilab. — Xo'sh bu mamlakatning podshosi kim, adolatli podsholardanmi?

— To'g'ri, to'g'ri, bir xotinining ismi Adolat emish, deb eshitganim bor. Lekin mening katta dargohlar bilan ishim yo'q. Men o'z mehnatimni bilaman. Topgan bir tangamga ikkita non olib birisini oqshom, birisini erta bilan yeyman. Yarim qadoq go'sht, bir bog' o'tin, bir shisha sharob, bitta anor, bitta sham olib hujramga qaytaman. Sho'rva qaynataman. — Hujra burchagidagi devor o'choqda qaynab turgan kichkina tosh qozonni ko'rsatdi. — Anorni mana bu kosachaga ezib, o'rtasiga shamni o'tqazaman. Anor suvining qizil shu'lasiga menga yoqadi, taqsirginam. Mana bizga qo'noq bo'ldingiz, birgalashib sho'rva ichamiz. Taqvo qilmasangiz, qittay-qittay sharob totinamiz, — deb kulib «Xizr»ga qaradi.

— Biz ham andak totinsak bo'laveradi, chunki sharobning o'zi harom emas, uning badmastligi harom, — dedi podsho.

O'rta non sindirildi, ikki sopol tovoqda sho'rva suzildi. Bir shishasharobni ikkovlashib sipqardilar. Shirin suhbatda, chala, quyon uyqusida tong yorishib borar edi. So'z orasida podsho so'radi:

— Siz, Hasan Kayfiy, hadeb: «Aqlim bilan mehnatim bor bo'lsin», deyaverasiz, biron marta na xudo, na podshohingizni eslamaysiz. «Podshohimiz omon bo'lsin, boshimizga soyabon bo'lsin, xudo yor bo'lsin», degan duolarni ham gapingizga qo'shib qo'ysangiz bo'lmaydimi?

— Be-ye, — dedi Hasan Kayfiy, — shu kichkina ro'zg'orimga ularni aralashtirib nima qilaman? Xudo ham tekinga ish qilmaydi, unga qurbonlik, zakot-ushr kerak: men ularni qayerdan olaman? Podsho bilan xudoning tili bir, bir-birini suyaydi. Fuqaro bilan qanchalik ishi bor? Podshoga bo'lsa turli-tuman o'lpon, soliq, dahyak, u-bu kerak. Innaykeyin, podsho degan maxluqqa doim bo'yin egish xush yoqadi. Mening soliq to'lashga

bisoti-bag'alim yo'q. Siz, taqsir, bizning podshoning tog'ora solig'ini eshitmagan ko'rinasiz, — deb hiringlab kulib qo'ydi. — Shuning uchun mening sig'inadigan narsam — o'z aqlim, o'z mehnatim, taqsir. Boshqasidan hech qanday ilinjim yo'q.

— Avvalo shuki, odob kerak: o'z podshoingizni maxluq demang, podsho degan xudoning yerdagi soyasi bo'ladi-ya!

— Men ham shunday deyapman-da, taqsir, soyadan biron narsa umid qilgan kishi ahmoq bo'ladi, — dedi Hasan Kayfiy.

— Astag'firullo, — dedi «Xizr», — bordi-yu, shu bugunning o'zidayoq podshohingiz: «Mening mamlakatimda yamoqchilik qilish man etiladi, kimda-kim yamoqchilik qilsa dorga osiladi», degan buyruq chiqazib qo'ysa nima bo'lardi?

— O'shanda ham aql bilan mehnat salomat bo'lsa, bir evi topilib ketadi, taqsir, — dedi Hasan Kayfiy.

— Ko'ramiz, qachongacha shu e'tiqodda tura olar ekansiz, — deb piching qildi podsho. Uning niyati Hasan Kayfiyning og'zidan «Podsho salomat bo'lsin», degan so'zni yulib olish edi. Ammo u bu suhbatda niyatiga yetmadi.

Tong xo'rozi qichqira boshlagandan keyin mehmon qo'zg'aldi:

— Endi men boray. Erta namozni shahringiz jomeida o'qishga niyat qilganman.

— Bu oqshom ham mehmon bo'ladilarmi? — so'radi Hasan Kayfiy.

— Nega so'radilar?

— Chunki bu oqshomda siz mening nasibamga sherik bo'ldingiz. Bugun oqshom ham mening kulbamda qo'nmoqchi bo'lsangiz, ikki tanga ishlashga harakat qilaman, non to'rtta, sham ikkita, go'sht bir qadoq, sharob ikki shisha bo'ladi, taqsir, — dedi Hasan Kayfiy.

— Bo'lmasa, albatta kelaman, — dedi kulib podsho.

Hasan Kayfiy podshoni kuzatib qo'yib hujrasiga qaytdi, qolgan-qutgan nonlar bilan nonushta qildi. Hujrasini yig'ishtirdi, quyosh terak boshiga kelganda har galgidan barvaqtroq ish qutisini ko'tarib, Katta Chorsuga yo'l oldi. Chunki bu oqshom ham uning qo'nog'i bor, ikki tanga ishlashi kerak.

Endi shinni bozorni bosib chala qassoblikka yetganda Katta Chorsu tomondan ish qutisini qo'ltiqlab hovliqib, entikib kelayotgan bir-ikkita do'sti — yamoqchilarni ko'rib qoldi.

– Hasanboy, orqangga qayt, Hasanboy, ish rasvo, Hasanboy, orqangga qayt!

– Kayfiy, xonai mo so'xt, farmoyishi oliy hazrat, farmoyishi podshohiy...

– O'zi nima gap, o'zi nima gap, tushuntirsalaring-chi, o'zi nima gap?

– Podshomizdan buyruq chiqib qoldi. «Mening mamlakatimda yamoqchilik uyat, – debdi, – kim yamoqchilik qilsa, dorga osaman», debdi, – dedi kasbdoshlaridan biri Mamasharif chokdo'z.

– Hm, – dedi Hasan Kayfiy, – padar la'nat Xizrning aytgani bo'пти-da: yo'q, qo'lga tushirolmaydi, hali ham mehnat salomat bo'lsin...

Yugurib uyiga qaytdi. Buvasidan qolgan bir eski arra bilan olchin to'qmoq bo'lguvchi edi. Artib-surtib shuni ko'tardi, beliga teshasini qistirdi. Qo'shnisining katta tabar boltasini qarz olib, o'tin bozoriga borib yollovchi kutib turdi. Onadiga bir yigit kelib, oltita to'nkani yorib berishni undan so'radi. Yigitning mo'ljali bir so'm bo'lsa ham Hasan Kayfiy xizmatiga ikki tanga so'radi. Yigit arzon mardikor topilganiga quvonib, Hasanboyini uyiga olib ketdi.

Hasanboy demaganingiz o'q yegan arslonday ihrab-sihrab tushga ham qoldirmay o'tinlarni yorib, ikki tanga ish haqini oldi. Bozorga qarab yugurdi. O'rinlatib xarajat qildi: to'rtta so'lqildoq, sedana sepilgan obinon, ikki shisha sharob, bir qadoq go'sht, ikkita sham, ikkita anor, ikki bog' oq o'tin...

Kulbasiga qaytib, sho'rvaga unnab ketdi, tosh qozonning tagiga o't qo'ydi. Kech oqshomdan allavaqt o'tganda Xizr qiyofasidagi podsho Hasan Kayfiyning eshigiga quloq solar edi, ichkaridan Hasan Kayfiyning odatdagi, xumga ari qamal ganday g'o'ng'irlagan yallasi eshitilar edi:

«Kishti shikastagonem, e bodi shurta, barhez,
Boyad ki boz binem on yoru oshnoro...»

Ha, ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo'lsin.

Xizr eshikni taqillatdi. Hasan Kayfiy:

– Marhamat, pirim, marhamat, bu eshikning zanjiru qulfi yo'q, o'z uylaridek bermalol kiraversinlar.

Yana kechagidan ziyoda takallufotlar bilan: «Salomu alaykum, alaykum salom»dan keyin, mehmonni to'rga o'tqazdi.

Bu oqshom ikki anorning siqilgan suvi o'rtasiga o'tqazilgan bir qo'sha shamning qizg'ish shu'lasini kulbaga ayrim bir fayz berib turar edi.

Sopol kosalariga sho'rva quyilib, nonlar ushatilib, ikki piyoladan sharob ichilgandan keyin:

— Xo'sh, hazratim, shahrimiz janoblari manzur bo'ldimi, qayerlarni sayohat qildilar? — deb so'radi Hasan Kayfiy.

— Bay-bay-bay, — dedi «hazrati Xizr», — garchand, ikki olam oralig'ini ming bor sayohat qilgan bo'lsam ham, bunday shahri azimni uchratmagan edim. Ko'cha-ko'ylarini, machitu madrasalarini ayting, ahli fuqarosini ayting, odamlari o'z podsholariga itoatli, hamma yerda uning omonligini tilaydilar. Kecha siz aytgan machit oldidagi podsholik tog'oraga men ham o'tirib ko'rdim. Garchand, ketim tog'oraga sig'magan bo'lsa ham, bir tanga solig'ini to'ladim. Koshki edi, yer yuzi podsholari ham shunday adolatli bo'lsalar, bay-bay, — dedi. — Qani, xo'sh, o'zlaridan so'raylik.

— Be, taqdir, — dedi Hasan Kayfiy, — kechagi nafa-singizga farishta omin degan ekan. Katta Chorsuga yetar-yetmas «yamoqchilarni osaman», degan podshoning buyrug'i chiqib qoldi. Juftakni to'g'rilab uyimga qaytdim.

— Xo'sh-xo'sh? — dedi «Xizr».

— Keyin arra, bolta ko'tarib o'tinchilik qildim. Ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo'lsin ekan. Ikki tanga pul ishlab, mana, janobingiz kelishingizga qozonni qaynatib qo'ydim.

— Borakallo, borakallo, — dedi «hazrati Xizr». — Mabodo, ertaga podsho o'tinchilikni ham man qilib qo'ysa nima bo'ladi?

— O'shanda ham aql bilan mehnat salomat bo'lsa, bir evi topilib qolar, taqdirim, — dedi Hasan Kayfiy.

Allavaqtgacha chaqchaqlashib, sharobning kayfini surib, kayf o'rtasida qush uyqusi qilib mudrashib o'tirdilar. Tong yorishay deganda mehmon:

— Men bugun tong namozini Xastiimomda o'qishga niyat qilganman, menga javob, — deya o'rnidan qo'zg'aldi. Hasan

Kayfiy uni kuzatib, hujrasiga qaytdi. Qumg'on qaynatib, qolgan-qutganlar bilan nonushta qildi. Keyin arra, boltalarni ko'tarib, o'tin bozoriga qarab ravona bo'ldi.

Hasan Kayfiy Ko'mir saroyga hali yetgani ham yo'q ediki, kecha o'tin bozorda ko'rgan bir necha o'tinchilar nafasлари og'izlariga tiqilib:

— Hasan aka, qoch-chi qoch! Boshingni panaga ol! Poshsholikdan, o'tinchilar osilsin, degan buyruq chiqib qoldi, — dedilar.

— Uygamu jo'nayversinlar, oxun kishim Kayfiy! — dedi Sodir polvon degan bir uyg'ur arrakash.

— Hm, — dedi Hasan Kayfiy, — obbo xotintaloq Xizr-ey, aytgancha, kecha nafas qilgan edi. Xizr degancha bor ekan-a...

Shoshilib kulbasiga qaytdi. Hujraning shiftida, toqilar orasiga qistirib qo'yilgan bir eski mesh bor edi. Uni olib borib buloq suvi bilan toza ishqab yumshatdi, ichini buloq suviga to'ldirdi. Meshni ko'tarib, sho'rva ichadigan ikkita sopol kosani olib, chorshanba kuni bo'lgani uchun qo'y bozorga jo'nadi.

Orqasida bir mesh muzdek buloq suvi, qo'lida kosa, bozor oralab issiq kunda chanqab qolgan bozorchilarga obi xudoyi ulasha boshladi.

— Obi xudoyi, obi xudoyi, tekin suv, hazrati Ukkosha bulog'ining suvi, tabarruk suv, muzday suv!..

Chanqoqlar kosa-kosa suv ichib, ba'zilar hech narsa bermas, ba'zilar kosaga bir tiyin, ikki tiyin, besh tiyin tashlab ketar edilar. Hash-pash deguncha, meshdagi suv yarim ham bo'lmasdan Hasan Kayfiyning mo'ljalidagi ikki tanga naqdgina qo'lga kirdi. Qanchadan-qancha suvsovlarning iltimosiga ham quloq solmay, qolgan suvni to'kib tashlab meshni buklab qo'ltiqqa urdi, bozorga qarab yugurdi...

Tun oqshomda qiyofasini o'zgartirgan podsho eshik qoqib kelganda Hasan Kayfiy o'zining qadrdon «kishti shikastagonem»i bilan mashg'ul va ora-chora xo'rsinib: «Ha, ishqilib, aql bilan mehnat salomat bo'lsin», so'zini aytib sho'rva shopirib o'tirar edi.

Yana kechagi oqshomdagidek suhbat davom etdi, kayf qildilar. O'tirgan joyda uncha-muncha ot uyqusi ham qilib

oldilar. Bir-birlari bilan holi ahvol so'rashdilar. Xasti Xizr Tillashixboy machitini maqtab ketdi... Keyin Hasan Kayfiydan hol so'radi. Hasan Kayfiy meshkobchilik qilganini aytdi. «Xizr» podsho buyruqlaridan qah-qah urib kulgan bo'ldi.

— Hay-hay, ko'p adolatli buyruq chiqibdi, podshohingiz salomat bo'lsin, xudo unga yor bo'lsin. Darhaqiqat, shunday ko'rkam shaharning husniga yamoqchi, o'tinchi, meshkobchiga o'xshagan past kishilar dog' bo'ladi. Manga qolsa hammasining osilgani ma'qul, — dedi u.

— Hm, hov, ma'qul, taqsir, nafasingizdan o'rgilay! — dedi ensasi qotib Hasan Kayfiy.

Bu bedard mehmonni o'lguday do'pposlab, och biqiniga tepib haydab chiqarishga Hasan Kayfiyga xos mehmondo'stlik odobi yo'l qo'ymas edi. Tongga yaqin, yana kechqurun kelishga va'da berib, xayr-xo'shlashib mehmon jo'nadi. Bu tong Hasan Kayfiy nonushta ham qilmadi. Mehmonning qorasi ko'zdan o'chgandan keyin tikka buloqboshiga jo'nadi. Bu yerdan shahar meshkoblari suv olardilar. Bitta-bitta kelgan meshkoblarga suv oldirmay to'xtatib turdi. Meshkoblar yigirma kishiga yetgandan keyin:

— Birodarlar,— deb so'z boshladi Hasan Kayfiy, — shu yigirma kishi ikki tiyindan ikki tanga yig'ib bersalaring sizlarga bir xushxabar aytaman. Ikki tiyinlaringga arziydi.

Meshkoblar bir-birlariga qarashib, hamyon kavlab ikki tanga yig'ib Hasan Kayfiyga berishdi. Hasan Kayfiy bafurjalik bilan ikki tangani kissasiga solib:

— Endi birodarlar, xushxabar shuki, uylaringga tarqayvurlaring. Hali zamon poshsholikdan «Meshkoblar dorga osiladi» degan buyruq chiqadi, — deb so'zini tugatmagan ham ediki, poshsholikning jarchisi ot o'ynatib ovoz qo'yib keldi:

— Poshsholikning farmoyishi: shaharda meshkoblik man qilinadi. Kimda-kim buyruqqa quloq solmay meshkoblik qilsa, dorga osiladi!!!

O'z boshining tashvishida qolgan sho'rlik meshkoblar chilning bolasiday tumtaraqay tarqalib ketdilar. Hasan Kayfiy bozorga qarab chopdi...

Hasan Kayfiy hujrasidagi bu oqshomgi suhbat ham o'tgan oqshomlardagiday serchaqchaqlik bilan davom etdi.

Yana har galgiday bir-birovlarining kunduz kunlik sarguzashtlarini surishtirdilar. «Hazrati Xizr» bugungi namozlarini Zangiotada ado qilganligini bayon qildi. Ayniqsa, adolatli podshoning meshkoblarni dorga osish haqidagi farmoyishidan g'oyatda mamnun bo'lganligini aytdi.

— Qani endi, yer yuzida mingta podsho bo'lmasdan bittagina shunday adolatli podshoning yolg'iz o'zi bo'la qolsa, — degan ezgu orzuni bayon qildi. Keyin Hasan Kayfiydan bugungi buloqboshida qilgan ishlarini aytib berishini so'radi.

— E, taqsiri olam, — dedi Hasan Kayfiy, — aql bilan mehnat salomat bo'lsa, kishi lol qolmas ekan. Men bugun nima ish qilganimni joni dilim bilan sizga aytib berishini mumkin. Lekin nafasingizdan cho'chib qoldim. Boshida men sizning Xizrligingizga ham uncha ishonmagan edim. «Men Xizrman», deganingizda, ha, endi shunchaki giyovand, miyasi aynigan choldir-da, deb qo'ya qolgan edim. Lekin qilgan nafaslaringiz ketma-ket o'rinlayverganidan Xizr ekanligingizga endi ishondim. Shuning uchun ham bugun qilgan ishlarimni sizga aytmayman. Aytsam, tag'in bironta sovuq nafas qilasiz-da, ishimning pachavasini chiqarasiz.

— Yo'q, yo'q, xudo haqqi, yomon nafas qilmayman, aytavering, na yaxshi, na yomon nafas qilmayman...

— Bo'lmasa, ayta qolay. Bugun men qiziq ish qildim. Kecha oqshom siz: «Poshsholik meshkoblikni bekor qilsa nima qilasan?» degan edingiz. Ikki-uch tajribadan o'tkazganim uchun, ol-ha, meshkoblarga ham nafas ketdi-ku, deb o'yladim. Sizning ketingizdanoq buloqboshiga yugurdim. Meshkobchilarga, bir xushxabar aytaman, deb ikki tiyin-ikki tiyindan yig'ib berishlarini so'radim. «Hozir hammang tarqal, poshshoning buyrug'i chiqadi», dedim. Aytganimday bo'ldi. Yeb o'tirgan ziyofatingiz aqlning karomati, meshkobchilarni ogohlantirilganlik evaziga yig'ilgan ikki tangananing ziyofati. Bemalol yeb-ichavering, taqsir, ishqilib, bugun tinch o'tiraylik, nafas qilmang.

— Qoyilman, — dedi «Xizr», — aytgan gapingizda turadigan o'jar e'tiqodli odam ekansiz. Shunday zehn bilan...

— E, bas qiling, taqsir, bas! Bu yog'iga o'tmang!

— Yo'q, yo'q, — dedi «Xizr», — yomon niyat qilmoqchi emasman, bir ehtimolni aytmoqchiman, yaxshi ehtimol...

— Yaxshisi ham kerak emas.

— Yo‘q, demoqchimanki, shunday zehn bilan podshohga navkar bo‘ladigan yigit ekansiz, ehtimol...

— Ana xolos, — dedi Hasan Kayfiy, — bundan ham rasvo nafas bo‘ladimi, tag‘in bu ehtimol emish, men ahmoq bo‘lmasam, birinchi kuniyoq sizni hujraga taklif qilarmidim, eh, attang, attang!

Hasan Kayfiy bu nafasdan juda ranjidi. Tong otdi. «Xizr» jo‘naguncha palag‘da tuxum yutganday miq etmay, jim o‘tiraverdi, uni kuzatib ham qo‘ymadi.

«Xizr» jo‘nagandan keyin, yarim soat o‘tar-o‘tmas bir otni minib, yana bir otni yetaklagan bir sipohi yigit qamchi dasta bilan eshikni taqillatib qoldi.

— Hasan Kayfiy, Hasan aka, degan kishi shu yerda turadimi?

— Shu yerda, shu yerda, — deb Hasan aka tashqariga chiqdi. Qarasa, boshdan-oyoq qurollangan, mo‘ylovi shopday bir harbiy yigit. Boshida dubulg‘a, egnida sovut, bilagida qalqon, qo‘lida nayza, yelkasida kamon, bir yonboshida sadoq, bir yonboshida qilich.

— Hasan aka sizmi?

— Men, men bo‘laman.

— Siz poshshoning xos navkari bo‘lib tayinlandingiz. Mana bu yarog‘-aslahalarni kiying, taqining! Ot ham sizniki. Tez bo‘ling, men bilan saroyga yuring!

Hasan aka badnafas Xizrni so‘ka-so‘ka uch pud keladigan temir-tersaklarni kiyinib, taqinib, boyagi sipohi yordamida otga arang minib, saroyga jo‘nadilar. Ot o‘lgur hurkovich ekan, yo‘lda bir zambilg‘altak dumalatib ketayotgan kishidan hurkib Hasan Kayfiyni olib qochishiga, ko‘tarib urishiga oz qoldi.

Saroyda ularni bosh miroxur bilan navkarboshi kutib oldi. Hasan akaga vazifasini tushuntira boshladilar.

— Siz podshoning xos navkarisiz, — dedi navkarboshi. — Bir qo‘lingiz qilich dastasida, podsho o‘tirgan taxtning orqasida uni qo‘riqlab tik turasiz. Mabodo podshoning hayotiga biror xavf tug‘ilsa, kim bo‘lmasin, boshini shartta chopib tashlaysiz. Moyanangiz qirq sakkiz tanga. Oyning o‘ttizida olasiz. Ot tagi bilan o‘zingizniki, yem-xashagi ham sizdan. Erta bilan soat sakkizda kelib, kechqurun beshda ketasiz. Kunduzlari ot

poshsholik oxurida bo'ladi. Tush vaqtida saroy ahllariga bir marta shulon qaynatiladi, biror kosa ichishingiz mumkin. Shulon haqi ichsangiz-ichmasangiz moyanangizdan ushlab qolinadi. Shu qoidalarga itoat qilmasangiz, bo'yingiz chopiladi. Mana bu hujjatga barmoq bosing (Hasan Kayfiy ichida Xizrni so'ka-so'ka barmoq bosdi). Omin oblohu akbar. Sizga xudo va xudoning yerdagi soyasi bo'lgan adolatli podshohimiz yor bo'lsin.

Hasan Kayfiy taxt orqasida qilich qabzasini ushlab ko'zini yummay, uch pud temir-tersak yelkasidan bosib qotib turar edi. Ichida: «Yopiray-ey, bu bachchag'ar Xizr mening o'z ishonchimdan aynatmoq payiga tushdi shekilli. Bugun qoidadagi dasturxonni yozish uchun ikki tangani qayerdan olaman? Sharmanda bo'ladigan bo'ldim. Yo aqlim, yo mehnatim, o'zlaring menga madadkor bo'llaring!» deyar edi.

Soat to'rtlardan oshganda poshsho haramga kirib ketdi. Hamma sipohilarga, shu qatori Hasan Kayfiyga ham javob bo'ldi. Darrov borib og'ildan otni yechdi. Boshqa navkarlar yordamida otga minib pichoq bozor tomon yo'rtib ketdi. Uning boshiga yaltiroq bir fikr kelgan edi. Uning bir pichoqchi do'sti bo'lib, shuning do'koniga bordi. Pichoqchi Hasanni bu qiyofada ko'rib, rangi o'chib, dag'-dag' qaltirab, hangu mang bo'lib qolgan edi.

— Qo'rqma, qo'rqma! Usti boshim boshqa bo'lgani bilan men o'sha o'zingning Hasaningman. Mana shu qilichimning tig'i Isfaxonning bayzo po'latidan bo'lgan. Shuni sindirib sotsam olasanmi?

— Jonim bilan olaman.

Hasan qilichni sug'urib, pichoqchiga uzatdi. Pichoqchi tig'ni obdan tekshirib, egovga solib ko'rdi.

— Yaxshi ekan, asl ekan.

— Qancha berasan?

— Oltmish tanga.

— Chiqaz pulingni!

Hasan qilichni bo'g'zidan to'rt enli qoldirib, qolganini sumbaga qo'yib sindirib pichoqchiga uzatdi. Pichoqchi tig'ni olib, po'stak tagiga yashirdi. Naqtgina oltmish tangani Hasanga sanab berdi.

Hasan qoidadagi ikki tangali bozor-o'charni qilib, kulbasiga qaytdi. Yechindi, otning ham ustidagi aslaha, egar-jabduqlarni oldi. Bog'dor qo'shnisini chaqirib chiqdi.

— O‘rtoq, — dedi, — mana shu ot kechqurun soat beshdan erta bilan sakkizgacha seniki. Yer surasanmi, moyjuvoz haydaysanmi, aravaga qo‘shasanmi, ixtiyoringda. Ammo har kuni erta bilan yaxshilab to‘ydirib, qashilab, sovutib menga topshirasan. Bu harom o‘lgur kunduz poshsholik oxurida boquvda yotadi.

Bu taklifga qo‘shnisi jon-jon deb ko‘ndi, otni yetaklab olib ketdi.

... Kech oqshomda «hazrati Xizr» kelganida Hasan Kayfiy hech nima bo‘lmaganday qadrdon yallasini aytib, sho‘rva shopirar edi.

Navbatdagiday bemalol, xushkayf, serchaqchaq suhbat davom etar edi.

«Xizr» bugun qayerda namoz o‘qiganini aytdi. Hasan Kayfiydan ahvol so‘radi.

— Ovora bo‘lasiz, aytilmaydi, taqsir. Nafasingizni shamol uchirsin, bo‘ldi-ye!

— Xudoyi taoloning birligi hurmati, podshohimizning shafqat va mehribonliklari hurmati, churq etgan nafas qilmayman. Faqat menga mana bu qoziqlarda osig‘liq qalqon, qilich, dubulg‘alarning egasi kimligini aytsangiz.

— Qasam iching, hazrati Xizr!

— Nafas qilsam, kalomullo ursin!

— Bo‘lmasa ayta qolay, bu aslahalar kecha qilgan nafasingiz natijasi. Men podshoga navkar bo‘lib qoldim.

— Qutlug‘ bo‘lsin, muborak bo‘lsin, xo‘sh, bu kungi ziyofatning xarajati qayerdan bo‘ldi, moyanani naqd berar ekanlarmi?

Hasan Kayfiy qilich voqeasini yashirmay aytdi. Keyin qilichni qoziqdan olib:

— Endigi qolgan ellik sakkiz tangani shiftga qistirib qo‘ydim. Moyana chiqquncha har oqshom ziyofat, taqsir. Qilichga bo‘lsa taxtadan tig‘ yo‘nib ulab qo‘ydim. Mana ko‘ring...

Qilichni sug‘urib ko‘rsatdi. Darhaqiqat, tig‘ning singan qismiga taxtadan tig‘ qilib, hunarmandlik bilan ulangan edi.

— Tasanno, — dedi Xizr, — ammo...

— So‘z qila ko‘rmang, so‘z qila ko‘rmang, qasam ichgansiz.

— So‘z ham qilmayman, nafas ham qilmayman, ammo ehtimolimni aytaman.

– Ehtimolingiz qursin, qani ayting-chi?

– Mabodo, ertaga podshoh birovga g'azab qilib, sizga: «Hasan, bu gunohkorning kallasini chop!» desa, unda nima bo'ladi?

– Ming la'nat, ishning atalasi chiqdi. Xizr bo'lmay xinzir bo'ling! Tag'in qasam ichgan edi-ya bu xumsa. Ha, mayli. bo'lar ish bo'ldi, o'shanda ham aql bilan mehnat salomat bo'lsin. Bir iloji topilib qolar.

Bugun ham Hasan Kayfiy taxt orqasida qo'li qilichning dastasida qaqqayib turar edi.

Shulon vaqti yaqinlashib qolganida podsho bilan vazir o'rtasida janjal chiqib qoldi. Bosh vazir Olabaytal qishlog'iga tushgan o'lpon haddan tashqari ortiq bo'lganligini, kamaytirish zarurligini aytar edi. O'jar podsho qaytaga qaysarlik qilib o'lponning ikki baravar oshirilishini buyurar edi. Vazir bilan podsho o'rtasida oldi-berdi gap kuchayib ketdi. G'azabiga chidolmagan podsho orqasiga qarab:

– Hasan, vazirning, bu ablahning boshini chop! – deb amr qildi.

Hasan yugurib borib vazirning ikki qo'lini orqasiga bog'ladi. Podshoning oldiga tiz cho'ktirdi.

– Podshohim, bir emas, o'n vazirning boshini oyog'ingiz tagida sadaqaday yumalatishga tayyorman. Ammo bu sho'rlikning bola-chaqasi ko'p. Innaykeyin, Olabaytal qishlog'ida mening ammam bor. Ko'p borib turaman. Vazirning gapi to'g'ri, qishloqlarning ahvoli nochor, xalq och, yalang'och. Asli o'lpon olinmasa ham bo'ladi.

– Padar la'nat, navkar, – dedi baqirib podsho. – O'z podshongga maslahat berishga senga kim huquq berdi? Vazirning boshini hozir chop! Bo'lmasa o'zingning boshingni kestiraman!

– Mening uchun bitta vazirning boshini chopish chumchuq so'yishdan ham oson. Ammo xudo bilan maslahat qilib olay. – Hasan Kayfiy ko'kka yuzini tutdi, qo'lini munojotga ko'tardi: – Ey, bor xudoyo! O'zing ko'rib turibsan, hukm sening hukming. Men hozir vazirning boshini chopishim kerak. Agar podsho haq bo'lsa, qilichim qilichligicha qolsin. Agar vazir haq bo'lsa, qilichimning tig'ini po'lat emas, taxta qilib qo'y! Oblohu akbar, – deb qilich sug'urdi.

Qilichning tig'i go'yo taxtaga aylanib qolgan edi.

Hasan Kayfiy qilichini ko'tarib:

– Adolatli xudoyimdan aylanay, vazir haq ekan, mana, podshohim, o'zingiz ko'ring.

Hasan Kayfiy taxt tomonga o'girilib qarasa, taxtda podsho emas, «Xizr» o'ltiribdi (Podsho yasama oq soqolini iyagiga bog'lab olgan edi).

– E, ha, – dedi Hasan Kayfiy, – Xizr ham o'zim, podsho ham o'zimman desangiz-chi, tilimiz bitta deng, qo'sha-qo'sha karomatlardan sezinqiragan edim-a, taqsir...

Shunday qilib, podsho Hasan Kayfiyni o'z ishonchidan aynita olmadi. Hasanga o'z xohishini o'tkazolmadi. Uni saroydan haydab chiqardilar. Mana endi Hasan Kayfiy ham umrining oxirigacha o'z aqli, o'z mehnati soyasida farog'atda hayot kechirmoqda.

1965



SHE'RLAR

TYRKSIB YO'LLARIDA

Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llardir...
Jahonning fotihi Iskandar,
Rum qaysari,
 qotil Chingiz,
 Botu, Jo'ji,
Temur ham
 qoldirib kimsasiz iz,
Chindan mo'g'ul o'chi
 borliqni
 jonliga qilib tang:
— Qon! — deya,
— Qon! — deya
 bosaroq kechmishdir.

.....

Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llar,
Besh million,
 o'n million,
 yuz million nafar
 qullar va tullar,
Gardanda cho'yandan quyilgan zanjir,
Yerlarda hasharot kabi
Ochlikdan,
 zorlikdan gezarib labi,
Ojiz,
 mahkum,
 xor va betadbir:

— Non! — deya,
— Non! — deya
surunib kechmishdir.

.....

Bu yo'llar
ko'p qadim yo'llardir,
Konfutsiy, shomoni, islom va budda,
But va tasbeh yuklagan
karvonlar...

Xuddi
shu yo'ldan
zang urib,
Childirma qoqaroq,
Takbirlar hayqirib
— Qurbon! — deb,
— Qurbon! — deb kechmishlar.

.....

Biridan xotira:
ko'hna bir devorkim — zanjir.

Biridan:
boshlardan
qurilgan ravoq.

Biridan:
Balchig'i qon-la
iylangan
ko'k o'puvchi toq.

Biridan:
O'z asrin kechmishi
tumtaroq...

Nom uchun,
shon uchun
savlat sotaroq,

Ham-ma-si,
Ham-ma-si,
Shu yo'ldan kechmishlar.

Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llardir,
Bu yo'ldan
 ezilgan
 yuz million nafar,
Boshda,
 eng boshda
 bitta muzaffar —
 kirli toj,
Barmog'in ishorati-la
 bir butun o'lka
 dov uchun xiroj,
Pekindan Rungacha
Bo'mboydan to Maskov,
Qon,
 suyak ustiga
 tikilgan yalov:
Yengish dovulin chalaroq
G'urur-la kechmishdir.

Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llar —
Qani, ey tarix!
Shunchakim, bu yo'ldan
 zafar
 qozongan fotihlar,
 qaysarlar,
Muzaffar zilli sultonlar
 ustidan
 siynangda biror esdalik
 yo iz xabar
 qolganmi? —
Kahrabo tugmaday,
 bag'ri dog' loladay.
Aytganlariday —
Kim,
Bir lavhang qon esa,
Bir lavhangmish zar...

Yo'q, albat,
 bilaman, faqat
 bir tushday
 Yo tutun — xayol
 kelarkan kechmishdir.
 Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llardir...
 Uzala tushgan cho'l kabi sokit.
 Ustidan
 shabada esmagan
 tiniq ko'l kabi,
 Og'zi qon bir bo'ri
 yo oqsoq bir it:
 Hayqirsa,
 uvlasa,
 Har tongda
 bir dong deb
 bong ursa
 dovullar...

Ko'lga otilgan
 Bir kesak parchasi singari
 Ufqlar bir karra —
 Lipillab qolar,
 Yanadan bir sokitlik cho'kar,
 chizaroq doira —
 Shivirlab jimganday
 U ko'lning labi.

Bu yo'llar
 ko'p qadim yo'llar...
 Bu yo'ldan tarixda birinchi daf'a,
 Tarixda eng porloq —
 o'laroq bir safha
 qoldirib bir botir:
 Faqat ezguvchi emas,
 Bir fotih.
 O'lkalar buzg'uvchi,
 ellar qirg'uvchi,
 o'ch olg'uvchi emas,

Qullardan, tullardan,
O'n million,
Yuz million va milliard nafar,
Yer kurrasida bo'lgan proletar
birlashgan muskul,
muskulli qo'l,
Tarixning chirkin lavhasin
yoraroq

Bolg'a va o'roq —
Najot tug'rosi,
Qonli varaqlar
ustiga surg'uch urib
Bu yo'ldan
birinchi va eng so'ng daf'a
Shukuh-la
Hayqirib kechmishdir.

Bu yo'lda,
shu qadim yo'lda
U faqat hukmron,
Pekindan Rungacha,
Bo'mboydan to Maskov,
Sibirdan Turkiston —
hammasi bir yaylov —
kim, haligacha

Bu yo'llar bo'yicha cho'zilgan
haykallar,

Obida va xotiralar
yosh va qon

Nomiga qurilgan ekan.

Biz
shu yo'llar tizginin
qo'lga olaroq,

Aqlimiz va shuurimiz —
Rejalar,
Miyamiz — globus,
Millimetrasi — ming kilometr.

Har chizgi
Qurilishdan bir belgi —
Yutuqlardan plyus.
Biz
Yer kurrasini boshini tang'idik
Va tarixning tomirlariga quydik
erigan temir.

Bu yo'llar,
shu qadim yo'llar
ustidan endi
parovoz

O'z
Ufqining ko'ksiga xanjar solaroq
G'alaba na'rasin qichqirib
Donglar, shonlar,
shuhratlar ustidan,
Shpallar o'rniga —
xurofiy bir qonun
bosib,

Ko'krakda bronza —
Yulduz
Faxr ila
Kelajak.

Bu yo'llar,
shu qadim yo'llar
ustidan

Chin — Eron,
Rus — Afg'on,
Hind — Turkiston
va jumla jahon,
O'n million
yuz million
va millard nafar.

Yer kurrasida bo'lgan proletar
Salomi,
do'stlik ilhomi
po'lat karvonlarda
hayqirib kezajak.

Bu yo‘llar,
 bu qadim yo‘llar
Ustiga bu izdan obida,
 abadiy xotiraki, bundan
 to‘xtamay bir nafas,
Qon —
Qatron hidimas,
Ozodlik
 shamoli esajak...

1930



TAGDO'ZI

Simobday jilvalanib,
Kumushday yaltiragan,
Shu tagdo'zi qaysi bir
Xinali qo'lning ishi?
Qaysi bir sadaf siyna,
To'zim-la sanchib yigna,
Injularin birma-bir
Bu shohiga qadagan?
Qaysi qayg'uli yurak,
Shu yaproqlar ustiga
Shabnamday yoshlarini
Chatib-chatib qoldirgan?
Qaysi bir zaruriyat,
Bu torgina chambarda
Tetik, qaytmas, tiyrak
Idroklarin toldirgan?

Har to'kisda bir to'qol,
Qo'lga olib siz yaqqol
Bir tekshirib ko'ringiz:
Tagdo'zining bir talay
Kemtik-ko'stin toparsiz.
To'ridan go'ri yaqin
Allaqaysi chizmakash
Nusxalarni chizibdi
Juda-juda yiroqdan,
Biz bilmagan «Iroq»dan.
Chevar ham turlugini
O'miga qo'yolmabdir:

Nuqul oq, barikaram,
Pistoqi, go'los, zangor.
Shu kundagi yoshlarga
Ayniqsa ko'proq yoqar
Qizilu gulnori kam.
Tikishi silliq emas,
O'girmasi chakmaga,
Sanamasi yo'rmaga
Kundosh bo'lib turganday,
Juda qo'pol bir tepchik,
Tepasi cho'qqi, kichik,
Kizagi salkam sara,
Jiyagi o'n uch iplik,
Paranji bandagiday,
Qalandarga jandami —
To'ntkarilgan qumg'onday.

Chizmakashda nima ayb,
Ayolmand, beshik-belik.
Chizay deb olsa pilik,
Bola yig'lar — ishlar hayf.
Chevarning yo'q tinimi,
Qatimini oldimi,
Adasiga bir qultum
Issiq qilish tashvishi,
Ba'zan quchoqlar udum:
«Ha, aylanay, ne qilay,
Ro'zg'or qurg'ur g'or ekan,
Qaysi bekach qayrilib
O'zgaga boqar ekan?»
Tepchikchining boshida
Kattagina ko'rgulik,
Uydan chiqmish yaqinda
Arslonday yigit — o'lik.
Egnida qora bilan
Qunt qilmas o'zga ishga.
Orada nomus degan.
Ko'proq tegadir tishga.

Bizlar bola choqlarda
Qator belbog' bog'lagan,
Chakkasida tagdo'zi
Mo'yblablarin yog'lagan,
Hakkari durang etik,
Olifta, satang, tetik,
Yag'rin tashlab hayqirib,
O'tganlarni ko'rsatib:
«O'lmasin, yigit ekan,
Qaysi, azamat o'g'li,
Uloqda katta to'qli
Chovidan sirqib chiqmas», —
Deb maqtashib bir nafas
Qolar edi boboylar.

Bu kunning yigitligin
Boshqacha o'lchaydilar:
«O'lmasin, yigit ekan,
Falon zavod zarbdori,
Qo'llari qadoqlangan,
Ko'zlari o'tday yongan,
Azamatlik viqori,
O'rtog'ini hayqirib,
Basma-basga chaqirdi.
Bilagidan metallar
O'q yegan arslon kabi
Omon tilab baqirdi.
O'rtoqlarining ko'pi
Orqasidan ergashib,
O'tgan oyda yuz bergan —
O'pirilishni yopdilar», —
Deb maqtashib qolarlar.
Bunga qo'sha birisi:
«Shu yigitday ko'p botir
Xotini ham singlisi,
Har ikkovi fabrikda
Uquvlarin shimdirib,
Zarb bilan ishlab yotir,

Shu yigitlar ko'paysin,
Qurilsin gigant-gigant,
Bo'sh oqmasin zehniyat,
Planlar bo'ylab sizsin», —
Deya to'kar maqtovin.
Tagdo'zi, shohi qiyiq
Kunning dovrug'i emas,
Gajak va qora miyiq
Yigitlik dong'i emas.
Yigitlik o'z bilan teng,
To'la biylik egasi,
Yolg'iz uyning «bekasi»
Savri, Xolposh, Xayrini
Tagdo'zilar bag'ridan,
Beshik, sigir, uvada,
Adasiga bir qultum
Obi yovg'on tashvishi,
Aza, qora, bir to'da
Urf-odatlar, udum,
Em-tumlarning qa'ridan
Yetaklab chiqa olishdir,
Yasla, birikkan turoq,
Qurumsiz pok oshxona,
Bilim, ong, mehnat — yaroq,
Fabrika-zavod porloq,
Tuman-tuman korxona,
Tetiklik o'choqlari
Keng ochib quchoqlarin
Kutar opajonlarin.
Qiyiqlar, tagdo'zilar,
Choyshabu zardevorlar
Chakmasiga chatilgan
Qunt, to'zim, idroklarni
Besh yillikka yo'nalgan
Qurilishlar bo'yicha
Sirqitib oqmoq kerak.

Qo'y, torgina chambarda,
Siqilgan minglab yurak
Gaykalarning qirqimin
Yayrab, bo'rg'alab pishsin!
Qo'y, an'ana to'qimin
Boshdan irg'itib tiyrak,
Ko'z nurlarin davrning
Savlati tomon bursin!
Qo'y, tagdo'zi sevuchi
Bir to'da satang boshlar,
O'ziga yetib kuchi,
Kiysin kunning kepkasin!..

Qo'y, uyg'otsin hayqirib,
Gudok kunlar na'rasi,
Hilpiratsin ro'molin
Chin erklik shabbodasi!

1930



TOSHKENT

I

Toshkent Osiyoning ko'rkli o'rnida,
Maqtalsa arziydi, oz emas — ancha.
Toshkentning lojuvard toza ko'kida
Shabboda tinmaydi tongdan kechgacha.

Uzoq Hind, Xitoyda qon kechgan quyosh
Toshkent osmonida hordiq oladi.
Ozod o'lka ustiga nur to'kib yovvosh,
Ulug' qurilishlarga ko'zin soladi.

Toshkentning suvlari shunchalar toza:
Chirchiq, Ohangaron, Bo'z, Anhor, Solor.
Beqasam jiloli shu buyuk fazo
Rangini, to'g'risi, Toshkentdan olar.

Bu yerning mevasi shunchalar asl,
Kumush butoqlarda yoqutday ko'rkam.
Bu yerda uzun yil bilmaydi fasl,
Toshkentni vatan deb biladi ko'klam...

II

Toshkent qo'shni Sharqning ko'rkli o'rnida,
Maqtalsa arziydi qanchadan-qancha.
Muqaddas Vatanning yurak to'rida
Mazlum Osiyoga porloq daricha.

Uzoq Hind, Xitoyda qon kechgan quyosh
Toshkent osmonida hordiq oladi.

Ozod o'lka ustiga nur to'kib yovvosh
Ulug' qurilishlarga ko'zin soladi.

Toshkent o'zbeklarning go'zal markazi,
Katta oilada teng huquq a'zo.
Bunda mehnatkashning erkin nafasi,
Havo milliy, irqiy g'ubordan toza.

1934



BOG‘

Bir vatanning o‘g‘limenkim, har taraf gul-lola bog‘,
 Qalb ko‘ziday eng qorong‘i kechada porlar charog‘,
 Har yigit mag‘ruru har qiz ko‘kragi qo‘sh cho‘qqi tog‘.
 Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog‘u yog‘,
 O‘z-o‘zini maqtaganda, maqtamay qolg‘aymi men?

Lola jomi to‘la ko‘klam shabnamidan ertalab,
 Yozgi chilla sho‘x xayolday o‘tsa kurtakni yalab,
 Er quyosh qandli qozon ostiga qo‘ysa o‘t qalab,
 Bilmadim, chillik, daroyi qilg‘usi qanday talab;
 Lablaridan qand tomarsa — so‘rmayin qolg‘aymi men?

Ko‘z suzilgan, lab cho‘zilgan, sevgi uyg‘ongan chog‘i,
 Bilmadim do‘ndiq bu qizning qancha ermish barmog‘i.
 Yutqinib olgan o‘pishlarning yo‘qotdim salmog‘in,
 Har butoq zumrad kabi ko‘k, osmon rang yaprog‘i,
 Qistasa «Sev!» deb husayni, sevmayin qolg‘aymi men?

Ko‘z qarosiday ko‘chirding yuzga bog‘ning aksini,
 Xol kabi ishkomb qoshin, bu husnini — bu ko‘rkini,
 Bir umr xummorda o‘lsin sevmasa har kim seni,
 Tarqatar shingillaring rayhon, iforning bo‘yini,
 Chorlasa shirin charoslar — bormayin qolg‘aymi men?

Sog‘ quyosh, muzday havo top-toza suvlarning qizi,
 Kim tegishdi, yuzlaringiz qon talashgan qirmizi,
 Siz yarashgan bu chamanning bo‘lmagay hech bir kuzi,
 Yaxshi o‘rtoqlar bilan ulfatchilik bo‘lgan kezi
 Kelsangiz quvnoq kulish-la — quvnamay qolg‘aymi men?

Yaxshi qizlar, o'rtangizda kim yo'qotdi labda rang?
Bir kelib bu bog'dagi «o'g'ri» shivirg'ondan so'rang,
Donalar bo'lg'in, to'lalikdan tiqindir, po'sti tang,
Uchraganda har kishi ham istagin bosgay arang,
Ul meni «yorim» deganda — «yo'q» deya, qolg'aymi men?

Dil xush-chun bir totay deb bog' aro kirsang atay,
Yaltirar, sapchib tepar, hurkar kabutar qalbiday,
Sohibi sen bu chamanning, yashna, qurboning ketay,
Kuz kezi eng yaxshi do'stlarga savatlab tarqatay,
Sen saxovat qo'lni ochsang — qimtinib qolg'aymi men?

Biz ko'kartirgan bu bog'ning ismi bo'lsin gul-asal.
Shinni-sharbatdan sog'aygay har nuchuk eski kasal,
Ter to'kib, hordiq oluvchilar guring qurgan mahal,
Navbati jomim to'la tut, bog'bon, o'tkazma gal,
Qo'ng'iroq qah-qahli do'stlar bazmidan qolg'aymi men?

Kimda bordir bu chamandan gul uzishning niyati,
Qaysi lablarga tomar bu sevgili bog' sharbati?
— Bu to'liq jom bir umrga ishchilarning navbati,
«Boda bar har tab' mebxashad judo xosiyate»*,
Bog'chaning har kimsaga bor o'zga bir xosiyati.
— Ishlading, kel, tot, — deganda, totmayin qolg'aymi men?

1934, avgust



* Mirzo Abdulqodir Bedildan (*Muallif* eskartishi).

BARI SENIKI

Muncha ham chiroyliksan, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim,
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonim, yurak qonim, hatto shu tanim
bir butun holida bari seniki.

Loladan poyandoz har bir qadamda,
Uzluksiz kulgilar doim dahanda.
Oltin tuprog'ingni o'pganim damda
Nafasing sezilur edi badanda,
gul, sunbul chamanda bari seniki.

Baland-baland tog'laring ming pillapoya,
Archalar baxt boshiga tashlaydi soya,
She'r o'qiy, she'r to'qiy bilonihoya,
Sen minglab azamat, botirga doya,
arslon yigitlaring bari seniki.

Issiq quchog'ingda ungan paxtazor,
Eng baland hosil bilan topdi e'tibor,
Oltin tuprog'ingda jumla olam bor,
Dunyolar mazmuni, mazmuniga zor,
shu obro', shu viqor bari seniki.

Plan, cho't-hisobdan oshib o'tdik biz,
Ilm normasidan o'zib ketdik biz.
Kunda besh yuz kilo tergan erkin qiz,
Gektaridan o'n tonna bergan erlar biz,
barimiz, barimiz, bari seniki.

Issiq quyosh boshlardan silab buyutgan,
Bu yerda oyoqlarga kirmaydi tikan,
Kipriklarga qo'ngan zarrinkor changdan,
Alqissa, shabboda chalgan ohangdan, —
raqs etgan shu gulshan bari seniki.

Bir vaqt yov zabtidan ko'zlaring tindi,
Bag'rimiz qonidan lolalar undi,
Erkinlik shuuri har dilga singdi,
Qanday baxtiyorsan Vatanim endi, —
yop-yorug' kelajak bari seniki.

*Namangan,
1936, 28-iyun*



CHAMAN

(Mashq she'rlaridan)

Bu Vatan maqtovlarin har qancha yozsang oz ekan,
 Dilga dil, tilga ko'ngil, albatta, jo'r ovoz ekan,
 Bog'lar, gulgun chamanlar qo'yni bazmi noz ekan,
 Keldi ko'klam, lola, nasrin bir-birovdan soz ekan,
 Jo'r bilan soj, qarqunoq,

qumri baland parvoz ekan,
 Kuyla, shoir, ulfati chor birlashib hamroz ekan.

Boychechak yuz sarg'ayib, qishdan qutulganda arang,
 Yangidan tushsa nazardan, endi insofga qarang,
 Chuchmoma, ra'no, binafsha ko'zni bog'lovchi farang,
 Ko'zga oqqay bu chamanning gullaridan mingta rang,
 G'unchalarning kulgisidan qalb qulog'ida jarang.
 Yoz ekan, tannoz ekan, sernoz ekan, damsoz ekan.

Qatma-qat alvon kiyib maqtanganida arg'uvon,
 Chirmovuuq karnay chalib, tortmasmi kuygandan fig'on?
 Pora-pora barg to'kib lola hasaddan bag'ri qon,
 Tomda yolg'iz o'ksinur bechora qizg'aldoq hamon,
 Yer chizib gulxayri motamlik to'nin kiygan zamon,
 Shohigul atlas qanotli, gerdayishda g'oz ekan.

Yerda qolgan parvarishsiz bunda gulbeordir,
 Bo'y cho'zib hatto chechakka yetmayin ham zordir,
 Tugmadek cho'pga chizilmak ishtiyoqi bordir,
 Bitta gultojixo'roz sho'rlikka jindek yordir,
 Sadarayhon xushqiliq, bechoraga dildordir,
 Bu chaman atrofida safbasta bir sarboz ekan.

Tillaqo'ng'iz hid o'g'irlab yashrinur barg ostiga,
Tushmasin hech gul mabodo sa'va, bulbul dastiga,
She'r o'qir tinmay chamanning har balandu pastiga,
Bu tomosha, ayshu ishratdan kechib, chumchuq nega,
Cho'p ko'targanda yugurmakda terakning ustiga,
Ba'zilar aytar, duradgor, ba'zilar, darboz ekan.

Keng Vatanning bog'u bo'ston qissasi bo'lmas tamom,
Qayga borsang mingta quvnoq yuz kulib bergay salom,
Baxtli, erkin umrimiz millioncha yil qilsun davom.
Bu chechaklardan muhabbat ahliga guldasta — kom,
Endi yalqovlikni tashlab mutlaqo G'afur G'ulom,
To'xtamay she'r yoz ekan, she'r yoz ekan, she'r yoz ekan.

*Toshkent,
1937, 13-mart*



SAN'ATIM

(O'zbek san'atining nishonli o'g'il-qizlariga)

Ey asrlar asirasi, zulmat qurboni,
Tarixlarning gardanida yoqut marjoni,
Isyonlarning sut emizgan onasi — qoni,
Kishilikning teng yarimi, sherigi, joni,
Odamlikning bir bo'lagi, mazmuni — joni,
Yuragimning Gulsarasi bo'lgan san'atim.

Ichkarining soqovlangan tili so'ylarkan,
Qayg'u-alam ertaklarin mung-la kuylarkan,
Jon dimog'i zulmning zahar gulin bo'ylarkan,
Hasrat ko'zi chimmatlarda qonga to'larkan,
Cho'rilarining, kanizlarning yo'lin o'ylarkan,
Jigirimning bir porasi bo'lgan san'atim.

Ichkarining darichasi — porloq ko'zisan,
Sho'x qizlarning musiqaviy quvnoq so'zisan,
Ozod o'zbek xotinligin kulgan yuzisan,
Ming Zebining, ming Qumrining xuddi o'zisan,
Halimasi ham Sorasi bo'lgan san'atim.

Olam tomi ustidagi chalingan bu soz,
Dunyolarning san'atiga bo'ldi jo'r ovoz.
O'zbek qizin ovozi bu — erkin sarvinoz,
Har maqomda minglab g'amza, har pardada noz,
Chaling, do'stlar, chaling, yorlar, chalingiz bir oz,
Chal, ko'ngilning setorasi bo'lgan san'atim.

Baxt qo'shig'in qichqirganda osmon yangrar,
Ozodlikning qadrin bilgan bu kuyni anglar.
Yuksalishga poyandozdir muttasil tonglar,
Ustoz o'zbek san'atidan tuzgun ohanglar,
Gulzor elning har uyida avjing jaranglar,
Ishq bo'stonin gulnorasi bo'lgan san'atim...

1937

O'zbekiston shabcharog'i, olmosi Farg'onadir,
Yerda yulduzlar kabi har yerda gavhar yonadir,
Har taraf bog'i Eram, har manzil koshonadir,
Quvnagan xalqning labida kanda bo'lmay yonadir,
Chunki unga baxtu iqbol har zamon dildoru yor.

Vodimiz tanburki, har bir vaqt ovozi soz, jarang,
Bir kanal ochding kumush tordek unga monand tarang,
Xalqi jo'r bo'lsa bu tanburga bo'lur olam garang,
Yer zumurrad, ko'k zabarjad, har tarafda mingta rang,
Yashna, xalqim, yashna, vodiy, yashna, e setor, tor.

Bu kanal ochmoqqa chiqdik bir sevimli tong chog'i,
Bizni olqishlardi vodiyning quyoshli yer, tog'i,
Bu kanaldan gullagay o'lkamning bo'stonu bog'i,
Suv quyilgan chog' ko'rindi mehnatimiz salmog'i,
She'r o'qiymen, shoiring G'afur G'ulom, men bor, bor.

1935



KUZATISH

*(O'g'lim Jo'raxonning harbiy xizmatga chaqirilishi
munosabati bilan)*

Umrim, ey sen bo'lib shuncha beg'ubor
To abad aylading meni baxtiyor.
Umrim, ey sen bilan qilib iftixor,
Bo'layin o'lguncha men ham minnatdor!

Tug'ilgan kunimoq keng peshonamni
Tole yulduziga barobar etding.
Beshinchi yillarning to'lqinlarida
Beshigimni o'z qo'ling bilan tebratding.

Lenada ishchilar otilgan kuni,
Abjad o'qish uchun maktabga bordim.
Bobomga shul kuni yuz yosh to'lmishdi,
Taajjub qilamen toleimgakim:

Napoleon Moskvada etik yo'qotib
Ishtonsiz Parijga qochgan chog'ida,
Kelajak kunlarning sutin asqatib,
Bobom uxlar Vatanim erk quchog'ida.

(Jo'ra, shu chistonni do'stlaringga ayt;
«Bobosi tug'ilgan kun, nabirasi
Alifbe o'qishga kiribdi», — faqat
Aytmagil, yuz yildir buning orasi.)

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga,
Tasodif emasdir, balki sen-bizni
Kurashlar taqmishdir baxtning ipiga.

Yigirma uchinchi yilning tongida
She'rim bilan egizak bo'lib tug'ilding,
Yillar o'tib har ikkov o'g'il ongida
Ufqlar ochildi, fazolarga teng.

She'r o'sdi, sen o'sding soatma-soat,
Mana endi, ulg'ayib, harbiy yoshing bor.
Do'stlar bilan safda o'qishga albat
Men yozgan egizak marsh — yo'ldoshing bor.

Ulug' g'alabalar arafasida
Qabul qildi seni pedinstitut,
Senga dars berguvchi muallimlarning
Hurmatin doimo sen yodingda tut.

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga.
Tasodif emasdir, balki sen-bizni
Hayot o'zi taqmish baxtning ipiga.

Sening-chun she'rimni yozar ekanman,
Ukang O'sar yelkamda pichirlatib lab,
Harflarni bir-biriga qo'sholmasa ham,
O'qib bordi so'zlarni qiynab, hijjalab.

Fe'lini bilasan O'sar polvonning,
Hoziroq sendanam otashin-olov.
It ko'rsa «Gitler» der, mushuk — «Mussolin»
Manjalaqi har hayvon doim unga yov.

— Dada, — deydi. — Gitler qachon o'ladi?
Men deymanki: — Eng katta bayram kunida.
— Bayram o'zi qachon? — deydi, so'raydi.
— Bayram fashizmning o'lgan kuni-da!

Taajjub qilamen oilamizning
Tolelar yaratgan tasodifiga.

Fashizm itlari quturgan damda
Kira olding kurashning keskin safiga.

Kulumsab turg'uvchi toleing porloq,
Xuddi shu yil tappa-taq o'n sakkiz yoshing.
Vatan qirg'og'iga yov qo'ymish oyoq!
Jangga yur, Jo'raxon, xalqlar yo'ldoshing!

Men ham roppa-raso Pushkin yoshida,
Faqat bu kurashdir, emasdir duel.
Duelda o'lurlar, kurashda — hayot,
Tarix talab qilgan ulug' qiron yil.

O'sar, mujda senga, ulug' bayram kun
Bo'lar yov yerida xuddi ertaga,
O'lur Gitler, fashizm, o'lur dahshat — tun...
Xalq yurgach, bu bayram bo'lmasin nega!

Bobolar udumin tutib nazarda
Kurashda toleing bo'lur senga yor.
Chunki bu kurashda ulug' sarkarda —
Adolat bayrog'i bizga iftixor.

Saflar oldida bo'l, mard bo'l, botir bo'l,
Do'stlarga hamohang jo'ra bo'l, jo'r bo'l,
Ona yurt hurmati, Vatan hurmati,
Xalqimning hurmati, g'olib bo'l, zo'r bo'l.

1941



MEN YAHUDIY

(Berlindan berilgan bir radio eshittirishiga javob)

I

Men yahudiyman!
Nomimni tilingga olma,
e, olchoq!
Kimligimni eng katta
buvingdan so'ra.
Bobolaring
boshiga shox taqib yurib,
Bilmasdan
tuz nima,
o't nima,
lungi...

Va Nibelungi,
Vahshat masjidida
gotik naqshlar
Hali sodda
va hali bo'lganda g'o'ra;
Asriy aqidada momaqaldir oq
Yarataroq
Bir xudo bo'lib,
tavrot yozgan yahudiy,
men yahudiyman.

Eh-he...
 Bilolsayding
 qancha mashaqqat,
 G'urbatda kezganman
 bilonihoya...
 Uzoq bir umrki,
 doim darbadar,

Aqlini orqalab olgan
bir karvon...
Fir'avnlarni quvlarkan,
Nilning labida —
O'z zehnim, fikrimning
g'arib mardudi,
men yahudiyman!

Nega so'ylamasdan
turmoqdasan tin,
E, Baytulmuqaddas,
sen bergil xabar,
Yig'i devorlari
ko'hna Falastin...
Besh ming yil ilgari,
chorak asr oldin,
Tarix betlarida
javrab kelguvchi,
O'zi soqov
qal'ai Bobil singari,
Aytib kelganman:
Men ham odamman!
Qayerda,
qaydadir,
Ayting, fir'avnlarni,
Shu tuproq zaminda
mening vatanim?
Yoinki,
kamolot — tuhmat bo'larak
Ko'milsinmi muallaq
osmonda tanim?
Jim!
Fir'avn jim, xoqon jim!
Payg'ambarlar,
sulaymonlar jim.
Bir xabar keltirmas,
umid hududi,
Men yahudiyman...

II

Men yahudiyman!
Nomimni tilingga olma,
e olchoq!

Beda tamaida
bo'ynini cho'zib,
Boshi jodi ichra qolgan
eshakday

Manfur, chinqiroq
Ovozingni radiodan
hamma eshitdi.

«...Unday yahudiy,
bunday yahudiy...»

Bali, yahudiy
Men yahudiyman...

Inson qoni aralash
millionlar karra
Va mening qonim ham
xalqlardan zarra.

«...Irqu dinu millat...»
Tag'in nimadir?
Bilsang edi, bularning barisin
bizda:

Sen itdan —
to'ng'izni ajratish uchun

Baytariy ilmida
bobi zammadir.

Inson irqidanman,
inson millati,
Menda yo'q afyunning pinaklaridan
yaralgan dinlarning
zarra illati.

Shu tuproq zamindir
mening vatanim.

Tug'ilish, yashayish,
mehnat va nasl,
Muhabbat ham g'azab...

Insonda ne xislat
bor bo'lsa mavjud;
Bariga qobil,
barchasiga bop.
Shu tuproq zaminda
qolajak tanim.
Bilgil, e mardud,
Bizlarmiz olamda
xalqlar mas'udi,
Men yahudiyman.

Bu erkka intilgan
xalqlar tuprog'i —
Muqaddas, daxlsiz,
buni bilib qo'y.
Sen siflis tumshuqni
suqmoqchi bo'lib,
to'rt oyoqlab
O'rningdan qo'zg'algan chog'i
Zaharli nayzaga aylanib ketdi
Bizning badandagi
har bir tola mo'y.
Qo'zg'alldi butun xalq,
rus,
ukrain,
o'zbek,
yahudiy;
Ikki yuz millionli
yuz ellik millat,
Uzoq falsafaning
hech hojati yo'q;
Zamin tarbuzidan
fashizm — illat
Yo'qolur
juda tez,
mutlaq abadiy.

Shunda sening
murdor taning bir umr
bo'lar jahannam,
fir'avnlr barham,
G'oliblar safida
turarak men ham.
Ya'ni sodda formula:
yahudiy — odam.
Mening kimligimni olam olqishlar.
Ko'zimda baxtimning
Quyosh — surudi,
men yahudiyman...

26.6.41



SEN YETIM EMASSAN

*(1941—1945-yillar urushining ota-onasiz
qolgan go'daklariga)*

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon
Vataning — onang,
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq,
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor — otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan,
Bu yerda
 na g'urbat,
 na ofat,
 na g'am.

Bunda bor:
 harorat,
 muhabbat,
 shafqat
Va mehnat nonini ko'ramiz baham,
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Bu yerda muzlagan
Ajdar halqumli
Vahshat to'plarining
Qahqahasi yo'q.
Bu yerda — odamzod
 shaklida yurgan
 la'nati devlarning

manfur, yuqumli,
maraz namoyishi
topolmas huquq.

Ulug' jang kunidir,
Jangki, beomon,
Lashkar degan axir
Bexatar bo'lmas,
Otang o'lgan bo'lsa,
Qayg'urma, qo'zim,
Qo'zim usti
Minnating boshimga durra.
Shu sog'lom havoda
Salomat — omon,
Xo'rsinmay, erkinlab
Ola ber nafas.
Ey, ulug' naslimning
Yuragi, joni,
Kiprigingga ilinmas
Yig'idan zarra.
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Yetimlik nimadir —
Bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning
Sargardonligi
Isitma aralash
Qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgusidan
O'chmaydi sira.
Men yetim o'tganman,
Oh, u yetimlik...
Voy, bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga
Bir mehribon qo'l,
Bir og'iz shirin so'z
Nondek arzanda.

Men odam edim-ku,
Inson farzandi...
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Ko'zinga uyquning
Mudroq ovchisi
To'rin solmasdan, —
(Birinchi gudokka
Ikki soat bor) —
Otalik hissining
Bebaho, laziz
To'lqinlari ichra
G'arq bo'lib ketib,
Aziz boshing ustida
Termulmakdaman,
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.
Nega cho'chib tushding?
Murg'ak tasavvur,
Go'dak xayolingga
Nimalar keldi?
Balki Odess dahshati,
Kerch fojiasi,
Yovvoyi maxluqlar,
Qonxo'r vahshiylar...
Mammasi kesilgan
Sho'rlik onangning
Pajmurda gavdasi
Ko'zing o'ngida
Butun dahshati-la
Aks etar endi.
Onang xo'rlandimi,
Otang o'ldimi,
Sen yetim qoldingmi,
Qayg'urma, qo'zim,
Ko'zim usti,
Minnating boshimga durra.

Ota-onasining
Tayini ham yo‘q,
Sut ko‘r qilgur, haromi
Gitler oqpadar
Farzandning qadrini
Qayerdan bilsin?
Bir qo‘ng‘iz mo‘ylovli,
Baroq soch mal‘un,
Jigar rang bir mundir
Istagi uchun
Nahotki yerimiz
Chappa aylanib;
Nahotki daryolar
Oqar teskari,
Nahotki odamlar
Kezar darbadar?!
Axir, juda yaqin
Qonli intiqom,
Alhazar,
 alhazar,
Ko‘pirar,
 tomirlarda qon
Va portlar hademay
Bu o‘tli vulqon.
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Sen kulayotibsan,
Balki bu kulgi
So‘nggi oylar ichra
 birinchi chechak.
La‘li labingdagi
G‘uncha tabassum,
Albat toleingga
Muhr bo‘ladi
Va bunda aks etar
Porloq kelajak.

Tong yaqin,
tong yaqin,
oppoq tong yaqin.

Bir nafas orom ol,
Uxla, jigarim.

Oq oydin
tong oldi,
Uxlamog'dasen.
Lablaring shivirlar,
Izlamog'dalar
Balki bir erkalash,
Bir ona bo'sa,
Ulug' oilaning
go'dak farzandi,
bilib qo'y endi:

Sen tezda ulg'ayib,
Olam kezasan.
Manglayda porlagan
Toleing — quyosh
Butun yer yuzini
Qilur munavvar.
Haqorat yemrilur,
Zulm yanchilur,
Jahonda bo'lurmiz
Ozod, muzaffar.
Sen yetim emassan,
Mening jigarim!

1942



SOG'INISH

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid,
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim,
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi...

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta, yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon keladi, g'olib, muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor,
Kutaman uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelyapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

Bahor novdasida bo'rtgan har kurtak
Sog'ingan ko'ngilga berar tasalli.

Ko'chatlar qomatin eslatganidek,
Nafasin ufurar tong otar yeli.

Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni — allakimimni,
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g'alat o'q yo xavfu xatar
Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...
Yo'q, u o'lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam sizni bizga xos.

Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O'rog'u gulqaychi, istak ko'tarib,
Hovrimni bosishga boqqa jo'nadim.
Hasharchi qo'shni qiz — uning sevgani,
Ma'yus bosar edi orqamdan odim.

Bog'da sarvinozim yo'q edi garchand,
Ko'makchim arg'uvon yoring Nafisa,
Seni sog'inganda qildim gul payvand
Bu bahordan hayot olardi bo'sa.

Dur bo'lib taqilur yoring bo'yniga,
Sadafday ko'zimda behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo'yar, vasvasamdan kuladi quyosh.

Asaldan ajragan mumday sarg'arib,
Ini yo'q aridek to'zg'iganim yo'q.
Ulug' e'tiqodda o'laman qarib,
Abaddir mendagi padariy huquq.

Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni,
O'zing to'qib ketgan katta savatda
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin, albatta.

Yayov, ko'ksim ochiq, boshda shaftolu,
Xuddi mo'ylabingdek mayin tuki bor,
Har bitta shaftolu misoli kulgu,
Shafaqday nim pushti, sarin, beg'ubor.

Suyganing labida reza ter kabi
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

Ye o'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang, danagin saqla.
Shu meros bog'ingni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog'da tovus kabi xiromon bo'lib,
Umid danagini birga ekingiz,
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

Toshkent,
15-may 1942-yil



BIZNING KO'CHADA HAM BAYRAM BO'LAJAK

Mahshar hayotning ham chegarasi bor,
Zulm zanjiridan so'kilar tugun,
Radio karnayi bashorat berar:
Muqaddas arafa kunlari bukun,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Bog'imiz husnida xazon ofati
Ko'klam yeli bilan chechak otguvsi'.
Bu xo'rlik, haqorat, alam kulfati
Jahannam qa'riga borib botguvsi.
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Butun savati-la alvon yozilur
Katta oilaga loyiq dasturhon.
Qadrdon do'stlarga noma yozilur,
Chunonchi: «Bo'ling, — deb, — bizlarga mehmon»,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qrim sharoblari jomga quyilur,
Musibat kun to'kilgan qon bilan yoshdek,
Saxiy barkashlarda bug'lanib kelur
Ukrainaning noni issiq quyoshdek,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qizlarni qo'ltiqlab kelar qahramon,
Ko'zlarda aks etar o'lmagan bu nasl.
Quloqda «bobo» deb yangraydi nido,
Oltin beshiklarda tug'ar yangi fasl.
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

¹ Fuzuliydan. (*Muallif eskartishi.*)

Yigitlar davra olib ayturlar qo'shiq,
Hijronzada qizlar bo'lib jo'r ovoz;
Visol kunidir bu va mukammal ishq
Odamlik sha'ni-la qiladi parvoz,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Raqslar boshlanur, gulo'yin, gopak,
Hunarini ko'rsatar qiz, juvon, xonim,
Shirakayf qarsaklar, gulduros chapak,
Ulug' ayyom kunidir, qolmas armonim,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Shoir ham she'r o'qir zavqdan asabiy,
She'rini o'qiydi u birinchi bor.
She'rda Gitlerday itvachcha kabi
La'nati so'zlardan bo'lmaydi g'ubor,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Ivirsib bazmga kechikib qolsam,
G'oliblar afv etsin — bir oz uzrim bor;
Bisotda yo'q emas, qiyiq, beqasam,
Biror kun dam olsin aziz jomakor,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

G'aflat hammomida kirim qoladi,
Yengil tortajakman misoli pardek;
Ko'ringan do'stlarim belim oladi
G'oliblar belida oltin kamardek,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Jaranglab chervonlar hamyondan chiqar,
Qizlarimga atab xina olaman.
O, ranglar...
Oy tug'ib, oftob bolqar,
Haqiqiy hafrang, haqiqiy chaman,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qarindosh, qondoshlar halqasin qoqib,
Erinmay aytarman: «Ayyom muborak!»
Afv etsin olamning posboni erlar.
Afv etsin g'oliblar, kechiksam andak,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

Qiyomat kunning ham so'ngi bor axir,
Bo'lmagay bu zulmat bilonihoya.
Vatanim tong to'yi g'oyatda yaqin,
Yengajak mutlaqo insoniy g'oya,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.

23-noyabr 1942-yil



VAQT

*(Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor
Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan)*

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat —
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam — qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayyuhannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko'ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz.
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.
O'zbekning barhayot avlodlarimiz,
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek
Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,
Zamon qo'rasining so'nmas cho'g'imiz.

Zamona soati zang urar mudom,
Minglab hodisalar minutlarga qayd.
Qahramon tug'ildi, shahar olindi,
Bir gigant qurildi sharaflı bu payt.

Reyxstag ustiga g'alaba tug'in
Qadashda otilgan adolat o'qi —
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.

G'alaba amri-la, mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qir
Million yil fashistning umriga la'nat.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,

Umrдан o'tajak har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

19.9.45



AVVAL O'QI

Kecha o'ninchini a'lo tugatding
Qo'lingda yetuklik guvohnomasi.
Ipak galstukka endi ijozat,
Yigitga munosib, yigit jomasi.

Ovozing do'rillar, demak, bu uyda
Ikkita erkakning sharpasi hokim...
Onang bo'yginangga tasadduq bo'lib,
Otang maqtanadi: tayanchim, ko'rkim.

Sezaman, oqshomlar meni uxlatib,
Utyosov djazini tinglaysan sekin.
Jovondan Mopassan tomi yo'qolsa,
Bilib-bilmaslikka solishim mumkin.

Qo'shnidan kelarsa jaranglagan sas,
Hushingni elitar ishqning g'ammozi,
Tentagim, bu qizning kulgisi emas,
Jonon piyolaning yangroq ovozi.

Seni ham domiga tortmoq bo'ladi
Sevgi deb atalgan bu eski sheva;
O'ziga — kuyov deb nomzod atadi
Milliard yigitlardan tul qolgan beva.

Biroq, vaqt ertaroq, sabr qil, o'g'lon,
«Shoshgan qiz yolchimas erga», deganlar.
Qalinga yetgundek bisoting ham yo'q.
Humoyun ovlaydi shoshmas merganlar.

Ulug' besh yillikning qarzi yelkangda,
Hali o'qilmagan minglarcha kitob,
Hali institut minbarlaridan
O'nlarcha olimdan tinglaysan xitob.

Falsafa — Aflotun, ilmlar — Sino,
She'rlar Pushkinni qidirar senda,
Otaga o'g'il bo'l, ya'ni xo'ja bo'l
Qon-ter bilan barpo bu sarzaminda.

Konlar — injenerni, tog'lar — Farhodni,
Ustasin chaqirar tonggi gudoklar,
Kecha o'ninchini tugatding... Bu oz,
Tom Soyer qissasin bilgan go'daklar.

Shunchalar o'qiysan, bir emas-bir kun
Ilmingga bu kungi dono qolur lol,
Onang oq sutini, otang mehnatin
Bilimdon boshingga bag'ishlar halol.

Besh yil — asr emasdir, g'animat fursat —
Endigi yuz yillik umringga garov,
Besh yillab shogirdlik umrin yashaydi
Sozga qo'shilguncha nay bo'lib g'arov.

Diplomsiz umrni umr ham dema,
Ozgina bilganni, bilmadim deb bil.
Olim o'g'il bilan otincha kelin,
Bir ming to'qqiz yuz elliginchi yil —

Marhamat! Bu uyning to'ri sizniki,
To'yga kelguvchilar mingdan kam emas,
Biz uchun havasning umri qarigan,
Qamishdan bel bog'lab xizmat qilsak bas.

Ko'pchilik aytgandek: kishi qarisa,
Ezma, nasihatgo'y bo'lib qolarkan,

Ne qilay, men axir ulug' naslimni
Komron, baxtiyor ko'rmoq bo'laman.

O'g'illar tolein tilab hamisha,
Otaning bilgani yaxshi duodir,
Siz qancha donoroq, g'olib bo'lsangiz,
Ayni muddaomiz — shu muddaodir.

20.10.45



SIYOHDON

Alisher qalamga qilganda xitob
Davoti yodidan ko'tarildimu?
Siyohdon, azizim, qora ko'zligim,
Qora tunlar aro yorigan ko'zgu.

Sendagi siyoh — yo'q, siyoh emas,
Qalbimda qaynagan qip-qizil qonim —
Dongimni olamga o'zing yoygansan.
Omon bo'l, qolmadi dilda armonim.

Yillarki, uxlamay ikkita shoir
(Sening ham she'ringa ancha haqqing bor)
Oqni qora qildik — qog'ozu qalam,
Har yaxshi fikrimiz bo'ldi beg'ubor.

Ulug' jang kunlarin yozar chog'ida
Mardlarning qonidek daftarga tomding.
La'nati mal'unlar nomin yozganda —
«Men qora emasman!» — dedingu tonding.

She'r tamom bo'ldi, rahmat, azizim!
Ne qatra sarf qilding quyib qo'yaman.
Bugun biz ikkovlon yozgan kitob ham
Chiqarmish, tabriklab, suyib qo'yaman.

12. 03. 48





SIZGA

*(O'rta Osiyo Davlat universiteti filologiya
fakultetida o'tkazilgan kechada o'qilgan)*

Majlisda muborak yuzingiz ko'rib,
Shoirning dovdirab qolishi mumkin.
Qaysingiz Alisher, qaysingiz Pushkin,
Qaysingiz Nodira, Lomonosov kim?

Xato aytmoqdaman, dono avlodlar,
Bu majlis egasi siz o'zingizsiz.
Endigi olamning har bir mushkuli
Hal bo'lmas mo'tabar bir so'zingizsiz.

Siz, axir, osmonni olmoq bo'lsangiz,
Ne uchun yelkamni tutib bermayin.
Aqlu balog'atning shotularidan
Yuksala beringiz sekundlar sayin.

Bir varaq qog'ozga besh so'z yozguncha,
Ming karra o'ylayman sizni, toki bu —
Sizday dono bola, o'g'il-qizlarim,
Bitta mo'ysafidni qilmasin kulgu.

Siz, axir, qutlug' uy egalarisiz,
Siz, axir, gulxanlar xo'jasi o'tdek;
Siz, axir, gulshanlar yaratolg'uvchi,
Nayson tongotari qutlug' bulutdek.

Yerdagi baraka qadamingizdan,
Aziz fe'lingiz-la olam munavvar.
Siz, axir, bizlardan endigi ming yil,
Yana ming yillarga berguvchi xabar.

Kimki o'z ko'zini siylash istasa —
Bizning avlodlarga bir nazar solsin.
O'qib, o'rganingiz, ijod qilingiz,
Hamma dushmanimiz bexabar qolsin.

Sizday o'g'il-qizni ulg'aytgan Vatan
Hamisha obodu hamisha dilshod.
Bizning avlodlarni tug'a olmagan
O'zin tanigandan buyon odamzod.

Ma'rifat yarashgan peshonangizda
Istiqbol bo'sasin aniq muhri bor.
O'z ota-onalar siz sharpangizda
Gerdayar, tashakkur, ya'ni shukri bor.

1948



QOG'UZ

Jonlanib o'zing ayt, qaysi so'z bilan
Sening maqtovingni kuylayin, qog'oz!
Do'stim Muharramga oshiq ko'z bilan
Bir umr telmurdim, ikkoving mumtoz.

Ko'zimning oqidek muncha tozasan,
Yaxshi she'rimdagi nuqtam qorachiq.
Ba'zida kichkina g'azal yozaman,
Mazmuni beg'ubor bag'ringday ochiq.

Ninaning uchi-la quduq qazigan
Azamat erlarning keng maydonisan.
Sadafday ko'ksingga injular tizgan
Oshiq shoirlarning jon, jononisan.

1955, fevral



ONAXONLARGA

(*Bayram guldastasi*)

Qutlug' bayram tongida bir dasta gul ko'tarib,
Qadrliroq do'stimning qo'liga bermoqchiman.
Hamma yuz oyday yorug', hamma chehralar tanish,
Dillar dilning nusxasi, barisi alvon chaman.

Shu qizga bersammikan?
Yo'q, yigiti ranjiydi.
Shu yigitga beraymi?
Qizi bir guldanda go'zal.
Ko'zim to'yda adashgan bolalarday gangiydi,
Olam-jahon xaloyiq biri biridan afzal.

Ro'paramdan kelmoqda rasmana — ona xotin,
Namoyishlar egasi salobat bilan bosib.
Mehnatkash, mushfiq, lobar, hatto bilaman, otin.
Hurmat ham, guldasta ham qo'ygan kabi munosib.

Oltinchi besh yillikning birinchi ko'klamidir
Ayolmand umrimizning umid to'la nahori.
Garchand lirik qo'shiqlar kuylamaklik damidir,
Ishga qistab turibdi mehnatkashning bahori.

Tol chiviqqlar yaprog'in tovushsiz qarsagiga
O'ynamoqqa qo'ymaydi andishayu rioya.
Qo'shiqni yoshlar aytsin, ular chalgan chertmakka —
Sel bo'lib, bosh irg'atib qo'ya qolish kifoya.

Egachi-singil edik, amma-xolalar bo'ldik,
Odamlik talab qilar — bizning o'rta yoshimiz.

Aqlar bisotiga bo'g'cha kabi tugildik,
Elu yurt siylab turgan onaxonlar boshimiz.

Yag'rinli yel qaytargan durkun-durkun o'g'illar,
Qo'li gul barno-barno qizlarning enasimiz.
O'ljalar mazmun to'la yashalgan oylar, yillar,
Ona-Vatan timsoli — saxovat siynasimiz.

Ertasini o'ylagan indin bo'lmas pushaymon,
Fursat kasal emaski, o'tganiga suyunsang.
Minutlar bug'doy dona, o'tgan umr tegirmon —
Mehnatgina berolur bu shirmonga ko'rkam rang...

Ko'z ilg'amas dalalar bizning kishtu korimiz
Onaxonlar qo'li-la hamisha gulshan bo'lgan.
Teng mehnat obod qilgan baraka ro'zg'orimiz
Siz kuymanib shunchalik ko'zguday ravshan bo'lgan...

Qadrdon onaxonlar, kundalik ishimizning
Oltinqoziq yulduzi, xamirturushi sizsiz.
Yosh-yalanglar qalbida mehnatga zavq uyg'oting,
Kishi baxtiyor bo'lmas jamiyatda yumushsiz.

Qutlug' bayram tongida bog'laganim guldasta —
Xushbo'y qilsa bo'lgani onaxonlar dimog'in.
Kelajak bilan quyosh arqoq-erish payvasta,
Atlaslarga burkadi Vatanimning har yog'in.

April, 1956-yil



BIZNING UYGA QO'NIB O'TING, DO'STLARIM...

O'zbekiston yurtiga borgan chog'i,
Gurr ochilur qardoshlikning quchog'i,
Dilda qaynar ne'matlarning o'chog'i,
Asfalt yo'lda «Volga»ning to'pichog'i,
Avval bizga qo'nib o'ting, do'stlarim!

G'afur G'ulom kimligini bilasiz,
Adresimdir O'zbekiston, shubhasiz,
Qistalang gap, biznikiga kelasiz,
Tashrif etib meni xursand qilasiz,
Baxt uyida tunab o'ting, do'stlarim!

Olam bilar, Furqat ko'cha yo'li bor,
Beruniy maydoni, Yoshlar ko'li bor,
Muqimiy binosini xuddi so'li bor,
Ko'rsatuvchi militsioner qo'li bor,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Do'stlar uchun darvozamiz lang ochiq.
Boshingizga gul yaprog'idan sochiq.
Bu toza suv, atirsovun, oq sochiq,
So'lim ayyom, kelishingiz yarashiq,
Albat bizga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Kelasiz deb jambil, rayhon o'tqazdim,
Kim kelibdi dasta-dasta tutqazdim,
Za'far bitmay qoldi — bir oz yutqazdim,
Qardoshlikda oltmish bahor o'tkazdim.
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Joyni solib gulzorning o'rtasiga,
Parqu bolish, atlasdan ko'rpasiga,
Musht tushirib qayg'uning kallasiga,
Jo'r bo'lishib o'n besh til yallasiga,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Shukr aytaman toleimga, bolam ko'p,
Chakkalarga taqilgudek lolam ko'p,
Kelin-kevat, tog'a, amma, xolam ko'p,
Ko'k choy uchun yetgulik piyolam ko'p,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

O'rtangizda yozig'liq shu dasturxon,
Saxiylikka misoli katta jahon,
Dasturxonning boshi erur tuzu non,
Yulduz kabi yarashib sizday mehmon,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Dasturxonda mevalarning turi ko'p,
Barisi pok, shabnamday toza, mahbub,
Uzum, anjir, shaftoli der: meni o'p,
Shu qovunni so'yib yeng rohat qilib,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Bu qirg'ovul, bu tuvaloq, bedana,
Bu shirmoy non — yuzlarida sedana.
Qazi-qarta, somsa degani mana.
Hasip, norin, siz emassiz begona,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Mana budir gilos, olma, shakarob
Va bu esa charosdan tortgan gulob,
Ichganlarni hushyor qiluvchi sharob,
Bu qimizni sipqoring kuchga qarab.
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Har guruchi anor dona osh bilan,
Muharramoy laganmas, quyosh bilan,

Qo'l ko'krakda, ta'zim etib bosh bilan,
Yor-og'ayni, qari-qartang, yosh bilan
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

She'r o'qiylik Lutfiydan, Navoiydan,
Bedil, Furqat, Pushkin ila Jomiydan,
Keyin qolmay zamona ayyomidan,
Dil yorisin misralar ilhomidan,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Har kitobdir oilamiz oftobi,
Tirsillaydi kutubxona shkafi,
Kimniki deb so'rsa mehmon arbobi,
G'afur degan bir Nasriddin kitobi,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

Keksa shoir tilidan ovozimiz,
Shunday o'tsin har bahoru yozimiz.
Ko'p ko'rinsin ko'zingizga ozimiz,
Do'stlar uchun jonimiz, niyozimiz.
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!

*Moskva,
1959, 15-fevral*



SEVSAM SEVIBMAN-DA

SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim,
Yetti rang tovlangan quyosh kabi pok.
Koshkiydi o'ttiz yil orqaga qaytib,
Ishqimni aytsaydim qilib yoqa chok.

So'zlarin jarangin eshitmak uchun
Izlanib, topoldim bahona — savol.
Samarqand tongining yeliday mayin
Kulimsab lab ochdi, bir butun jamol:

— Mayiz bozoriga chapdan borilur,
Anjir ham shu yerda, anor ham shunda.
Muncha ham soddasiz, muncha o'zbeksiz,
Yo'l yitib bo'larmi yop-yorug' kunda...
Agar-chi, qadimiy samarqandiyman,
Kaftim chizig'iday hamma yer ayon,
Bag'rimni erkalash, muzika tinglash
G'oyat zarur edi — nozik bayon.

SamDU qopqasida ko'rganim qizning
Qaymoq mazmuniga jonim omoda.
Samarqand mazmunli ko'rkam yulduzni
Sevsam sevibman-da,
o'zbekman,
sodda...

1966, mart



MUHARRAM

Dunyo-dunyo gunohimni kechirgan,
 Suv deganda menga sharob ichirgan,
 Qo'ltiq tutib shohin kabi uchirgan
 Azizimsan, jigarbandim Muharram,
 Sanalganda jigar-bag'ring bo'lmas kam.

Azizimsan, do'stim, jonim, tozasan,
 Tozalikda el aro ovozasan,
 Mendan boshqa tushmagan bir sozasan,
 Mehribonim, aqdu bandim Muharram,
 Ohularni qiyg'ir ko'zing qilsin rom.

Rayhon, yalpiz, sunbul, jambil — barisan,
 Tola soching mazmunin anbarisan,
 Oshiq bo'lgan kishi mendek qarisin,
 Ulug' Mirzo onasisan Muharram,
 Farzandlarim siynasisan Muharram.

Yulduz sonli bolalarni sen tug'ding,
 Ba'zan havo issiq keldi, bo'g'ilding,
 Bir xamirdek G'afur bilan yo'g'rilding,
 Bir o't ichra pishgan jonim Muharram,
 Go'zallikda Shirin nomim Muharram...
 Salomat bo'lg'aysan xonadon boshimiz,
 Quyosh bo'lgan non kabi yo'ldoshimiz
 Nasibamiz sen pishirgan oshimiz,
 Men qalb bo'lay, qalbimda qon Muharram,
 Men tan bo'lay, tanimda jon Muharram.



BIR DO'ST XOTIRASI

Samarqand shahridagi Ulug'bek minorasin
Yoshlikda ko'rgan edik bulutli osmon ichra...
Katta qardosh xalqlarning mehnatkash iborasin
Birga-birga yozgandik: men endi hijron ichra.

Qaydasan, aziz o'rtoq, she'ringni takror o'qib,
Nabirang tizzamdayu nomingni qilaman yod.
Marg'ilonda quyoshday krepdeshinlar to'qib,
Hulkaringni yasatdik, oilang bo'ldi obod.

Bog'imda qirq tup o'rik — o'zing ekib ketgansan,
Ishxonam maktab yoni — chuvvoslar qulog'imda.
Devor osha bolalar — shuni o'zing aytgansan,
Qachonki gul ochilsa — nafasing dimog'imda.

Baxshilar so'zi bilan qo'biz chertib yurganda,
Jizzax sahrolarida qabarmagan oyog'ing.
Nuqul bahor yashaysan — ming yil umr ko'rganda,
G'azallaringni kuylar million-million o'rtog'ing.

Oinada o'zimni ko'rib o'ksinib ketdim,
Soch-soqolim paxtaday — qatorimda qanisan?
Navqiron yoshligimiz damin umsinib ketdim,
Chertmak dutorimdayu alyorimda qanisan?

Yaxshiyam bag‘rim aro shogirdlarim — yupanchim,
She‘r majlislarida to‘polonchi quvonchim.
Xorazm tarixiday uzun umr — tayanichim,
Shu kuyning davomiday million yillik ishonchim,

Senga rahmat aytadi, do‘stim Hamid Olimjon,
Senga rahmat aytadi, do‘stim Hamid Olimjon!

1960, yanvar



QOR

Katta parquv bolishdek kelguvsi ne'matlarning
Hammamizga sut bergan onaxon siynasi bu.
O'zbek shuhrat qozongan oftob ma'rifatning
Bugungi tongotarda suvi, xazinası bu.

Singib boradi qorlar yerning mag'zi-mag'ziga,
Eng yetuk shoirlarning xalq og'zida kuyidek.
Ishoning sohibkorning umidiga, lafziga,
Aytgani rost chiqadi dilidagi o'yidek.

Million-millıon topshirib, quvongan edik kecha.
Hunarimiz oshmoqda, har kecha tong otguncha.
Tursunoy, sen go'zalsan, lablaring misli g'uncha.
Xalqini yaxshi ko'rgan qizlar bo'lar seningcha.

Katta parqu bolishdek kelguvsi ne'matlarning
Hammamizga sut bergan onaxon siynasi bu.
O'zbek shuhrat qozongan kattakon ma'rifatning
Naq to'rt millıon paxtadek o'zbek xazinası bu!

1959-yil, dekabr



MENING BIR SATRIM

Qalbidam qimmatli bolalarimning
Kapalak singari sho'xliklari ko'p.
Ularning manglayi baxtimday mahbub,
O'pib erkalayman o'z lablarimni...

Biror tong bittasi yo'talib qolsa,
Jonimni hovuchlab dilim uradi.
Yarim dam ko'zimdan yo'qolib qolsa,
Tug'ma chanqov kabi tilim quradi.

Topmasdan qo'ymayman bolalarimni,
Chamanim ziynati lolarimni.
Ular-ku sho'xlikda kapalakdan zo'r!
Ammo topoldimmi, sezaman huzur.

Har bolam ufurgan nafasini atri —
She'rimning eng yetuk, eng yaxshi satri.

1955, fevral



Muncha ham sog'intirding, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko'z bilan intizor tanim,
Qanot qoqqan jo'jaday titrab badanim,
Ishtiyoq hijronida qoldim, sevganim,
Chamanlar, gulbog'lar yodimga tushdi.

Loladan poyandoz har bir qadamda,
Uzluksiz kulkuga doimo banda,
Oltin tuprog'ingni o'pganim damda
Nafasing sezilar edi badanda,
Haroratli quchoqlar yodimga tushdi.

Issiq quyosh boshimdan silab o'stirgan,
Oyog'imga ustingda kirmagan tikan,
Kiprigimga qo'ngan zarrinkor changdan,
Alqissa, shabboda chopgan ohangdan
Musiqaviy jumboqlar yodimga tushdi.

Baland-baland tog'laring ming pillapoya,
Archalar yonbag'riga tashlaydir soya,
Men oshiq shabbodaya, quyosha, oya,
She'r o'qib, she'r o'qib bilonihoya
Chuldiroq irmoqlar yodimga tushdi.



BAHOR OHANGLARI

O'rik gullarini emar bolari,
Nasrin yaprog'ida titraydi shabnam,
Ipak qurt tuxmida hayot asari,
Olam nikoh oqshom bir zebo sanam.

Ilk ko'klam fayzini sovg'a solmoqqa
Tanbur kosasida sharob kerakdir.
Damlar mazmunini qamrab olmoqqa
Dunyoday kattakon kitob kerakdir.

Atlasday tovlangan yonbag'ir qirlar,
Bepoyon gul gashtin sursa necha do'st,
O'zligin unutgan oshiq-ma'shuqlar
Yalakat danakday qo'shmag'iz bir po'st.

Navro'zi bedana o'rganchik sayrar
Yanglish chuchutlarda sevgi ohangi.
Yosh irmoq sohilga tilini qayrar.
Quyosh nusxalidir muhabbat rangi.

Tongotar ufqni loladay yirtar
Tinmag'ur mehnatning zabardast tovshi.
Har yerda hukmron tanti va lobar
Omonlik zamonning yenguvchi ishi.

27/III-61



MUNDARIJA

Yodgor (<i>qissa</i>)	3
-------------------------------	---

Hikoyalar

Chorbozorchi	50
Guvohlikka o'tgan ho'kiz	53
Farzandi solih	56
Jo'rabo'za	59
Chorasi ko'rildi	65
Kim aybdor?	68
To'rt hangoma	76
«Hojiboboyi gulfurush»	80
Obro'	81
Mening o'g'rigina bolam	84
Afandi o'lmaydigan bo'ldi	88
Hasan Kayfiy	95

She'rlar

Turksib yo'llarida	110
Tagdo'zi	117
Toshkent	122
Bog'	124
Bari seniki	126
Chaman	128
San'atim	130
«O'zbekiston shabcharog'i»	131
Kuzatish	132
Men yahudiy	135
Sen yetim emassan	140
Sog'inish	145
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak	148
Vaqt	151

Avval o'qi	154
Siyohdon.....	157
Sizga	158
Qog'oz	160
Onaxonlarga.....	161
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim	163
Sevsam sevibman-da	166
Muharram	167
Bir do'st xotirasi	168
Qor.....	170
Mening bir satrim	171
Muncha ham sog'intirding	172
Bahor ohanglari	173

Adabiy-badiiy nashr

G'AFUR G'ULOM

YODGOR

Qissa, hikoya va she'rlar

Nashr uchun mas'ullar: *Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva*

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Badiiy muharrir *Anatoliy Bobrov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Kichik muharrir *Nazmi Fozilova*

Musahhih *Fotima Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchi *Galina Otaskevich*

IB № 4256

Bosishga 5.11.2004-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84×108¹/₃₂
Tayms garniturası. Ofset bosma. 9,24 shartli bosma toboq.
8,5 nashr toboq'i. Jami 5000 nusxa. 254 raqamli buyurtma.
99-2004 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi. 30//700128.
Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.